

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Akram O‘tayev

**PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI
(Pedagogika tarixi)
(O‘quv qo‘llanma)**

Chirchiq – 2024

O'tayev A.Y. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma.- Chirchiq.:TIPI.2024.124 bet.

O'quv qo'llanmada "Pedagogika nazariyasi va tarixi" (Pedagogika tarixi) o'quv dasturi bo'yicha eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo'lgan pedagogika tarixi masalalari yoritilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagogika yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **Onaxon Jabborova**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Gulnoza Saparova, pedagogika fanlari nomzodi, v.b.professor

Muharrir:
Zubayda Sharopova, Pedagogika fakulteti dekani, dotsent

O'quv qo'llanma Toshkent viloyati Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institutining Ilmiy Kengashning 2024-yil 24-dekabrda 5-sonli bayyonnomasi bilan muhokama qilindi va nashr etishga tavsiya etildi.

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14-aprelda 136-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga givohnoma berildi. Ro'yxatga olish raqami № 702417.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuinsoniy qadriyatlara hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash hamda jamiyatda ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, bu jarayonda pedagogik faoliyatga tayanish vazifalari belgilangan. Chunki bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash samaradorligi vositasida jamiyatning ta'lim va tarbiyaga oid ehtiyojlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash samaradorligi vositasida shaxsni hozirgi zamon talablari asosida tarbiyalash, unga zamonaviy ta'lim berish va amaliy faoliyatda o'zlashtirgan bilimlarini qo'llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishda Pedagogika tarixi fani o'rganish va o'zlashtirishg zururiyat hisoblanadi.

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” o'quv qo'llanmasida eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo'lgan davrda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar, pedagogik g'oya va tadqiqotlar, pedagogik fikrlar rivoji bayon qilingan.

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yaqin kelajakda sifatli ta'limga erishish vazifasi qo'yilgan. Bu o'rinda “sifatli ta'lim” deganda mamlakatimizning ta'lim tizimida amalga oshiriladigan o'qitish, tarbiya vositasida va amaliy faoliyatga ta'lim oluvchilarni tayyorlash nazarda tutilishini ta'kidlash lozim. Shu jihatdan mazkur vazifani amalga oshirishda xalqimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish, ta'lim va tarbiya sohasidagi mutafakkirlarimizning pedagogik g'oya va fikrlari muhim o'rin tutadi. Mazkur faoliyat tushunchasining mazmunini anglab olish taqoza etiladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari – afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Chunki xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir. Ayniqsa, ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi

tasavvurlari, odatlari, munosabatlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan sanalgan afsonalarda ifodalangan.

Pedagogika tarixi quyidagi masalalar o‘ziga xos tarzda tahlil qilinishi lozim:

- tarbiya va uning asoslari;
- maktab tizimi va uni tashkil etish omillari;
- pedagogik fikrlarning tadrijiy rivojlana borishi.

Shu sababli oliy pedagogik ta’limida pedagogika tarixi alohida fan sifatida o‘qitiladi. Bu fan orqali, talabalarining quyidagi kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi:

- pedagogik fikrlar taraqqiyoti bo‘yicha nazariy bilim berish;
- tarbiyaning tarixiy tajribalari bo‘yicha ko‘nikmani shakllantirish;
- maktab tizimining tadrijiy rivojlanishiga doir malakani tarkib toptirish;
- talabalarining o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakani amalda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mazkur o‘quv qo‘llanma orqali talabalar:

- Eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo‘lgan davrlarda yaratilgan pedagogik manbalarni o‘rganadi;
- Eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo‘lgan davrlarda pedagogik fikrlar taraqqiyotini tadqiq etadi;
- Eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo‘lgan davrlarda tarbiya masalasiga yondoshuvlarni tahlil qiladi;
- Eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo‘lgan davrda maktab tizimini

Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda amaliy yordam beradi deb o‘ylaymiz.

1-Mavzu: *Pedagogika tarixi fan sifatida*

Reja:

- 1.Pedagogika tarixi fani xususiyatlari
- 2.Pedagoigka tarixi manbalari
- 3.Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Yurtimizda pedagogik fikrlar

Tayanch tushunchalar: pedagogika tarixi, fan, manba, fikr, ta'lim, tarbiya, davr, alloma, maktab, ibtidoiy jamoa, tuzim, qurol, mehnat, yozuv, o'qish, bilim, ko'nikma, malaka.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: "Ishonch hamkor", 2021.
2. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.: "Fan".2001.
- 3.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild, T.: «O'qituvchi», 2010.
- 4.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996.
- 5.Hasanboyeva O va boshq.Pedagogika tarixidan xrestomatiya.T.: «O'qituvchi», 1993.
- 6.R.A.Mavlonova va boshq.Umumiy pedagiguka. Darslik-T.: "Fan va texnologiya", 2018.
7. Qoshg'ariy M.Devonu lug'otit turk.Uch tomlik.-T.1960
- 8.Rustamov A., Abdurahmonov G'. Qadimgi turkiy til. Tekstlar qismi.-T.: "O'qituvchi". 1989.

**O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.**

Yusuf Xos Hojib

Pedagogika tarixi fani xususiyatlari. “Pedagogika tarixi” fani Umumiy pedagogika predmetining tarkibiy qismi bo‘lib, u eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan pedagogik jarayon tarixini o‘rganadi. Pedagogika tarixi fani inson va jamiyatning butun hayoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Shu sababli bu fan nafaqat Pedagogika, balki barcha ijtimoiy – gumanitar fanlar tarkibida muhim o‘rin tutadi.

“Pedagogika tarixi” fanining *maqsadi* – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o‘rganishdan iborat.

“Pedagogika tarixi” fanining *predmeti* - eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni.

“Pedagogika tarixi” fanining *vazifalari* - milliy o‘z-o‘zini anglash, kasbiy rivojlanish bilan bog‘liqlikda umumiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish, pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish va tizimlashtirish, pedagogik g‘oyalarni tahlil etish asosida ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Pedagogika tarixi fanining *ob‘ekti* quyidagilar hisoblanadi:

- ta’lim tarixi;
- tarbiya tarixi;
- pedagogik fikrlar tarixi;
- o‘qitish muassasalari tarixi.

Ushbu fan ana shu masalalarning tarkib topishi, rivoji va amaliyotini o‘rganadi. Bu jarayonlar har bir davrda o‘ziga xos rivojlanish yoki tanazzul bosqichlarida bo‘lgan.

Pedagogika tarixi fani o‘ziga xos *xususiyatlarini* quyidagilar tashkil qiladi:

- o‘qitishning tarixiy taraqqiyoti;
- tarbiya nazariyasining tarixiy rivojlanishi;
- pedagogik tadqiqotchilikning tarixiy tadriji;
- pedagogik amaliyot tarixi.

Bu masalalar Pedagogika tarixi fani tomonidan quyidagi *metodologiyaga* asosan o‘rganadi:

- pedagogik manbalar;
- ta'lim-tarbiyaviy metodlar;
- jamiyat ehtiyojlari;
- pedagogik tahlil va xulosalar.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda tarbiya asoslari bir necha omillarga binoan yangilandi va rivojlandi. Bu omillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- milliy davlatchilikning rivoji;
- islom dinining e'tiqod sifatida qabul qilinishi;
- falsafiy, tabiiy-ilmiy va aniq fanlarning taraqqiy etganligi.

O'rta Osiyo jahon pedagogikasi tarixiga munosib hissa qo'shgan mintaqalar hisoblanadi. Chunki bu mintaqada davlatchilik qadimdan rivojlanib kelgan.

VII asr oxirlarida O'rta Osiyoga kirib kelgan islom dini tarbiya asoslarini quyidagicha belgiladi:

- 1) yolg'iz Allohga e'tiqod qilish;
- 2) o'g'il va qizlarning teng savodxon bo'lishi;
- 3) xalq xizmatiga tayyorlanish.

Tarbiyaning bu yangi asoslari Qur'oni karim va hadisi shariflarga asosan amalga oshirildi. Ta'lim tili turkiy, arab va fors tillari edi. Natijada fanlarning ikki turi tarkib topdi:

- 1) diniy fanlar (Qur'on, Hadis va Fiqh ilmlari);
- 2) dunyoviy fanlar (tilshunoslik, Falsafa, Tibbiyot, Minerologiya, Geodeziya, Geografiya, Astronomiya va Matematika ilmlari).

Buning natijasida shaxs bilimli, e'tiqodli va axloqli inson sifatida voyaga yetkazildi.

O'rta Osiyoda o'ziga xos maktab tizimi amalda bo'ldi. Mazkur davrda maktabning quyidagi turlariga duch kelamiz:

- masjidlar qoshidagi maktablar;
- qizlar uchun otinoyi maktablari;
- davlatlar saroyi maktablari;

- ustozlar boshchiligidagi xususiy maktablar.

Bu o'ziga xos tizim bo'lib, "Pedagogika tarixi" fanida muhim o'rin tutadi.

Pedagogika tarixi manbalari. "Pedagogika tarixi" fani manbalari keng ko'lamligi bilan diqqatni tortadi. Manba - bu tarixiylik va zamonaviylik tajribalaridan o'tgan g'oyalar, bilimlar va metodlar majmuidir. Shu jihatdan pedagogik faoliyatning qonuniy asoslarida eng muhim manbalar majmui quyidagilardan iborat:

- milliy pedagogik meros;
- pedagogik ilmiy-tadqiqotchilik;
- xorijiy mamalakatlarining pedagogik merosi.

Mazkur manbalar asosida pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasi mazmuni keng ko'lamli idrok etiladi. Shu jihatdan pedagogiklarni tayyorlash asoslari tushunchasida me'yor, huquq va majburiyat kategoriyalari ham o'zining mazmuniga ega. Oliy pedagogik ta'dim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasini tashkil etuvchi me'yor, huquq, majburiyat va manba kategoriyalari to'liq idrok etilish kerak. Bu bilan bo'lajak o'qituvchilar kelgusi faoliyatining asoslari tushunchalari bilan kutilgan darajada kasbiy qurollanadi.

Bu manbalarning asosiylari quyidagilar:

- arxeologik ashyolar;
- xalq pedagogikasi namunalari;
- yozma asarlar.

Bu manbalar Pedagogika tarixi fanini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan *arxeologik ashyolar* qadimgi yashash manzillaridan topilgan mis va sapoldan yasalgan idishlar, yozuv qurollari, doskalar, turli narsalardagi bitiklar hamda ta'lim – tarbiya maskanlari o'rinlardan iboratdir. Ular ilmiy tahlil qilinib, eng qadimgi davrlardagi ta'lim va tarbiya jarayoni to'g'risida tasavvur hosil qilinadi. Bunda Tarix fanining yutuqlariga tayaniladi.

Xalq pedagogikasi namunalari “Pedagogika tarixi” fanining eng muhim manbalaridan birini tashkil qiladi. Bu manbalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- nasihat va o‘gitlar;
- tez aytishlar;
- maqollar;
- ertaklar;
- dostonlar;
- rivoyatlar;
- afsonalar.

Bu namunalarda xalqning pedagogik tajribasi o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan quyidagidarga e’tibor bering:

Nasihat:

Ota – ona ko‘rsatadi jahon yuzini,
Olinga bit har bir so‘zini.
Birisi Oy bo‘lsa, birisi Quyosh,
Tavob ayla – bosib ketgan izini.

Tez aytish:

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

Topishmoq:

Tog‘dan kelar lo‘k – lo‘k,
Bo‘yni uzun, ko‘zi ko‘k (Laylak)

Maqol:

Yaxshi bola yog‘ keltirar,
Yomon bola dog‘ keltirar.

Ertak:

“Zumrad va Qimmat” ertagini eslang.

Rivoyatlar haqida aytilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Rivoyatlar afsonalardan farqli ravishda bevosita hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarga asoslanadi.

2. Ular mavzu jihatdan turlarga bo'lingan holda yo biron tarixiy shaxs hayotidagi ibratli voqeani bayon etadi, yo geografik o'rin-joyning nomini izohlaydi.

3. Rivoyatlarda badiiy tasvirdan ko'ra ro'y bergan voqeani qisqa va ixcham, sodda va ravon tarzda bayon qilishga ko'proq e'tibor beriladi. Aslini olganda, aynan shu fazilatlar rivoyatlarning badiiyligini belgilaydi.

Afsonalar qahramonlari yaxshilik uchun yomonlik bilan, nur uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxt- saodat o'lkalarini yaratadilar. qahramonlik eposlarida vatan va erkinlikka bo'lgan muhabbat, o'z yurti va jonajon qabilasi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg'ulari ifodalanadi. Vatanini, xalqini sevish or-nomus va do'stlarga, safdoshlariga sadoqat kabi insoniy tuyg'ular, burch hissi, vatani va xalqi uchun o'z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish. Nazokat, aql-idrok, vafo va muhabbat, sadoqat, adolat, odamiylik kabilar ulug'langan. Eposlarda xotin-qizlarning fidoyiligi, jasorati, aql-idroki, erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatganliklari

Doston:

“Alpomish” dostonini yodga oling.

Bulardan ma'lum bo'ladiki, qadim davrlardayoq yosh avlodning fikri, zehni, xotirasi va fazilatlarini shakllantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Shu ma'noda “Pedagogika tarixi” fani Xalq og'zaki ijodi fani yutuqlardan ham oqilona foydalanadi.

Yozma asarlar “Pedagogika tarixi” fanining muhim manbalaridan biri bo'lib, ularning ikki turi mavjud:

- diniy kitoblar;
- mutafakkirlarning asarlari.

Diniy kitoblarda (Zardo'shtiylik, xristianlik va islom dini ilohiy kitoblarida) yosh avlodni E'tqodli, Axloqli va Barkamol voyaga yetkazish konsepsiyalari

bayon qilingan. Mutafakkirlarning yozma asarlarida ta'lim, tarbiya va pedagogik samaradorlik to'g'risida muhim g'oyalar, fikrlar hamda ta'limotlar ifodalangan. Shu jihatdan bu borada "Pedagogika tarixi" fani Dinshunoslik va Falsafa fanlari yutuqlaridan foydalanadi.

Pedagogika tarixini o'rganish bosqichlari. Pedagogika tarixini o'rganish va o'zlashtirishda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojlanishi va o'rganish bosqichlarini idrok etish taqozo etiladi. Bu bosqichlarni umumpedagogik qonuniyatlar va sivilizatsiyaviy jarayonlarga mos ravishda quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) Eng qadimgi davr (VIII asrgacha);
- 2) Birinchi Renessans davri (IX – XII asrlar);
- 3) Ikkinchi Renessans davri (XIV – XVI asrlar);
- 4) Yangi davr (XVII – XXI asrlar).

Bu bosqichlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu o'rinda eng muhim jihatlarini eslatib o'tamiz. Eng qadimgi davrda (VIII asrgacha bo'lgan davrda) tabiat asoslari va tabiiy hodisalar mohiyati tabiiy tajribalarga asosan o'rganilgan hamda o'zlashtirilgan.


Ayni paytda, insonning tabiat va tabiiy hodisalarga aralashuvi cheklangan bo'lgan. Bu davrga oid ma'lumotlar "Avesto" kitobi, Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devonu lug'atit turk" asari va xalq og'zaki ijodida mavjud. Shu jihatdan eng qadimgi davr tabiiy-ta'limiy qonuniyat tamoyili asosida o'zlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixining *birinchi Renessans* davrida (IX - XII asrlarda) tabiat asoslari va tabiiy hodisalarni ilmiy mushohadaga asosan o'rganish tarkib topdi. Bu davrda Muhammad Xorazmiyning (IX asr) "Zij", Abu Rayhon Beruningning (XI asr) "Hindiston", "Saydana", "Giodeziya" asarlari, Abu Ali ibn Sinoning (XI asr) "Shifo" asarlarida muhim ma'lumotlar berilgan. Mazkur davrda tabiiy fanlarni ta'lim asosida o'rganish va tadqiq etish, bu borada Ustoz – shogird an'anasi tarkib topganligi muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixining *ikkinchi Renessans davrida* (XIV - XVI asrlarda) tabiiy fanlarni madrasa ta'limi (o'rta maxsus va oliy ta'lim) vositasida o'rganish yuzaga keldi. Unga ko'ra, madrasa ta'limi dasturlariga geografiya, kimyo, biologiya va asrtronomiya fanlari asoslarini o'rganish kiritildi. Bu davrda Mirzo Ulug'bekning (XV asr) "Ziji jadid Ko'ragon", Zahriddin Muhammad Boburning (XVI asr) "Boburnoma", Mirzo Haydarning (XVI asr) "Tarixi Rashidiy" kabi muhim asarlar yaratildi. Bu asarlarda tabiiy fanlarni o'rganishning ta'lim vositasida o'rganish tamoyili ishlab chiqilgan.

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixining *yangi davri*_(XVII-XXI asrlarda) tabiiy fanlarni ilmiy – ijtimoiy asosda o'rganish va o'zlashtirish yuzaga keldi. Bu davrda Abulg'oz Bahodirxonning (XVII asr) "Tibbul xulq", Ahmad Donishning (XIX asr) "Navodir ul - vaqoe'", Munavvar Qorining (XX asr) "Yer yuzi", Mahmudxo'ja Behbudiyning (XX asr) "Muxtaxabi jo'g'rofiya" va yuzlab ilmiy – tadqiqotlar yaratilgan. Bu borada tabiiy fanlarni umuta'lim vositasida o'rganish tamoyili tarkib topdi.

Zero, Pedagogika tarixi fanini o'rganish bosqichlari yaxlit tarzda quyidagicha idrok etadi:



Shunday qilib, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hamda ishlab chiqarish sohalaridagi tajribalarning to'planib, takomillashtirilib keyingi avlodga yetkazilishi insonning Yerdagi hayot kechirishi, faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. "Pedagogika tarixi" fanini o'rganish bo'lajak o'qituvchiga qanday imkoniyat yaratib beradi?
2. Pedagogika tarixi manbalarini nimalar tashkil qiladi?
3. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Yurtimizda pedagogik fikrlar qanday kechgan?

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Pedagogika tarixi fani nimani o'rgatadi?

- A) Tarbiya, maktab, maorif va pedagogika sohasidagi ilg'or fikrlarni;
- B) O'tmish mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy me'rosini;
- C) Turli tarixiy davrlardagi tarbiya, maktab va pedagog nazariyalar;
- B) Ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini.

2. Pedagogika tarixi qanday fan?

- A) Siyosiy;
- B) Huquqiy;
- C) Ijtmoiy;
- D) Didaktik.

3. Ibtidoiy jamiyat davrida kishilarning mehnat faoliyati uch guruhga bo'lingan. Bular qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Go'daklar bolalar va o'smirlar hamda keksalar;
- B) Bolalar va o'smirlar, hayot va mehnatda to'la ishtrok etuvchilar, keksalar;
- C) Bolalar va o'smirlar, balog'at yoshiga etgan yigitlar va qizlar, mehnatga layoqatsiz kishilar;
- D) Yoshlar yigitlar faxrilar.

4. Eng qadimgi madaniy boyliklarning o'rganishdagi manbalar qaysi javobda to'liq o'z aksini topgan.

- A) Arxeologik qazilmalar;
- B) Xalq og'zaki ijodi materiallari;
- C) Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi;
- D) Xalq og'zaki ijodi, buyuk adiblar, allomalarning asarlari, Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

2 – Mavzu: Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim - tarbiya pedagogik fikrlar

Reja:

1. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim tizimi
2. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha tarbiya jarayoni
3. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Yurtimizda pedagogik fikrlar

Tayanch tushunchalar: Antik davr, tarbiya jarayoni, maktab tizim, pedagogik fikr, taraqqiyot, milliy davlatchilik, islom dini, davr, bilim, ko'nikma.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: "Ishonch hamkor", 2021.
2. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.: "Fan".2001.
- 3.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild, T.: «O'qituvchi», 2010.
- 4.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996.
- 5.Hasanboyeva O va boshq. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993.
- 6.R.A.Mavlonova va boshq. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Fan va texnologiya", 2018.
- 7.Rustamov A., Abdurahmonov G'. Qadimgi turkiy til. Tekstlar qismi.-T.: "O'qituvchi". 1989.
- 8.Qosimov S. Bitiktoshlar: tarix va talqin. –T.: "Fan". 1999.

Tarbiya bolalarga yaxshi so'z aytish, nasihat qilish, avvalo, o'z-o'zidan inson bo'lib yashash degani emas. Kim farzandlik burchini ado etmoqchi bo'lsa, tarbiyani o'zidan boshlashi kerak.

A. N. Ostrogorskiy

Tabiatning oliy mahsuli inson paydo bo'lishi tabiatning hodisalari, jarayonlarini o'rganshi, ulardan yashash uchun oqilona foydalanish asosida insonlar sekin – asta madaniylashuvi, ijtimoiylashuvi asosida pedagogik g'oyalar shakllana va rivojlana boshlagan.

Antik davrlarda ta'lim-tarbiya yoshlarga ota-onalarning yashash uchun tabiat ne'matlaridan foydalanish, uy-ro'zg'or yuritish, o'zaro va tabiatga munosabat axloqi, odobi sifatida shakllana boshlagan bo'lsa, bilimlar xajmi kengaya boshlagach, maxsus tarbiyachilarga ehtiyoj tug'ila boshlagan. Ma'lum qabila, elat, millat miqyosidagi ta'lim-tarbiya qoidalari majmuasi konsepsiyalar alohida kishilar (ya'ni kohinlar yoki oqsoqollar) tomonidan takomillash-tirilgan.

Antik pedagogikada tabiatga, atrof-muhatga o'zaro insoniy munosabatlar majmuasi bo'lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda donishmandlik, mehnatsevarlik, ma'naviy – axloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlanishi g'oyasi ilgari surilgan. Bu pedagogik g'oyalarning shakllanishi va rivojlanishida zardushtiylik ta'limoti, uning muqaddas kitobi "Avesto" (er.av.VII asr) da va qadimgi Xitoyning Daos maktabi namoyandalir pedagogik tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib qadimgi Sharq va Hindiston pedagogikasida insonning ma'naviy – axloqiy sifatleri va amaliy kasbiy faolligi bilan bog'liq sog'lom e'tiqod, mehnatsevarlik, sofdillik, saxiylik, insoniylik kabi shaxsning barkamollik g'oyalari ilgari surildi.

Islom ta'limoti, Qur'oni Karim va Hadislarda, shuningdek, tasavvuf ilmida ilgari surilgan zoxiriy va botiniy ilmlarning mazmun – mohiyatini, insonning ma'naviy barkamollik sifatlerini to'g'ri anglash ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Qadimgi Misr murakkab davlat tizimiga va keng miqyosli xo'jalikka yega bo'lgan mamlakat bo'lgan. Misr davlati va xo'jaligini boshqarish uchun xat-savodli, bilimdon kishilar zarur bo'lgan. Shu tufayli Misr flr'avnlari va a'yonlari xat-savodli va bilimdon xodimlar tayyorlashga alohida ahamiyat berganlar. Misrda o'qitish, ta'lim-tarbiya berish maskani maktablar bo'lib, boshlang'ich, o'rta va oliy

maktablar bo'lgan. Misr fir'avnlarining markaziy mahkamasi qoshida podsho xazinasini uchun maxsus amaldor mirzolar tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Bu maktablar katta tajribaga yega bo'lgan bilimli ustoz-o'qituvchilar bilan ta'minlangan bo'lgan. Maktablarda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot kabi dunyoviy va diniy bilimlar o'qitilib, maktablarda intizom juda qattiq bo'lib, tan jazosi bilan ham jazolangan.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan, so'ng «Agella» deb atalgan maktabda o'qishgan. O'qish muddati 7-18 yoshgacha davom yetgan. Shu maktabda hukumatning taniqli kishisi «pedanom» butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilgan.

Tarbiya jarayonida bu maktabda o'smirlarga alohida ye'tibor berishgan. Ularni jismonan sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirishgan. Masalan: sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidash, og'rikka bardosh berishga o'rgatib borishgan. Ta'lim jarayonining asosiy qismini xarbiy gimnastik mashqlar: yugurish, sakrash, nayza otish, qo'l bilan jang qilish, musiqa darsi, qisqa so'zlashuv, madaniyat darsi tashkil etar edi.

Qadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki ma'naviy tomondan xam barkamol bo'lishi nazarda tutilgan. Bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar xam o'rgatilgan. Bu mashg'ulotlarning mazmuni jangovar hamda harbiy tusda bo'lgan.

Spartada olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning yana muhim tomonlaridan biri yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan.

Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashtirilar yedi. Ular shubhali bo'lib ko'ringan qullarni o'ldirar yedilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar yedilar. Masalan: Vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolar ko'rsatgan mardligi va jasurligi,

qaxramonlar xaqida suxbatlar uyushtirishar, shuningdek bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda qilib javob berishga o'rgatib borilar yedi.

Spartada 18-20 yoshga yetgandan keyin maxsus «Efeblar» (Efeblar qadimgi Yunonistonda balog'atga yetgan o'spirinlar) guruhiga o'kazilgan. Bu guruhda bolalarga harbiy ta'lim berilgan va ular harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga xam alohida e'tibor qaratilgan. O'g'il bolalar bilan qizlar birga qo'shib o'qitilgan. Ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Bundan maqsad yerkaklar urushga ketgan vaqtlarida qizlar, ayollar shaharni, uy-joyini qo'riqlash, qurollanib qo'riqchilik vazifasini o'tashi, qullarni itoatda saqlashni ta'minlashi ko'zda tutilgan, ular hatto jangda ham qatnashganlar.

Qadimiy Gretsiyaning ikkinchi shaxarlaridan biri Afinada esa xayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan yemas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu erda tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, me'morchilik, xaykaltaroshlik taraqqiy yetgan edi.

Tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya birga qo'shib olib borilgan. Lekin bu tarbiyalarni mukammal egallash faqat feodallarning farzandlariga nasib etgan xolos.

Afinada tarbiya va maorif masalasi Spartaga nisbatan tubdan farq qilar edi. Bu yerda grammatist, polestra, gimnasiy, yefeb, demos kabi maktab turlari mavjud edi.

Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanganlar. 7 yoshdan o'g'il bolalar maktabga borishgan. Qizlar esa oilada ona ko'magida uy — ro'zg'or ishlariga o'rgatilgan, xotin-qizlar faqat uyda bo'lishgan. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha «grammatist», (savod o'qitish ma'nosida), «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo'lib, xaq to'lanar yedi, Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas yedilar.

Bu maktablarda «didaskal» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar yedilar (men o'qitaman degan ma'nodagi «didasko» so'zidan, keyinroq «didaktika» ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borishgan. Bunday qullar «pedagog» deb atalgan. Afinadagi grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilgan. O'qishda xarflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan xisoblangan. Kifarist - maktabida o'g'il bolalarga adabiy bilim berilar, estetik mazmundagi deklomatsiyalar o'rgatilar («Iliada va Odissey»dan parchalar o'qitilar) edi.

O'g'il bolalar 13 — 14 yoshga yetganlaridan keyin «Polestra» kurash maktabi deb atalgan o'quv yurtiga o'tar yedilar. Bu o'quv yurtida ular 23 yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza otish mashqlari va suvda suzish o'rgatilgan.

Spartadagi kabi Afina maktablarida ham o'quvchilar bilan siyosiy va axloqiy masalalarda suhbatlar o'tkazilgan, o'qish tekin bo'lgan. «Gimnasiy» maktabida polestra maktabini tugatgan badavlat oila farzadlari tahsil olganlar. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin bo'lgan.

«Efeb» maktabida 18-20 yoshga qadar tahsil olganlar. Bu maktabda harbiy hizmatga tayyorlanar va o'zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom yettirar yedilar. Bu maktabda istehkomlar qurishni, harbiy aslahalarni ishlata bilishni, garnizonlarda xizmat qilishni, dengizchilik o'rgatilgan. Bundan tashqari «Demos» (xalq) maktabi ham mavjud yedi. Afinada quldorlik jamiyati ichida tabaqalanishning tarbiya sohasiga o'tkazgan ta'siri shundan iborat bo'ladiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigagina xos bo'lib qoldi. Aholining ko'pchiligi bolalarini maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb — hunar o'rgatar yedilar. Ayrim xat savodli kishilar bolalariga o'zlari hat savod o'rgatganlar. Bu usul ham davlat tomonidan qonunlashtirib qo'yilar yedi.

Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» kabi asarlari, Urxun-Enasoy bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Yurtimizda pedagogik fikrlar. O'zbekiston juda qadimiy pedagogik fikrlar tarixiga ega. Bu jarayonning asosiy jihatlariga e'tiboringizni tortamiz.

Yurtimiz hududida eramizdan avvalgi va eramizning VII asr oxirigacha bo'lgan davrlarda *ta'lim tili* quyidagilar bo'lgan:

- oromiy;
- so'g'diy;
- xorazmiy;
- turk-runiy.

Bu yozuvlar asosida yosh avlodga savodxonlik asoslari o'rgatilgan.

Ushbu davrlardagi ta'lim – tarbiya to'g'risida muhim ma'lumot beruvchi manba *Avestodir* (e.a.VI asr). «Avesto» uzoq asrlar maboynida insonlarga ilm – ma'rifat o'rgatishda va ezgulik, buyodkorlik g'oyalarini singdirishda hamda axloq - odob fazilatlarini shakllantirishda dasturul amal bo'lib kelgan. Zardusht bu kitob ("Avesto" – "savodxonlik" ma'nosini bildiradi) vositasida ezgulik g'oyasini milliy g'oya shakli darajasiga ko'tardi va unda ezgulik – "Xudo irodasining mujassami" ma'nosida ishlatilgan. Unda ma'lumot berilishicha, yosh avlod Ezgulik va Yovuzlikni farqlash ruhida tarbiyalangan. Un ko'ra, yoshlar 5-15 yosh oralig'ida yaxshilikni yomonlikdan farqlash, jismoniy yetuklik va sog'lom e'tiqodlik ko'nikmalarini egallagan.

“Avesto”ga ko‘ra, ezgulik g‘oyasining tarkibini uch tushuncha hosil qiladi:

- 1) Ezgu niyat (andishai nek);
- 2) Ezgu so‘z (“guftori nek”);
- 3) Ezgu amal (“kirdori nek”).

Inson ezgu niyatli, So‘zli va Amalli bo‘lsa, jamiyat ham shunday bo‘ladi. Aksincha, inson yovuz niyatli (“andeshali bad”), yovuzona So‘zli (guftori bad) va makkor Amalli (“kirdori bad”) bo‘lsa, u yashayotgan jamiyat va tuzum ham shunga aylanib boradi.

Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Niyat - maqsad - muddao, orzu va intilishni; So‘z-muomala, munosabat va muloqotni; Amal -ish, harakat va faoliyatni anglatadi. Shu ma’noda insoniyatda zzzgulik g‘oyasi tantana qilishi uchun quyidagilar tarkib topgan bo‘lishi kerak:

- 1) yuksak maqsad – muddao (Niyat);
- 2) oqilona munosabat (So‘z);
- 3) ongli faoliyat (Amal).

E’tibor berilsa, ezgulik g‘oyasida inson va jamiyatning ongi, dunyoqarashi va hayotiga asosiy urg‘u beradi. Shu sababli ezgulik g‘oyasida aynan ana shu uch masalaga urg‘u berilgan va bunda o‘ziga xos usullardan foydalanilgan.

“Avesto”da ezgulik g‘oyasi vositasida ta’lim – tarbiyani amalga oshirish quyidagilarga asoslangan:

a) ommaga, ayniqsa, yoshlarga ezgulik g‘oyasining asosiy tushunchalari Ezgu niyat, Ezgu so‘z va Ezgu amalni bilish vositasida tushuntirish;

b) odamlar ongi va dunyoqarashida ezgu maqsad – muddaolar, qarashlar va mo‘ljallashni shakllantirish;

v) odamlarni ezgulik qilish va yaratishga safarbar etish.

Ezgulik g‘oyasi targ‘ibotining tarbiya usulida quyidagilarga e’tibor berilgan.

a) omma, ayniqsa, yoshlar axloqini ezgulik qonuniyatlari yaxshi niyat, so‘z va amalga ko‘niktirish vositasida shakllantirish va korrektsiyalab borish;

b) odamlarda yaxshilikni orzu qilish, shirin so‘zli bo‘lish va halol mehnat evaziga yashash ko‘nikmasini tarkib toptirish;

v) odamlarni kasbiy faoliyat, hayot va yashashga yomon niyat, qo‘pol muomala va xudbinona amalga (ishga) nafrat ruhida tarbiyalash.

Zero, mana shular sabab Ezgulik g‘oyasi asrlar davomida yashovchan bo‘lib kelgan.

Ta’lim-tarbiya usullari asosida Ezgulik g‘oyasi “Avesto”ga zand (tafsir, sharh) bitish uning g‘oyalarini badiiy adabiyot va san’at asarlarida talqin qilish an’anasini ta’sis etdi. Bu ishlar oilada, oqsoqollik (Kadxudolar) idoralarida va ibodatxona hamda ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan otashkadalarda amalga oshirilgan. “Avesto”ga ko‘ra odamning balog‘at yoshi erkaklar uchun 15 yosh va ayollar uchun 13 yosh qilib belgilangan. Ezgulik g‘oyasi asosida tarbiyalash maqbul tizim va usullarga asoslanishi bu vazifani bajarish imkonini bergan va bu masala qat’iy qo‘yilgan. Negaki VI asrda “Avesto”ga berilgan “Zand”da (Tafsirda) deyiladi: “Farzandga 15-17 yoshga qadar bilim va hunar o‘rgatib, voyaga yetkazish ota - onaning e’tiqodiy burchidir”. Bu ishning e’tiqodga bog‘lab talqin qilinishi ayni mudoadir. Chunki hech kim 1) farzandining bilimsiz va hunarsiz bo‘lib qolishi natijasida e’tiqodsiz nom olishini istamaydi. 2) farzandning 15 - 17 yoshida bilim va hunar vositasida balog‘atga yetishiga shubha bilan qaramagan. Bundan tashqari bunday qat’iyatlilik natijasida yoshlarning ushbu yoshda jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan balog‘atga yetib hayot kechirish va insoniyatda faoliyat ko‘rsatishga tayyorligi ta’minlangan.

Bu tajriba “Pedagogika tarixi” fani uchun favqulodda hodisadir. Ta’lim–tarbiya jarayoni Zardushtiylik ibodatxonalari qoshidagi maktablarda amalga oshirilgan. Shuningdek, Avestoda ta’kidlanishicha, yosh avlod quyidagi ruhda tarbiyalanshgan:

- oilaparvarlik;
- e’tiqodlik;
- tabiatni asrash;
- hayvonot va nabotot olamiga zarar yetkazmaslik.

Haqiqatdan ham, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi yaratilganiga 3000 yil bo‘lishiga qaramasdan, Zardushtiylik va undagi diniy – falsafiy aqidalar, pandu

nasihatlar ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, iffati, urf – odatlari va ularni o‘rganish, ayniqsa yoshlar ongiga ezgulik g‘oyasini singdirishda bugungi innovatsion rivojlanish jarayonida “Avesto”dan samarali foydalanish o‘z samarasini beradi.

Mazkur davr ta’lim va tarbiya jarayoni to‘g‘risida VI-VII asrlarda bitilgan Turk xoqonligiga oid *Bitikitoshlar* ham ma’lumotlarni beradi.

Undagi ma’lumotlarga ko‘ra, o‘quvchilarga “Bek atka”, ya’ni Bek ota–Ustoz biriktirilgan. Bu ustoz shogirdini quyidagicha voyaga yetkazgan:

- yozish va o‘qishga o‘rgatish;
- millatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- ulus (xalq) xizmatiga tayyorlash.

Pedagogika tarixida Turk hoqonligi davriga (V-VIII asrlar) oid muhim pedagogik manba - O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari alohida o‘rin tutadi. Unda ta’lim - tarbiya bilan bog‘liq o‘ziga xos yondashuvlar o‘z ifodasini topgan. Bu bitiklar Turk hoqonligi davlati rahbarlari va davlat xizmatchilari qabrtoshlariga bitilgan bo‘lib, ularning negizida milliy g‘oyalar va ular asosida yoshlarni millatparvar hamda axloqiy tarbiyalash masalasi yotadi. Bu masalada Kultegin, Yo‘llug‘ tegin bitiktoshlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Mazkur bitiktoshlarda masalasiga oid quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- kuchli va qudratli davlat barpo etish, bu ishda faol va fidoyi fuqaro bo‘lish;
- raiyatni (xalqni) birlashtirish va ularning umumiy farovonligini ta’minlash;
- yoshlarni davlatparvar, raiyatparvar va vatanparvar qilib tarbiyalash.

Turk hoqonligining siyosiy irodasini ifoda etuvchi bu fikrlar oddiy g‘oyalar emas, balki ularni maqsad-muddaoni ifodalovchi ko‘rsatmalar, deyish mumkin. “Men, - deb yoziladi Kultegin bitiktoshida, - raiyat va to‘ru. uchun tunda uxlamadim, kunduzi tinim bilmadim. Ochni to‘ydirdim, davlatlarni himoya qildim.” Mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga doir bu kabi mazmundagi g‘oyalarni barcha bitiktoshlarda uchratishimiz mumkin. Demak, ilk o‘rta asrlarda ham har bir fuqaro xalq va davlat uchun fidoyi bo‘lish targ‘ib qilingan. Bu esa mamlakatimiz rahbarining yoshlarni fidoyi va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash borasidagi

ilg'or qarashlari ta'lim - tarbiya borasidagi o'zining ilmiy - metodologik asoslarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman, Turk hoqonligiga oid bitiktoshlarda uch muhim g'oya qat'iy ifodalangan:

- 1) davlat xizmatida bo'lish;
- 2) raiyat uchun fidoyilik ko'rsatish;
- 3) yurtparvar (vatanparvar) sifatida faoliyat yuritish.

Mazkur siyosiy yondashuv bundan 16 asr avval bitilganiga e'tibor qilinishi maqsadga muvofiq. Aynan "davlat + raiyat + faoliyat tizimi" o'sha davrda davlatning rivoj topishi uchun negizi sifatida ifodalangan. Yoshlarni ana shu uch g'oya birligi asosida tarbiyalashga da'vat qilingan. Bitiktoshlarda ta'kidlanishicha, "davlat + raiyat + faoliyat tizimi" g'oyalariga amal qilmaslik davlatning zaiflashuviga, raiyatning parokanda bo'lishiga va kishining (shaxsning) samarasiz umr kechirishiga olib keladi. Shu ma'noda biz V-VIII asrlarda Turk hoqonligiga oid bitiktoshlardan ta'lim - tarbiyaga doir *uch muhim g'oyani* xulosa sifatida o'zlashtirishimiz mumkin:

- 1) davlatni sevish;
- 2) raiyat uchun foydali bo'lish;
- 3) bu ikkisi vositasida mazmunli yashash.

Diqqat qilinsa, bu g'oyalar va siyosiy da'vatlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Ushbu bitiktoshlarni birinchi bo'lib topgan va o'rgangan ingliz olimi Vilgelm Tomson shunday deb yozgan: "Yorqin va yorug' g'oyalarga boy bu bitiktoshlar nafaqat turkiy xalqlarni, balki butun insoniyatni vatanparvar sifatida tarbiyalashga qodir". Bu qadar katta ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy-pedagogik tajribalardan bugungi kunda unumli foydalanish dolzarb bo'lib turibdi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida boylar va amaldorlar tomonidan tashkil etilgan maktablarda amalga oshirilgan.

E'tibor berilsa, eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo'lgan davrda Yurtimizda pedagogik jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim tizimi qanday edi?
2. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha tarbiya jarayoni qanday davom etdi?
3. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Yurtimizda pedagogik fikrlarlar rivoji haqida ma'lumot to'plang.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Eng qadimgi davrda yakka tartibdagi oilalarning vujudga kelishi sabablari.

- A) Ijtimoiy ong faoliyatining takomillashuvi;
- B) Mikrolitlarning poydo bo'lishi;
- C) Tasviriy san'atning paydo bo'lishi;
- D) Xususiy mulk dastlabki kurtaklarining paydo bo'lishi.

2. Qadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos edi?

- A) Bolani jismoniy chiniqtirish;
- B) Bolani ma'naviy tomondan barkamol bo'lishi nazarda tutilgan;
- C) Bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar o'rgatilgan;
- D) Bolani jismoniy chiniqtirish, ma'naviy tomondan barkamol bo'lishi, musiqa, ashula va diniy raqslar xam o'rgatilgan.

3. «Mexnat axloqiylikning asosi, saxovatlik belgisi» - deb, qaysi ta'limotda ko'rsatilgan?

- A) Zardushtiylik;
- B) Mazdakiylik;
- C) Naqshbandiya;
- D) Kubroviya;

4. Avesto so'zining ma'nosi?

- A) Belgilangan, joriy etilgan nizom, tartib-qoida;
- B) Nasihat, o'git;
- C) maqsadga erishish yo'li;
- D) Ezgulik.

3 – Mavzu: VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha Oʻrta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Reja:

1. VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha Oʻrta Osiyoda tarbiya jarayoni
2. VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha Oʻrta Osiyoda maktab tizimi
3. VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha Oʻrta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Tayanch tushunchalar: Oʻrta Osiyo, tarbiya jarayoni, maktab tizim, pedagogik fikr, taraqqiyot, milliy davlatchilik, islom dini, davr, bilim, koʻnikma.

Adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: “Ishonch hamkor”, 2021.
- 2.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «Oʻqituvchi», 1996.
- 6.Islom “ Ensiklopedicheskiy slovar.-M “Nauka”. 1991.
4. Najmiddin Nasafiy. Samarqandiya.-T.: OʻzME. 2001.
5. Pedagogik atamalar roʻyxati. Masul muharrir R. Joʻrayev.- T.: “ Fan”. 2008.
6. Oʻzbek pedagogikasi antalogiyasi. T.: “ Oʻqituvchi”. 2010.
7. Najmiddin Nasafiy. Samarqandiya.-T.: OʻzME. 2001.

Ilm sahroda doʻst, hayot yoʻllarida rahbar, qaygʻuli damlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi quroldi.

(Hadisdan)

Tarbiya jarayoni. Oʻrta Osiyo hududi VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha boʻlgan davrda tarbiya jarayoni masalasida muhim oʻrin tutadi. Bu oʻrinda ana shu masalaning asosiy jihatlariga eʼtiboringizni tortamiz.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda asoslari bir necha omillar asosida yangilandi va rivojlandi. Bu omillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- milliy davlatchilikning rivoji;
- islom dinining e'tiqod sifatida qabul qilinishi;
- alsafiy, tabiiy-ilmiy va aniq fanlarning taraqqiy etganligi.

VII asr oxirlarida O'rta Osiyoga kirib kelgan *islom dini* tarbiya asoslarini quyidagicha belgiladi:

- 1) yolg'iz Allohga e'tiqod qilish;
- 2) o'g'il va qizlarning teng savodxon bo'lishi;
- 3) xalq xizmatiga tayyorlanish.

Tarbiyaning bu Yangi asoslari Qur'oni karim va Hadisi shariflarga asosan amalga oshirildi.

Ta'lim tili turkiy, arab va fors tillar edi. Natijada fanlarning ikki turi tarkib topdi:

- 1) diniy fanlar (Qur'on, Hadis va Fiqh ilmlari);
- 2) dunyoviy fanlar (Tilshunoslik, Falsafa, Tibbiyot, Minerologiya, Geodeziya, Geografiya, Astronomiya va Matematika ilmlari).

Buning natijasida bu davrda shaxs bilimli, e'tiqodli va axloqli inson sifatida voyaga yetkazildi.

Milliy davlatchilik rivoji (Tohiriylar, Samoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatlari) tarbiya asoslariga ehtiyojlarni qo'shdi. Bu ehtiyojlar quyidagilardan iborat:

- 1) diniy va dunyoviy jihatdan uyg'un tarbiya olish;
- 2) sodiq fuqaro sifatida voyaga yetish;
- 3) davlat xizmatiga tayyorlanish.

Bu ehtiyojlar o'ziga xos tarbiya asoslaridir.

Fanlarning taraqqiy etish omili tarbiya jarayonini kuchaytirdi. Unda quyidagilar tarkib topdi:

- 1) Tarbiyani bilim asosida tashkil qilish;

- 2) Tarbiya tajribalarini yosh avlodga uzatish;
- 3) Tarbiyalanganlikni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Bular VII asrdan XIV asr birinchi yarmigacha bo'lgan davrda tarbiya jarayoni uchun muhim xususiyatlardir.

O'rta Osiyoda o'ziga xos *maktab tizimi* amalda bo'ldi. Mazkur davrda maktabning quyidagi turlariga duch kelamiz.

- masjidlar qoshidagi maktablar;
- qizlar uchun otinoyi maktablari;
- davlatlar saroylaridagi maxsus maktablar;
- Ustozlar boshchiligidagi xususiy maktablar.

Bu o'ziga xos tizim bo'lib, "Pedagogika tarixi" fanida muhim o'rin tutadi.

Maktablarda diniy va dunyoviy fanlar teng o'qitilgan. Yetuklik yoshi 15 yosh belgilangan. Ota – ona Ustoz tarbiyasiga binoan farzandining iqtidoriga qarab keyinchalik ilm – fanning muayyan yo'nalishiga yo'naltirilgan.

E'tibor berilsa, bu davrda maktab tizimi dunyoviy xarakterda bo'lib, u davlat, jamiyat va xalq xizmatiga yo'naltirilgan. Maktab tizimi xalq ajratmalari, amaldorlar homiyligi va vaqf mulki asosida moliyalashtirilgan.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyotida hadislar muhim o'rin egallaydi. Hadislar-Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning aytgan so'zlari, tavsiyalari va amal qilgan odatlari majmuidir. Hadislarning uch turi mavjud:

- 1) Qudsiy hadislar - Alloh taolo nomidan aytilgan hadislar;
- 2) Sahih hadislar - islom olimlari eng to'g'ri deb topgan hadislar;
- 3) Hasan hadislar - go'zal fikrga ega hadislar.

Bizni sahih hadislarining pedagogik tahlili qiziqtiradi. Butun islom olamida uch vatandoshimiz – Imom Samarqandiy (798-869), Imom Buxoriy (810-870) va Imom Termiziyning (813-892) hadisga oid kitoblari sahih deya e'tirof etilgan. Hatto VIII-X asrlarda Samarqandda hadischilik maktabi faoliyat yuritganini eslatib o'tish joiz.

Sahih hadislarining yosh avlod tarbiyasida ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Shu sababli ularni pedagogik tahlilga ehtiyoji bor. Pedagog olimlarning fikricha, "tahlil- muayyan ob'ekt yoki voqea-hodisani har tomonlama tekshirish va o'rganishdir". Shu jihatdan hadislarining pedagogik tahlili deganda biz ularning ma'no-mazmunini o'rganish va talimiy-tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirishni nazarda tutamiz. Bunda izohlash, tushuntirish va da'vat qilish metodlariga asoslaniladi. Mazkur o'rinda sahih hadislar namunalarining pedagogik tahlilga e'tiboringizni tortamiz.

"O'zbek pedagogikasi antalogiyasi" kitobining 2-jildida 70 yillardan so'ng (1924 yildan keyin) ilk bor hadislardan namunalar va Payg'ambarimiz haqida ma'lumot berildi. Ulardan birida marhamat qilinadi: "Tangridan qo'rqinglar va farzandlaringizga bir xil munosabatda bo'linglar". Islom ma'rifatida "Tangridan qo'rqish tushunchasi iymon, e'tiqod va axloq egasi bo'lishni anglatadi. Shu ma'noda bunday sifatlarga ega inson farzandlariga (o'g'il va qizlariga) bir xil munosabatda bo'la oladi. Gap shundaki, VII asrlarda arablarda o'g'il farzandlar ulug'lanib, qiz bolalar kamsitilgani ma'lum. Payg'ambar alayhissalom bu hadis bilan bir necha ishlarga buyurganliklari ma'lum bo'ladi:

- 1) Axloqli bo'lish;
- 2) O'g'il va qiz bolalarga bir xil munosabatda bo'lish;
- 3) Bu bilan insonparvarlik fazilatini egallash.

Farzandlarga bir xil munosabatda bo'lish quyidagilarni qamrab oladi:

- Bilimli qilish;
- Axloqli qilib voyaga yetkazish;
- Yetarli kiyim-kechak bilan ta'minlash;
- Kasb-hunarli qilish;
- Imkon qadar uy-joyli qilish.

E'tibor berilsa mazkur birgina hadisda qanchalik chuqur ta'limiy va tarbiyaviy besh yo'l-yo'riqlar berilgan. Farzandga ega ota-onaning vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Shu sababli bunday hadislar yoshlarni "Oilaga

tayyorlash”, “Hayot xavfsizligi” kabi kurslar bo’yicha bilim va ko’nikmalarni oshirishda muhim o’rin tutadi.

Ikkinchi bir hadisda deyiladi: “Tangri naznida eng yaxshi gap-rost gapdir”. Texnik va texnologik rivojlanishning hozirgi bosqichida turli ijtimoiy va ahloqiy illatlar yuzaga kelayotganligi sir emas. Ulardan biri yolg’on so’zlashdir. Bilib – bilmay yolg’on so’zlash ahloqni buzadi va asta-sekin bu illat shaxs ma’naviyatida o’rnashib qoladi. Shu sababli Payg’ambarimiz hamisha rost va chin so’zlashga da’vat qilganlar. Rost so’zlash nihoyatda murakkab ish, chunki unda achchiq haqiqat o’z ifodasini topadi. Iymon rost gapning negizida haqiqatning bo’lishi uni ko’nikmaga aylantirishni taqozo etadi. Yoshlarni rost so’zlashga o’rgatish metodologiyasi quyidagicha ekanligini eslatib o’tish joiz:

- Bolani tili chiqqan boshlagan davrdan rost so’zlashga o’rgatish;
- Bolaga hamisha rost so’zlash;
- Bolani rostgo’ylikka ko’niktirish;
- Bolaning rostgo’yligini qabul qilish;
- Rostgo’ylikni rag’batlantirish.

Bunday yo’l tutish yosh avlodning rost so’zlovchi bo’lib voyaga yetishiga olib kelishi shubhasizdir. Shu sababli hadisda “Rost gap-eng yaxshi gap” deya marhamat qilingan. Navbatdagi hadisda o’qiymiz: “O’zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko’r!”. Inson o’ziga faqat yaxshilikni va yaxshi narsalarni ravo ko’rishi ma’lum. Uning yoqtiradiganlaridan quyidagi bir qismini ta’kidlab o’tish mumkin.

- Bilishga intilish;
- Baxtli bo’lish;
- Yaxshi kiyinish va yeb-ichish;
- Orzusiga yetishish;
- O’zgalar hurmatiga sazovor bo’lish.

Bularni o’zgalarga ham ravo ko’rmaslik xudbinlikka olib keladi. Xudbin – jamoadan uzilgan odamdur. Shu sababli hadisda “O’zingga yoqqan narsalarni boshqalarga ravo ko’rish” marhamat qilinadi. Diqqat qilinsa hadis mazmunida ahloqni bilish va illatlardan hazar qilish hikmati ifodalangan.

Yana bir hadisda marhamat qilinadiki: “Qachonki hayolingizdan biron shubhali fikr o’tsa, uni tark eting”. “Shubha - mazmun - mohiyati noma’lum bo’lgan g’oya, fikr va o’ydir. Shubhali fikrning ko’lami keng bo’lib, uning ayrimlari quyidagilardir:

- “Tangri bormi o‘zi” deb o‘ylash;
- “Do‘stim meni rostdan ham yaxshi ko‘radimi” deyish;
- “Yoqtiradimi o‘zi” deya gumon qilish;
- “Ustoz aldamayaptimi” deb ikkilanish;
- “Men baxtlimanmi” deya gumonsirash.

Hayotda bunday shubhali fikrlarning kishini gumonga boshlaydi. Xalqimiz “Gumon iymondan ayiradi” deydi. Oxir - oqibatda gumonsirash illati insonni chulg‘ab oladi va bunday odam asta-sekin o‘zidan ham shubhalana boshlaydi. E’tibor berilsa, shubhali fikr inson hayotini izdan chiqaradi, o‘zgalar ham shubhali shaxsdan uzoqlashadi. Shu sababli hadisda shubhadan holi bo‘lishning eng oson yo‘li sifatida “Darhol uni tark etish” marhamat qilingan.

Zero, keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, hadislar g‘oyatda ta’limiy va tarbiyaviy asoslarga ega pedagogik manbalardir. Shu sababli, ularning pedagogik tahlil qilish, ulardan ta’lim va tarbiya ishlarida oqilona foydalanish muhim ekanligi o‘z aksini topgan.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1.VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya jarayoni qanday kechdi?

2.VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda maktab tizimi nimalarga asoslangan?

3.VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda fikrlar taraqqiyotida hadislar o‘rni qanday?

Mavzu bo‘yicha test savollari

1.Markaziy Osiyoda musulmon maktablari tizimi qaysi tarixiy davrda tashkil topgan?

A) VII asr;

- B) VIII-XII asr;
- C) XV-XVII asr;
- D) XIV-XVII asr.

2.Dastlabki arab tilidagi maktablarning yaratilishiga nimalar ta'sir etdi.

- A) Islom g'oyalarining tarqalishi;
- B) Qur'oni Karimning tarqalishi;
- C) Bolalarni tarbiyalash zarurligi;
- D) Bolalarni mehnatga tayyorlash zarurligi.

3.Hadis ilmining yaratilishida oltin davr qaysi asrga to'g'ri keladi.

- A) VII asr;
- B) VIII-IX asrlar;
- C) XV asr;
- D) XVI asr.

4.Hadis ilmida «Sahih» yo'nalishining asoschisi kim?

- A) Imom al-Buxoriy;
- B) Abu Iso at-Termiziy;
- C) Imom Ahmad an- Nasoiy;
- D) Imom Abu Dovut Sulaymon Sijistoni.

**4 - Mavzu: Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.
Sharq uyg'onish davrida ta'limiy – axloqiy fikrlar rivoji.**

Reja:

- 1."Sharq uyg'onish davri" tushunchasi
2. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi

3.Sharq uygʻonish davrida taʼlimiy – axloqiy fikrlar rivoji

Tayanch tushunchalar: Sharq uygʻonish davri, renessans, pedagogik fikrlarning rivojlanishi, taʼlimiy fikrlar, axloqiy fikrlar, maktab, bilim, oʻqish, koʻnikma, malaka.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirziyoyev SH.M.Oʻituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soʻzlagan Nutqi.// “Maʼrifat” gazetasi.2020 yil 1 oktabr soni.

2.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: “Ishonch hamkor”, 2021.

3. Xolmurodov va boshq.Birinchi renessans allomalari.-T.:”Yangi asr avlodi”, 2023

4.Maʼnaviyat: asosiy tushunchalar izohli lugʻat.-T.,2009.141-bet.

5.Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «Oʻqituvchi», 1995, 140 bet.

6.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «Oʻqituvchi», 1996, 146 bet

7. Konrad V.Zapad I Vostok.-M.:”Nauka” 1972


8. Buyuk siymolar, allomalar. M.M.Xayrullaev.-T.:”Meros”, 1995-V.301

Donishmand xalqimiz Renessanslar davri jahonning eng ilgʻor, taraqqiy etgan xalqlar qatorida boʻlgan”

Sh.M.Mirziyoyev

”Sharq uygʻonish davri” tushunchasi. “Uygʻonish” - ilm, fan, madaniyat va maʼrifatning rivojlanish davri tushuniladi, bu atama “Renessans” atamasining tarjimasidir. Bunda “Renassans” lotincha soʻz boʻlib, “uygʻonish”, “qayta oyoqqa turish”, “milliy va xalqaro miqyosda rivojlanish” maʼnolarini anglatadi.

Shu jihatdan Renessans tushunchasini quyidagicha idrok etish kerak:



Bunday yondoshuv asosida keyingi ikki ming yillik O'zbekiston tarixida *Birinchi Renessans* IX-XII asrlarda kechganligi e'tirof etiladi.

Sharq uyg'onish davri ikki bosqichda kechgan:

- 1) Birinchi Uyg'onish IX – XII asrlarda;
- 2) Ikkinchi Uyg'onish davri VIV – XVI asrlarda.

Uyg'onish davri uchun quyidagi omillar bo'lishi kerak:

- kuchli davlatchilik;
- yuksak darajadagi ta'lim tizimi;
- kashfiyotchilik.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, algebra fani va algoritm tushunchasiga asos solgan Al-Xorazmiy, mineralogiya fanining tamal toshini qo'ygan Al-Beruniy, dunyoda Avitsenna nomi bilan tanilgan mashhur tibbiyot olimi Ibn Sino, 1018 ta yulduzning koordinatlarini va harakatini aniq belgilab bergan buyuk astronom Mirzo Ulug'bek, Nil daryosining sathini o'lchovchi noyob uskuna yaratgan alloma Ahmad Farg'oniy kabi ulug' ajdodlarimiz ma'naviy meroslaridan ham unumli foydalanishimiz kerak. Shu ma'noda birinchi Uyg'onish davrini Samoniylar davlati (poytaxti Buxoro shahri) ta'sis etgan. Demak birinchi *Renessans* IX-XII asrlarda kechganligi e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deydi:

***“Antik davrda Yunonistonda yongan ilm
mash’alasi to‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda
Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda
yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi
va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni
yetishtirib berdi”.***

Bu o‘rinda ikki masalaga e’tibor berish lozim: 1) “Antik davr Yunonistoni” deganda Suqrot, Aflotun, Arastu kabilar boshliq global meros nazarda tutiladi; 2) “Markaziy Osiyo hududi” deganda esa qadimgi Vatandoshlarimiz Movarounnahr va Xuroson hududlari e’tiborga olinmoqda. Bu tushunchalar bo‘lajak pedagoglar tomonidan aniq idrok etib olinishi lozim.

Shu o‘rinda Davlatimiz rahbari ta’lim asosida yuzaga kelgan Birinchi Renessans *ilm -fanning* ikki qatlamiga e’tiborni tortdi:

1) *Dunyoviy fanlar*: Abu Nasr Farobiy “Muhammad Xorazmiy (IX asr) Ahmad Farg‘oniy (IX asr), Abu Rayhon Beruniy (XI asr), Abu Ali ibn Sino (XI asr) singari buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy – ijodiy kashfiyotlari mumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi”.

2) *Diniy fanlar*: “Islom madaniyatining oltin davri” deb e’tirof etiladigan bu davrda Ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy (IX asr), Imom Termiziy (XI asr), Imom Motrudiy (X asr), Burhoniddin Marg‘iloniy (XII asr), Abul Mu’in Nasafiy (XII asr), Mahmud Zamaxshariy (XII asr) kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi.

Ta’lim – tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi. Shu jumladan Islom olamining muqaddas kitobi «Qur’oni Karim»da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi.

1. Mehnatim muhabbatim.

2. Ma'rifatim sarmoyam.
3. Dinim aqlim.
4. Ilmim qurolim.
5. Sabru qanoat libosim.

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Shu bois faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar bu davr madaniy-ma'rifiy merosi haqida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyotida mutafakkirlarning qarashlari muhim o'rin tutadi.

O'rta Osiyoda birinchi Renessans IX – XII asrlarda kechdi. Bu jarayon o'z nomi bilan “Uyg'onish davri” bo'lib, unda quyidagi umumiy xususiyatlar xos:


- aniq va tabiiy fanlar rivoji;
- aniq va tabiiy fanlar bo'yicha kashfiyotlar qilish;
- aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini shakllantirish.

Birinchi Renessans davrida O'rta Osiyoda bir talay mutafakkir olimlar yetishib chiqqan. Ular bir vaqtning o'zida pedagog, faylasuf, matematik, geograf, ximik va astronom edilar. Shu sababli ular bir atama – mutafakkirlar tushunchasi bilan ataladi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo birinchi Renessans davrida tabiiy fanlar pedagogikasi bo'yicha yorqin Ustozlar silsilasi o'tgan. Biz bu o'rinda ularning yorqin siymolari misolida fikr yuritdik. Aslida bu davrda ma'lumotlarga ko'ra, 2000 dan ortiq daho mutafakkirlar o'tgan.

Shu nuqtai nazardan quyidagilarni eslab qoling (1-chizma):

Birinchi Renessans asoslari (IX-XII asrlar)



Zero, Birinchi Renessans *uch omil* muhim o‘rin tutadi:

a) milliy davlatning mavjudligi;

b) ilm-fan rivoji;

v) ta’lim taraqqiyoti.

Ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri Temuriylar davlati (Poytaxti Samarqand shahri) ta’ sis etgan. Prezidentimiz *Ikkinchi Uyg‘onish davri* to‘g‘risida deydi:

***“O‘n to‘rtinchi asrda Sohibqiron Amir Temur
bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari
davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda
ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini
boshlab berdi”***

Bu davrda ikki masala idrok etilishi kerak:


1) *Milliy davlatchilik*. Amir Temur va temuriylar davlati (Movaraunnahr va Xuroson hududida). Mashhur davlat boshliqlari: Amir Temur, uning o‘g‘li Shohruh Mirzo, uning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek va chevarasi Sulton Husayn Bayqaro. Davlatchilikning asosiy asari ”Temur Tuzuklar”.

2) *Ilm-fan rivoji*. Prezident tilga olgan mutafakkirlar: Qozizoda Rumiyy (XV asr), Mirzo Ulug‘bek (XV asr), G‘iyosiddin Koshiy (XV asr), Ali Qushchi (XV asr), Sharofiddin Ali Yazdiy (XV asr) Mirxond (XV asr) va Xondamir (XV asr).

3) *Adabiyot va san’at taraqqiyoti*. Prezident tilga olgan mutafakkirlar: Lutfiy (XV asr), Sakkokiy (XV asr), Hofiz Xorazmiy (XV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Alisher Navoiy (XV asr), Bobur Mirzo (XVI asr), Mahmud Muzahhib (XV asr), Kamoliddin Behzod (XVI asr). E’tibor berishlozim bo‘lgan mutafakkirlar: Nosiruddin Ra’buziy (IV asr), Qutb Xorazmiy (IV asr), Mavlono Atoiy (XV asr). Misol uchun, o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi

asoschisi, temuriy shahzoda – Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo 18-19 yoshlarida ruboiy va gʻazallar yoza boshlagan.

Mazkur Ikkinchi Renessans asoslariga eʼtibor bering (2-chizma):



Zero, Ikkinchi Renessansda *uch omil* muhim oʻrin tutadi:

- a) milliy davlatning homiyligi;
- b) dunyoviy ilm – fan va san’atning rivoji;
- v) ijod va kashfiyotning taraqqiy etishi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

- 1.”Sharq uygʻonish davri” tushunchasiga izoh bering?
- 2. Sharq uygʻonish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi qanday boʻlgan?
- 3.Sharq uygʻonish davrida qanday omillar muhim oʻrin tutgan?

Mavzu boʻyicha test savollari

1.SHarq «uygʻonish davri» ga oid ilm-fan rivojlanishdagi uch yoʻnalish bu

- A) Matematika-tabiiyot, ijtimoiy iqtisodiy, taʼlimiy-ahloqiy;
- B) Taʼlimiy-falsafiy, taʼlimiy-ahloqiy, matematika-tabiiyot;
- C) Matematika-tabiiyot, ijtimoiy-falsafiy, taʼlimiy-ahloqiy;
- D) Taʼlimiy-ahloqiy, ijtimoiy-gumanitar, taʼlimiy-ahloqiy.

2.Movarounahrdagi dastlabki diniy maktablar tizimi. . .

- A) Qorixona, otinoyi maktablari;
- B) Madrasa, machitlar qoshidagi maktab, qorixona, kissaxonalar;
- C) Boshlangʻich diniy maktab, otinoyilar maktabi, qorixona, dalilxona, madrasa;
- D) Dalilxona, qorixona, boshlangʻich maktab.

3.IX—XV asrlar davomida pedagogika faniga hissa qoʻshgan olimlar qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A) Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, A.Navoiy;
- B) Jomiy, Muqimiy;
- C) Amir Temur, Mashrab;
- D) Ibn Sino, Gulxaniy.

4.Movarounnahrda davlat arboblari kim XV asrda maktablar isloxatini oʻtkazdi

- A) A.Temur;

- B) Ulug'bek;
- C) Bobur;
- D) Navoiy.

5 - Mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ta'lim tizimi
2. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ilm – fan rivoji
3. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda shaxs kamoloti

Tayanch tushunchalar: pedagogika tarixi, ta'lim tizimi, ilm –fan, shaxs kamoloti, davlat, o'rta maktab, ta'lim, tarbiya, madrasa, diniy ta'lim, alloma, rasadxona, maktab, bilim, o'qish.


Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mardonov., U. Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: "Ishonch hamkor", 2021
2. Xolmurodov va boshq. Birinchi renessans allomalari.-T.: "Yangi asr avlodi", 2023
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995, 140 bet
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
5. Valixojayev B. Madrasalar tarixi.-Samarqand, 1993. 16-bet
6. Buyuk siymolar, allomalar. M.M. Xayrullaev.-T.: "Meros", 1995-V.301
7. Bobur Z.M. Boburnoma.-T.: "Yulduzcha", 1990
8. Klavixov R.G. Samarqandga Amur Temur saroyiga sayohat.-T., 2006

Kitob - barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir.

Amir Temur o'g'itlari

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ta'lim tizimi.“Movaraunnahr” ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) demakdir. XIV asrning ikkinchi yarmida yurtimiz Movaraunnahrda Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) markazlashgan kuchli davlat barpo etdi. Buning natijasida ta'lim tizimi yuksak darajada rivojlandi. Mazkur davrda ta'lim tizimi quyidagicha bo'lgan (1-chizma):



Ta'lim tizimi vaqf ulki va homiylar asosida moliyalashtirilgan.Ularda diniy, dunyoviy va aniq fanlar teng o'qitilgan.


Madrasalar hozirgi “Universitet” maqomida bo'lgan. Ularda quyidagi mutaxassislar tayyorlangan:

- ilohiyotchilar;
- mudarrsislar (o'qituvchilar)
- tabiblar;
- astronomlar;
- me'morlar.

Madrasalarga ta'lim oluvchi suhbat asosida va maktab ta'limidan keyin qabul qilingan. Shunisi borki, shaxs madrasa dasturini o'zlashtirilguncha bitiruvchi hisoblanmagan.

Bu davrda davlat a'yonlari va badavlat kishilarning maktab, madrasa hamda rasadxona qurishi odat tusiga aylangan. Ma'zkur hol pedagogik jarayon uchun muhimdir.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ilm bilan shug'ullanish va ta'lim berish maxsus kasbga aylandi. Sharq olamining eng yirik mutafakkirlari Yurtimizga kelishdi. Shu jihatdan mazkur davrda rivojlangan fanlar rivojiga e'tibor qaratamiz (2-chizma):



Bu fanlar bo'yicha mutafakkir olimlar yetishib chiqdi. Misol uchun Mirzo Ulug'bek (1314-1447) sulton va olim, Husayn Boyqaro (1336-1405) shoh va shoir, Zahridin Muhammad Bobur (1483-1530) shoh va ensiklopedist olim edi. Birgina Boburning "Boburnoma" asarida ta'kidlangan fanlar bo'yicha to'liq ma'lumotlar mavjud.

Amir Temur saroyiga kelagan Ispaniya elchisi rui Ganzelos Klavixo (XIV asr) "zamonning eng yetuklari Movaraunnahrda" deb yozgan edi. Bularning barchasi ta'lim – tarbiya hosilasi edi.

Amir Temurning (1336-1405) "Tuzuklar" asari o'z davrida Temuriylar davlatining qomusi (konstitutsiyasi) hisoblangan[1]. Bu masala butun jahon davlatchiligi tomonidan e'tirof etilgan. Amir Temurning haqqoniylik didaktikasi bugungi innovatsion jamiyatimizda ham muhim o'rin tutadi. Bu didaktikaning xususiyatini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) masjidlar qoshidagi maktablar hamda madrasa tizimida diniy va dunyoviy fanlarni teng o'qitish;
- 2) buyuk mutafakkirlarning merosini chuqur o'rganish va fan kashfiyotlarini rag'batlantirish;
- 3) ilm-fan, ta'lim va tarbiya vakillariga homiylik ko'rsatish.

Amir Temur "Tuzuklar" asarida o'z tajribalarini bayon qilgan. Jumladan, u amal qilgan quyidagi 12 sifat davlatni idora qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga egadir:

- | | |
|-----------------------|---------------------------|
| 1) beg'arazlik; | 7) vafodorlik; |
| 2) diniy ma'rifatlik; | 8) hushyorlik; |
| 3) yaxshilik; | 9) itoatkorlik; |
| 4) rahmdillik; | 10) insofililik; |
| 5) dunyoviylik; | 11) ulamolarga hurmatlik; |
| 6) haqiqatgo'ylik; | 12) adolatparvarlik. |

Amir Temurning fikricha, kishini bunday fazilatlar bilan tarbiyalash uchun saltanat odamlari, ya'ni tajribali davlat xizmatchilari shug'ullanishlari kerak. Uning davlat boshqaruvi borasidagi ushbu tavsiyalarni amalga oshirish bugungi

kunda pedagog-o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu jihatdan mazkur manba yangi O'zbekiston konstitutsiyasining ildizi sifatida qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada quyidagi asoslarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

birinchidan, "Temur tuzuklari"da davlat qurilishi, tizimi, mexanizmlari va boshqaruv asoslari qoidalari belgilangan. Shu jihatdan yangi O'zbekiston konstitutsiyasida mazkur masalalar alohida e'tibor qaratilgan. Unda "Temur tuzuklari"da belgilanganidek erkinlik, ijtimoiy adolat, birdamlik, tenglik va davlat mustaqilligi masalalari bo'yicha qoidalar, huquqlar hamda talablar belgilangan. Bu loyihada davlat tizimida *ijtimoiy adolat* masalasi alohida ta'kidlangan. "Temur tuzuklari"da ijtimoiy adolat masalasi "Kuch-adolatdadir" tamoyili bilan belgilanganligi ma'lum.

ikkinchidan, "Temur tuzuklari"da o'zbek davlatchiligining asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan davlat qurilishi, ya'ni davlat boshqaruvining vazirlik, hokimlik hamda jamoatchilik tuzulmalari vazifalari, huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan. Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida "davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga" asosan konstitutsiyaviy huquqlar, normalar, majburiyatlar va ma'suliyatlar belgilanganligi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu masalalar "Temur tuzuklari"da siyosiy va tarixiy jihatdan ifodalanganligini ta'kidlash lozim. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, o'zbekcha "tuzuklar" atamasi lotincha "konstitutsiya" atamasi ma'nosini anglatadi.

uchinchidan, "Temur tuzuklari"da davlat boshqaruv xodimlari va jamiyat institutlariga qat'iy intizomga rioya qilish, har bir mansabdor shaxsning insof, diyonat va iymon taraflariga amal etishi belgilangan. Shu jihatdan yangi O'zbekiston konstitutsiyasida xalq hokimiyatchiligi, davlat boshqaruv kadrlarining qonun talablariga rioya etishi, inson va fuqarolarning huquqlari daxlsiz ekanligi ifoda etilgan. Shu jihatdan "Tuzuklar"da belgilangan talablar yangi O'zbekiston konstitutsiyasining normalar mazmunida o'z aksini topgan.

to'rtinchidan, "Temur tuzuklari"da jamiyat a'zolarini savodxon qilish, har bir kishini kasb va hunar bilan ta'minlash, hatto, darveshlarga tegishli mulklar

ajratish belgilab qo'yilgan. Mazkur masalalar zaomnaviy talablar va qoidalar asosida yangi O'zbekiston konstitutsiyasida belgilangan bo'lib, unda insonning munosib turmush darajasini ta'minlash kasb, hunar va amaliy harakatlarga asoslanishi bo'yicha davlat muntazam tadbirlarni amaghlga oshirib borishi mo'ljallangan.

beshinchidan, "Temur tuzuklari" va yangi O'zbekiston konstitutsiyasining qiyosiy-tipologik, ijtimoiy – pedagogik va ilmiy-amaliy jihatlardan tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu ishga iqtidorli talabalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

E'tibor berilsa, Amur Temurning "Tuzuklar" asari yangi O'zbekiston konstitutsiyasining muhim tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va pedagogik ildizlaridan biridir. Mazkur masala bo'yicha ilmiy, nazariy, fundamental, metodik va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Mirzo Ulug'bek o'zining cheksiz aql-idroki, azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan qariyb qirq yil mobaynida Movarounnaxr diyorining donishmand xukmdori bo'lib, halqlarning azaliy orzusi-tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida mislsiz shijoat va matonat ko'rsatdi.

Darhaqiqat, buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va o'z davri ta'lim tizimining bosh islohotchisi, ma'rifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi va homiysi Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatida ham dunyoviy, diniy ilmlar rivojiga bab-baravar ahamiyat berilganligini bilamiz. Xususan, Ulug'bek madrasalarida diniy ilmlari «Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidalari)» bilan birga matematika (algebra, geometriya, trigonometriya), jug'rofiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o'qitilishiga katta e'tibor berilgan.

XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida Yevropada astronomiya fanining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi yevropaliklarning Samarqand akademiyasiga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Shogirdi Ali Qushchining Ulug'bek asarlarini Turkiyada targ'ib etganligi natijasida yevropaliklar uning fan taraqqiyotiga qo'shgan kashfiyotlaridan bahramand bo'ldilar.

Ulugʻbek, avvalo ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijodi «Ziji jadidi Koʻragoniy» deb nomlangan. Hozirgi kunda «Ziji jadidi Koʻragoniy» asarining 150 dan ortiq nusxasi maʼlum. Boshqa maʼlumotlarga koʻra, asarning 120 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi ham mavjud. Mirzo Ulugʻbekni davlat ishlari bilan mashgʻul boʻlishdan koʻra koʻproq ilmu fan bilan shugʻullanish qiziqtirgan. Uning «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risolai Ulugʻbek», «Toʻrt ulus tarixi», «Ziji jadidi Koʻragoniy», «Koʻragoniyning yangi jadvallari» kabi asarlari dunyo olimlari tomonidan hali hanuz oʻrganiladi.

Bu davrda shaxs kamoloti asoslari sifatida quyidagilar belgilangan:

- 1) bilimdonlik;
- 2) axloqlilik;
- 3) faollik.

Bu davrda taʼlim – tarbiya maʼsullari oʻzi ustozlik qilgan shaxsning kamoloti nuqsonli boʻlishini istamas edi. Ota –onalar ham farzandining nuqsonli boʻlishini ayb sifatida qabul qilishar edi.

“Boburnoma”da Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston xalqlariga xos boʻlgan fazilat va nuqsonlar, ular tafakkur olamining kengligi va murakkabligi bilan birga, oʻsha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning toʻliq manzarasi namoyon boʻladi.

Bobur “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Ulugʻbek Mirzo va boshqa allomalar haqida oʻzining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi.

“Boburnoma” – Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini oʻzida aks ettirgan boʻlsa ham, shu bilan birga juda koʻp dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning oʻzaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jugʻrofiy mavqeyi, iqlimi, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, togʻlari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlarini, muhim tarixiy inshootlari hindular va musulmonlarning

ibodatxonalari, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘ziga qamrab olgan shoh asardir. Shu bois “Boburnoma” tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ta’lim tizimi qanday edi?
2. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ilm – fan rivoji qaysi mutafakkirlarning hissasi buyuk bo‘ldi?
3. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda ilm – fan rivojida qanday fanlar rivojlandi?

Mavzu bo‘yicha test savollari

1.Amir Temur tuzuklarida jamoani boshqaruvchi rahbar fazilatlari

- A) Ishbilarmon, mard, shijoatli,uzoqni o‘ylashi, har bir ishda maslahat olmoq, olatli bo‘lmog’i;
- B) Adolatli, jasur, ishchan bo‘lish;
- C) O‘ylab ish tutish, sabr qanoatli, maslahat olmoq;
- D) Qattiqqo‘l va talabchan bo‘lmog’i.

2.«Boburnoma» qaysi tilda yozilgan

- A) Fors tilida;
- B) Eski o‘zbek tilida;
- C) Arab tilida;
- D) Lotin tilida.

3.Navoiyning qaysi asarlarida o‘qituvchi odobiga doir talablar bayon qilingan?

- A) «Sab‘ayi sayyor»;
- B) «Mahbul ul-qulub»;
- C) «Layli va Majnun»;
- D) «Farhod va Shirin».

4.XV asrda yashab ijod etgan mutafakkirlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Al-Forobiy, Ibn Sino;

- B) Al-Fargʻoniy, Mirzo Ulugʻbek;
- C) Ibn Sino, Al-Fargʻoniy;
- D) Alisher Navoiy, Mirzo Ulugʻbek.

6 – Mavzu: Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha ayollar taʼlim va tarbiyasi mazmuni

Reja:

1. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha boʻlgan davrda ayollar taʼlimi xususiyatlari
2. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha boʻlgan davrda ayollar tarbiyasi omillari
3. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha boʻlgan davrda ayollarning taʼlim va tarbiyadagi ishtiroki

Tayanch tushunchalar: Qadimgi davr, ayollar taʼlimi, ayollar tarbiyasi, ayollar taʼlimi va tarbiyasi xususiyatlari, ayollarning taʼlim va tarbiyadagi ishtiroki.

Adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: “Ishonch hamkor”, 2021
2. Qosimjon Sodiqov. Turkiy yozuvlar tarixi.-Toshkent, 2001
- 3.Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «Oʻqituvchi», 1995
- 4.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «Oʻqituvchi», 1996
5. Yormat Tojiyev. Nutq madaniyati asoslari.- Toshkent, 2005

Bitta oʻgʻil bolani oʻqitsangiz, bir insonga taʼlim bergan boʻlasiz. Bitta qiz bolani oʻqitsangiz, butun oilani oʻqitgan boʻlasiz.

Indira Ganda

Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar ta'limi xususiyatlari. Pedagogika tarixida ayollar ta'lim va tarbiyasi alohida masalalardan hisoblanadi.

Shu sababli mazkur masalalar Pedagogika tarixida quyidagi manbalar asosida o'rganiladi:

- 1) arxeologik topilmalar;
- 2) xalq og'aki ijodi manbalari;
- 3) yozma manbalar.

O'zbekistonda ham shubu manbalar asosida eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar ta'limi va tarbiyasi o'rganib kelinmoqda. Bunda ***“Xalq pedagogikasi”*** imkoniyatlariga tayanilishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli ushbu o'quv fani darsligi bilan tanishish tavsiya etiladi.

Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar *ta'limi xususiyatlari* quyidagilardan iborat:

- a) o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish;
- b) o'z davriga mos savodxonlik ko'nikmasini tarkib toptirish;
- v) ayollarni ta'lim faoliyatiga yo'naltirish.

Bu davrda ayollar joriy yozuv asosida o'qish va yozishga o'rgatilgan. Bugunki kunda arxeologik manbalar va yozma asarlar asosida o'sha davrda turkiy xalqlar ayollari 3 xil yozuv asosida ta'lim olganligi aniqlangan. Bu yozuvlar uyg'ur alifbosi (bu alifbo barcha turkiy qabilalar tomonidan qabul qilingan, u hozirgi arab yozuviga o'xshash bo'lib o'ngdan chapga qarab yozilgan), runiy alifbosi (bu sof o'zbek alifbosi bo'lib, u tepadan pastga qarab yozilgan) va arab alifbosidan iborat. Mazkur alifbolar turli davrlarda amal qilgan va ayollarning savodxonligi asosi bo'lgan. Shu tariqa yozuv asosida ayollarning hisoblash ko'nikmasi ham tarkib toptirilgan. Eslatib o'tish joizki, IX asrdan boshlab vatandoshimiz Al-Muhammad Xorazimiy **“Aljabr”** (Algebera) asarida 0 sonini kashf qilgach, turkiy xalqlar ayollari hozirgi amalda bo'lgan quyidagi arab sonlarida hisoblash va sanoqni o'rganishgan:

1,2,3,4,5,6,7,8,9,0

Bu sanoq sistemasi ayollar hisob savodxonligining tez va qulay tarkib topishida muhim o‘rin egallagan. Mazkur davrga qadar turki xalqlarda juft raqamlar bilan hisoblash amalda bo‘lgan. Misol uchun, ikki tup daraxt, to‘rt bola, o‘n oila a‘zosi va hakoza. Shu tariqa ayollarning hisoblash va sanoq savodxonligi o‘z davriga mos ravishda amalga oshirib kelingan.

Ayollar ta’limining bu davrdagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularning savodxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirish bo‘lgan. Unga ko‘ra, ayollar o‘qish, yozish, hisoblash, og‘zaki va yozma nutqni ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan. Bunda ayollarning og‘zaki va yozma nutqini alohida shakllantirishga e’tibor berilganligini eslatib o‘tish joiz. Misol uchun, ayollar nutqining go‘zallik belgilaridan biri eng yorqin va ijobiy so‘zlarni so‘zlash bo‘lgan. Shu tariqa nutq madaniyatiga ega bo‘lish ayollar savodxonligining ko‘rsatgichini belgilagan. Bu pedagogik an’analarning bugungi kunda ham davom etayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Ayollarning ta’lim vositasida bilimi va savodxonligi tarkib toptirilgach, ular iqtidoriga ko‘ra ta’lim berishga yo‘naltirilgan. Buning natijasida ayollarda ta’lim berish, ya’ni yoshlarni o‘qitish hamda savodxon qilish ko‘nikmasi shakllanib borgan. Bunday pedagogik jarayon muhim tajribalardan biri hisoblanadi.

Shu tariqa bu davrda ayollarning ta’lim jarayonida dunyoviylik tamayilining ustuvor bo‘lganligiga va keyinchalik (VIII achrдан boshlab) diniy savodxonlik qo‘shilganligiga ham duch kelamiz.

Ayollarning o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmasi oilada maxsus Ustoz yordamida amalga oshirilgan. Bu borada “Xalq pedagogikasi” asosini tashkil qiluvchi dostonlar va qissalarda ma’lumot berilgan. Misol uchun, “*Alpomish*” dostonida Barchin 9-19 yoshlarida mustaqil o‘qish, yozish, hisoblash va fikrlash ko‘nikmasini ustози Enagadan o‘rganganligi to‘g‘risida ma’limot bergan. Bundan tashqari, G‘arb tarixchisi *Klavdi Rufning “Tarix”* asarida turkiy xalqlarning ayollari o‘z davrining eng o‘qimishli kishilari, deb qayd etilgan. Shu ma’noda o‘zbek ayollari o‘z davrining shoiri, oila boshqaruvchisi va xatto davlat

xichmatchisi sifatida mashhur bo'lgan. Bunga To'maris faoiyatini misol keltirish mumkin. Uning Vatan himoyasi to'g'risidagi jasorati va yuksak darajadagi savodxonligi to'g'risida aynan o'sha davr Yevropa tarixchilari yozib qoldirganligini eslatib o'tish joiz.

Bu davrda savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan ayollar farzandlarining o'qishi, hunar egallashi va ularning Vatanparvar kishilar sifatida voyaga yetishishi uchun tarbiya ishlarini amalga oshirishgan. Bunda opa yoki singil aka yoki ukasining eng yaqin yordamchisi va sirdoshi hisoblangan. Shu sabaabli qizlar oila va o'z Vatanlari uchun yigitlar bilan birgalikda harbiy janglarda ishtirok etgan. Shu sababli xalq dostonlari va qissalarida bosh qahramon yigitlarning eng yaqin yordamchisi sifatida qizlar tasvirlangan.

Bu davrdagi bunday ta'lim jarayoni o'zbek ayollarining dunyoviy-diniy bilimli, ijtimoiy faol va madaniyatli shaxslar sifatida voyaga yetishini ta'limladi. Bir necha misollarga e'tiboringizni tortib o'tmoqchiman.

a) Hakim Termiziy (IX asr) "Ma'rifat" asarida Hadis ilmini o'z onasidan o'rganganligini faxr bilan yozadi;

b) Imom Buxoriy (IX asr) "Sahihiy Buxoriy" kitobining maxsus qismini qizlar ta'lim va tarbiyasiga oid hadislarga bag'ishlagan;

v) Alisher Navoiy (XV asr) "Farxod va Shirin" dostonida boshlang'ich ta'limni onasidan olganligini va qiroatni ham undan o'rganganligini alohida ta'kidlaydi.

Mazkur davrda ayollar ilm maskanlari bo'lgan o'nlab madrasalar qurdirgan va ularda yigitlar bilan birgalikda qizlar ta'limini ham yo'lga qo'ygan. Misol uchun, Shag'risabzidagi Amir Temurning onasi Tekinabegim qurdirgan madrasa, Samarqanddagi Bibixonim qurdirgan madrasa va Hirotdagi Gavharshodbegim qurdirgan madrasalarda butun islom mamlakatlaridan kelgan xotin-qizlar ta'lim olgan. Ularga dunyoviy, diniy ilmlar bilan bir qatorda tibbiyot saboqlari berilgan. Bu madrasalar bugungi kunda ham saqlanib kelayotganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar ta'limi xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, amaliyotga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli mazkur davrdagi ayollar ta'limi xususiyatlari bo'lajak o'qituvchilar tomonidan mustaqil o'qib-o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunda hozirgi zamon ayollar ta'limining muhim asoslari o'z ifodasini topgan.

Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar tarbiyasi omillari. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrdagi ayollar tarbiyasi muhim omillarga tayangan. Bu omillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) 15 yoshga qadar oila tarbiyasi asoslarini bilish;
- b) uy boshqaruvini o'rganishi;
- v) ayollarning tarbiya ishiga yo'naltirilishi.

Ayollar qadimgi davrdan VII asr oxiriga qadar 15 yoshga qadar voyaga yetgan bo'lishi va oila tarbiyasi asoslarini bilgan bo'lishi asosiy masala hisoblangan. Bu borada "*Avesto*"da ayollarning quyidagi asosda tarbiyalanganligi to'g'risida ma'limot berilgan:

- 1) eng yaxshi so'zlash ko'nikmasiga ega bo'lish (ayol kishining qo'pol so'zlashi madaniyatsizlik belgisi hisoblangan);
- 2) o'z fikriga ega bo'lishi (oil va turmush tarzida ayol o'z fikrini bildirishi shart bo'lgan);
- 3) farzandi va o'zgalar uchun ibratli faoliyat ko'nikmasiga ega bo'lishi (biror hunarni egallashi va o'zgalarga uni o'rgata olishi shart bo'lgan).

Darhaqiqat "*Avesto*"da xotin - qizlar haq – huquqini e'zozlash, oila, daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota – onaning farzand odidagi, farzandlarning ota – ona nazdidagi burchi, qizlarga ta'lim – tarbiya berish, hunar o'rgatish, ularni oilaviy hayotga tayyorlashda ezgulik g'oyasi asosida amalga oshirishni targ'ib qiladi. Jumladan, Zardusht bahor oyining birinchi haftasidagi bir kunini "Ayollar bayrami" sifatida nishonlanishini joriy qilgan.

Bunday tarbiya jarayoni ayollarning jamiyat va oila hayotida faol ishtirok etishini ta'minlagan. Shu sababli Yevropalik va Rossiyalik pedagog olimlar Avesto asosida ayollarni ijtimoiy tarbiyalash g'oyalari bo'yicha jild-tadqiqotlar yaratishgan.

Eng qadimgi davrlardan VII asr oxiriga qadar bo'lgan davrda ayollarning savodxonligi va madaniyatligi o'zbek xalqi madaniyatining belgilaridan biri sifatida qaralgan. Misol uchun, VI-VII-asrlarda Turk xoqonligi davridagi toshlarga yozilgan ***O'rxun-Enasoy bitiklarida*** quyidagi holat qayta-qayta ta'kidlanadi: "ertalab farzandlar salomlashish uchun ota-onasining xonasiga kirishgan va farzandlar avvalo onalariga 3 marotaba ta'zim qilib, keyin otaga salom berishgan". Bunday ijtimoiy martabaga ayollar bilimdonligi va madaniyatligi bilan sazovor bo'lishgan.

Mazkur ilk davrida ayollar ta'lim va tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lgan oila yoki erkaklar madaniyatsiz hisoblangan. Shu ma'noda agar ona uyda o'tirsa, shu uyning tomiga farzandlar chiqmagan. Bunday qadriyatlarning muhim ahamiyatga bog'liq ekanligi yuksak savodxon va madaniyatga ega bo'lgan ayollarning faoliyati bilan belgilanadi.

Ushbu davrda ayollar tarbiyasiing muhim omillaridan biri ularni uy boshqaruviga o'rgatilganligidir. Unga ko'ra, ayollar quyidagi ko'nikmalar bilan qurollantirilgan:

- 1) uy-ro'zg'or yumushlarini yuritish;
- 2) farzandlar tarbiyasini amalga oshirish;
- 3) oila iqtisodi faoliyatida ishtirok etish.

Bunday tarbiya jarayoti o'sha davr ijtimoiy hayoti xususiyatlariga mos holda amalga oshirilganligini eslatib o'tish lozim. Shu jihatdan uy-ro'zg'or yumushlarini yuritish ko'nikmasi ayollarning ijtimoiy faoliyatda mustaqilligini ta'minlagan. Chunki bu masala oila madaniyati va Oila pedagogikasi omillari hisoblangan. Oilaning madaniyatligi va uning o'zbek madaniyati rivojida tutgan o'rni ayollarning uy-ro'zg'or yumushlarini oqilona yuritishi bilan belgilangan.

Mazkur davrida 15 yoshga qadar farzandlarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy tarbiyasi onalar tomonidan birlamchi tarzda amalga oshirilganligini eslatib o'tish lozim. Chunki oila tarbiyasi farzandlar tarbiyasining amaliyot maskani hisoblangan. Bolalar 15 yoshdan keyin otalar yoki Ustozlar tarbiyasi jarayoniga o'tgan. Negaki ushbu yoshdan boshlab bolalarning jinsiy tarbiyasiga ehtiyoj sezilgan.

Ayollarning bu davrdagi tarbiyasiga xos bo'lgan omillardan biri ularning oila iqtisodi faoliyatida ishtirok etishiga tayyorlanganligidir. Shu sababli ayollar 15 yoshga qadar tikuvchilik, pazandalik, murabbiylik, enagalik kabi hunar va kasblarni egallagan.

Diqqat qilinsa, eng qadimgi davrlardan 16 asrga qadar ayollar tarbiyasi muhim omillarga tayangan. Mazkur omillarni mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan qo'shimcha adabiyotlar asosida o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollarning ta'lim va tarbiyadagi ishtiroki. Bu davrda ta'lim va tarbiya savodxonligiga ega bo'lgan ayollarning faoliyatida muhim yo'nalishlardan biri ularning ta'lim va tarbiyada ishtirok etishi bo'lgan. Ayollarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ishtiroki Pedagogikaning muhim tajribalaridan biri hisoblanadi.

Ayollar ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi qoidalarga asoslanganligini alohida ta'kidlash lozim:

- 1) sabr-toqat qoidasiga amal qilish;
- 2) jazolash emas, rag'latlantirish metodikasiga amal qilish;
- 3) farzandlarni vatanparvarlik, mardlik kabi ideal maqsadlarga yo'naltirish.

Buning natijasida ayollarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ishtiroki o'ziga xos pedagogik tajriba bo'lib tarkib topgan. Misol uchun, mazkur davrda dunyoga mashhur savodli va madaniyatli o'zbek ayollari yetishib chiqqanligini eslatib o'tish joiz. Bu borada ayniqsa, Temuriy malikalarining faoliyatini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Temuriy malikalar mazkur davlatda Xotin-qizlar masalari bilan shug'ullanishgan. Amir Temurning rafiqasi Bibixonim, uning o'g'li

Shohruh Mirzoning rafiqasi Gavharshodbegim, uning o'g'li Ulug'bek Mirzoning rafiqasi Feruzabegim va Husain Bayqaroning rafiqasi Hadichabegimlarni ta'kidlab o'tish kerak. Misol uchun, Bibixonim barcha Temuriy Mirzolari Enaga sifatida tarbiyalab voyaga yetkazgan.

Ta'kidlash lozimki, ayni paytda bu davrning 7-15- asrlardagi davrlarida ayollar ta'lim va tarbiyasi kuchayganligiga duch kelamiz. Bunda ayollar ta'limi quyidagi asoslarga tayangan holda amalga oshirilgan:

- 1) oila yoki masjidlar qoshidagi boshlang'ich maktablarda qizlarning savodxonligini tarkib toptirish;
- 2) ayollarga dunyoviy va diniy ta'limni uyg'un berish;
- 3) ayollarning ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish;
- 4) qizlar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ilanuvchi maxsus Otinoyi ustoz-o'qituvchilarni tayyorlash.

E'tibor berilsa, eng qadimgi davrlardan 15 asr oxiriga qadar bo'lgan davrda ayollar ta'limi va tarbiyasi o'z davriga mos bo'lgan tarzda amalga oshirilgan. Shu sababli bu davrdagi ta'lim va tarbiyaning ayollar masalasiga doir quyidagi xususiyatlarini eslab qolish tavsiya etiladi:

- 1) ayollar savodxonligi ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan;
- 2) ayollar 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullangan;
- 3) ayollarning ijodkorligi va ijtimoiy faolligi o'z davrida madaniyat darajasini belgilagan;
- 4) yetuk xotin-qizlar tomonidan madrasalar, ya'ni oliy ta'lim muassasalari qurilgan;
- 5) bu davrlarda savodxon va bilimdon ayollar yuzlab avliyolarni – Ahiad Yassaviy, Bahouddin Naqishband, Alisher Navoiy kabilarning, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy kabi mashhur olimlarni, Amir Temur kabi vatanparvar sohibqironlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan.

Bu davrdagi ayollar kitobxonligi masalasini pedagogik jihatdan alohida tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar ta'limi xususiyatlarini nimalar tashkil qiladi?

2. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar tarbiyasi omillari nimalardan iborat?

3. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollarning ta'lim va tarbiyadagi ishtiroki deganda nimalarni tushunasiz?

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Pedagogika tarixida ayollar masalalari qanday manbalar asosida o'rganiladi?

- A) Arxeologik topilmalar, xalq og'aki ijodi manbalari, yozma manbalar;
- B) Xalq og'zaki ijodi va yozma manbalar;
- C) Mutafakkirlar asarlar, xalq og'zaki ijodi;
- D) "Avtsto" va "Alpomish" asarlaridan.

2. Spartada qizlar tarbiyasi qanday kechgan?

- A) O'g'il bolalar bilan qizlar birga qo'shib o'qitilgan;
- B) Harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan;
- C) Uy-joyni qo'riqlash, qo'riqchilik vazifasini o'tashi, qullarni itoatda saqlash, hatto jangga xam tayyor bo'lish;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

3. "Avesto"da ayollarning tarbiyalanganligi to'g'risida qanday ma'limot berilgan?

- A) eng yaxshi so'zlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- B) o'z fikriga ega bo'lishi;
- C) farzandi va o'zgalar uchun ibratli faoliyat ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

4) Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo'lgan davrda ayollar uy boshqaruvida qanday ko'nikmalar bilan qurollantirilgan?

A) Uy-ro'zg'or yumushlarini yuritish, farzandlar tarbiyasini amalga oshirish, oila iqtisodiy faoliyatida ishtirok etish;

B) Farzandlar tarbiyasini mukammal qilib voyaga etkazish ko'nikmasini egallashi;

C) Turmush o'rtog'ining yonida bo'lish va unga yordam berish;

D) Oilaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash vositalarini topa olish.

7 - Mavzu: XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda pedagogik manbalar

Reja:

1. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda tarbiya manbalari
2. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda maktab manbalari
3. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda pedagogik fikrlar rivoji manbalari

Tayanch tushunchalar: pedagogik fikr, ta'lim tizimi, diniy tarbiya, dunyoviy tarbiya, milliy tarbiya, shaxs va jamiyat, urf – odat, homiylik, vasiylik, homiylik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mardonov., U. Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T: "Ishonch hamkor", 2021
2. Qosimjon Sodiqov. Turkiy yozuvlar tarixi. -Toshkent, 2001
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996
5. Abulg'oziy. Shajarayi turk. T.: «Cho'lpon», 1992

6. Ahmad Donish.Navodir ul – vaqoe’.-T., 1967

7. Ahmad Donish Risola yoxud mang’itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2014

**Yer yuzi bir dashtu sahro bo’lsa, gulzori ilm,
Sahnai olamni bo’lmoqda namudori ilm.**

**Ilmu fan birla qurollanmoqda sardori ilm,
Ilm o’qi, hech bir jonga yetkurmaydi ozor ilm.**

Oraziy

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo’lgan davrda tarbiya manbalari. O’zbekiston pedagogikasi tarixida XVII asr va XIX asrning birinchi yarmida *tarbiya* masalasi muhim o’rin tutadi. Chunki bu davrda yagona va markazlashgan yagona davlatchilik Buxoro amirligi, Qo‘qon hamda Xiva xonligi tuzilmalarida kechdi. Buning natijasida tarbiyaga qo‘yilgan talablar ham individual yondoshuv asosida yangilana boshladi. Bunda tarbiyaning umumiy qonuniyatlari saqlangani holda unda mazkur davlatning talablari ham aks etdi. Shu ma’noda bu davrda tarbiyaning quyidagi xususiyatlari ko‘zga tashlanadi:

1. Buxoro amirligida:

- diniy tarbiyaning ustuvorligi.


2. Qo‘qon xonligida:

- dunyoviy tarbiyaning saqlab qolinishi.

3. Xiva xonligida:

- nisbatan milliy tarbiyaga urg‘u berilishi.

Ayni paytda, pedagogika tarixining XVII asr boshlari va XIX asrning birinchi yarmida tarbiyaning turlari birlashadi:



Milliy tarbiya asoslari Xivalik Abulg‘oziy Bahodirxonning (XVII asr) “Shajarayi turk” asarida yaxshi yoritib berilgan. Bunday tarbiyada quyidagilar birlamchi hisoblanadi:

- nasl-nasabni bilish;
- ajdodlar urf – odatlari va an‘analarini o‘zlashtirish;
- jamiyat va davlatga sadoqatli bo‘lish.

Dunyoviy tarbiya asoslari Turdi Farog‘iy (XVII asr) asarlarida yaxshi talqin qilingan.

- turmush – tarz ehtiyojlariga mos fazilatlarni o‘zlashtirish;
- hurfikr bo‘lish;
- o‘zgalar bilan hamkorlik qilish.

Diniy tarbiya asoslari Ahmad Donishning (XIX asr) “Navodir ul - vaqoe” asarida o‘ziga xos tarzda yoritilgan.

Bunda quyidagilar ustuvor hisoblanadi:

- islom odob-axloqi asoslarini o‘zlashtirish;
- diniy burchga ega bo‘lish;
- diniy birodarlik ko‘nikmasini egallash.

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda maktab manbalari. Mazkur davrda an'anaviy ta'lim tizimi saqlanib qolgan. Biroq, unda ilg'or xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

- maktab ta'limining rivojlanishi;
- madrasa ta'limining taraqqiy etishi;
- ta'lim tizimida diniy va dunyoviy fanlarning uyg'ur o'qitilishi.

Bu masalalar davlat nazoratida bo'lganligini alohida ta'kidlash lozim. Shu sababli davlat amaldorlari va boy – badavlat kishilar ta'lim muassasalari qurish ishlarida faoliyat yuritishgan. Misol uchun, bu davrda birgina Buxoro shahrida 100 ga yaqin madrasa faoliyat yutitgan. Madrasalarning quyidagi ixtisosliklar bo'lganligini eslatib o'tish joiz:

- 1) ilohiyot;
- 2) tibbiyot;
- 3) arxitektura (me'morchilik) va suv xo'jaligi.

Xiva xonligida oliy ma'lumotli miroblar (suv xo'jaligi mutaxassislari) tayyorlangan. Masalan, mashhur mutafakkir Muhammad Rizo Ogohiy (XIX asr) mirob – davlat suv xo'jaligi boshlig'i bo'lgan.

Maktab va madrasalar uchun darsliklar yozilgan. Darsliklarning ilohiyot yo'nalishidagi arab tilida, qolgan ta'lim yo'nalishdagilar o'zbek (turkiy) va fors tilida bo'lgan. Afsuski, bu darsliklar ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganilgan emas.

Ta'lim jarayonida Jaloliddin Rumiy (XIII asr), Xusrav Dehlaviy (XIV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr) va Alisher Navoiy (XV asr) asarlaridan keng foydalanilgan.

Buxoroda fors, Qo'qonda fors-o'zbek, Xivada o'zbek tili rasman davlat tili bo'lib hisoblanardi. Turmushda, adabiy ijodda o'zbek va fors tillari keng qo'llanilardi. An'anaga ko'ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro'si saqlanib qolgandi. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil

etilgan. Xonlar o'rtasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko'proq bo'lgan. Bu esa qo'qonliklarning aksariyat ko'pchiligi savodli bo'lib, o'qish va yozishga usta bo'lganligidan dalolat beradi.

O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o'quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi.

Ularning datida masjidlar birinchi o'rinda turardi, chunki deyarli barcha masjidlarda maktablar ochilgan. 1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o'qigan. Bu madrasani ikkita bosh mudarris boshqargan: Eshon Mavloniy va Mahzumi Buxoriy. Bular hurmatli insonlar bo'lib, katta ilmga ega edilar. Madrasalar Qo'qon xonligining boshqa shaharlarida ham bor edi, ammo ular Qo'qondagidek salobatli va katta emasdi. O'qishni bitirganlarning ayrimlari bilimni takomillashtirish va oshirish uchun Buxoro va Samarqand madrasalariga ham borib o'qishardi. Har bir maktabdor domlaning ham o'zicha o'qitish usullari bo'lgan. Ularning ba'zilar bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda kichik yoshdagi o'quvchilarga husnixat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o'nlab hayotiy kitoblarni ham o'qishni o'rgatar edi.

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda pedagogik fikrlar rivoji manbalari

XVII asrda ashab ijod qilgan Abulg'ozil Bahodirxon oliy nasab, toj-taxt sohibi, o'z sulolasining shon-u shuhrati uchun kurash olib borgan, ayni chog'da parchalanib ketayotgan Xiva xonligini kuchli markazlashgan davlatga aylantirish uchun ham qurol bilan, ham qalam bilan kurash olib borib, nisbiy osoyishtalik o'rnatishga erisha olgan hukmdor ham edi. U qoloqlashib qolgan Xorazmni ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan yuqori ko'tarishga intildi. Hukmdor sifatida bekliklar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'zaro qirg'in urushlarga barham berishga qaratilgan tadbirlar ko'rgan bo'lsa, ijodkor sifatida «Shajarayi

turk», «Shajarayi tarokima» va «Manofe ul-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozadi.

Abulgʻozi Bahodirxonning birinchi yodgorliklar asari «Shajarayi tarokima» yarim afsonaviy xususiyatga ega boʻlsa-da, u mahalliy xalqlarning kelib chiqishi va ularning qadimiy tarixiga oid maʼlumotlar beradi. Xorazm xalqining buyuk farzandi Abulgʻozi boshlagan gʻoyatda ulugʻ va moʻtabar ishni undan keyingi avlodlar, Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiylar davom ettiradi. Munis Xorazmiy Shermuhammad Avazboy oʻgʻli (1778-Xiva – 1829) – oʻzbek shoiri, tarixchi, tarjimon, xattot, maʼrifatparvar inson. Boshlangʻich taʼlimni Katda olgan, Xiva madrasalarida oʻqigan. 1800-yilda otasi vafot etgach, Xiva xoni Avaz Inoq saroyida farmonnavis kotib lavozimida ishlagan. 1804-yilda Munis oʻzining «Devoni Munis»ini yaratadi. 1806-yilda Xiva xoni Eltuzarxon unga Xiva xonlari tarixini yozishni topshiradi. Oʻsha yili xon fojiali halok boʻladi. Ammo Munis kitob yozishni davom ettiradi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha boʻlgan davrda tarbiya manbalari
2. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha boʻlgan davrda maktab manbalari
3. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha boʻlgan davrda pedagogik fikrlar rivoji manbalari

Mavzu boʻyicha test savollari

1. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha boʻlgan davrda Buxoro amirligida qaysi tarbiya ustuvor boʻlgan?

- A) Diniy tarbiyaning ustuvor boʻlgan;
- B) Dunyoviy tarbiyaning saqlab qolinishi;
- C) Nisbatan milliy tarbiyaga urgʻu berilgan;
- D) Xech bir tarbiya ustuvor roʻl oʻynamagan.

2. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Qo‘qon xonligida qaysi tarbiya ustuvor bo‘lgan?

- A) Diniy tarbiyaning ustuvor bo‘lgan;
- B) Dunyoviy tarbiyaning saqlab qolinpt;
- C) Nisbatan milliy tarbiyaga urg‘u berilgan;
- D) Xech bir tarbiya ustuvor ro‘l o‘ynamagan.

3. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Xiva xonligida qaysi tarbiya ustuvor bo‘lgan?

- A) Diniy tarbiyaning ustuvor bo‘lgan;
- B) Dunyoviy tarbiyaning saqlab qolinpt;
- C) Nisbatan milliy tarbiyaga urg‘u berilgan;
- D) Xech bir tarbiya ustuvor ro‘l o‘ynamagan.

4. Ahmad Donishning (XIX asr) “Navodir ul - vaqoe” asarida Diniy tarbiya asoslari qanday talqin qilingan?

- A) Islom odob-axloqi asoslarini o‘zlashtirish, diniy burchga ega bo‘lish hamda diniy birodarlik ko‘nikmasini egallash;
- B) Nasl-nasabni bilish, ajdodlar urf – odatlari va an‘analarini o‘zlashtirish, jamiyat va davlatga sadoqatli bo‘lish;
- C) Turmush – tarz ehtiyojlariga mos fazilatlarni o‘zlashtirish, hurfikr bo‘lish, o‘zgalar bilan hamkorlik qilish;
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

8-mavzu: VII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda tarbiya jarayoni

2. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda maktab masalasi

3. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda pedagogik fikrlar rivoji

Tayanch tushunchalar: pedagogik fikr, ta’lim tizimi, diniy tarbiya, dunyoviy tarbiya, milliy tarbiya, shaxs va jamiyat, urf – odat, homiylik, vasiylik, homiylik.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: “Ishonch hamkor”, 2021

2. Qosimjon Sodiqov. Turkiy yozuvlar tarixi.-Toshkent, 2001

3.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O‘qituvchi», 1995

4.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O‘qituvchi», 1996

5. Abulg‘oziy. Shajarayi turk. T.: «Cho‘lpon», 1992

6. Ahmad Donish.Navodir ul – vaqoe’.-T., 1967

7. Ahmad Donish Risola yoxud mang’itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2014

8.Valixo‘jaev B.Madrasalar tarixi.-Samarqand, 1993.

**Bilimni asrabon netgumdir, oxir ?!
Olib tufroqqamu ketgumdir, oxir ?!**

A.Navoiy

Pedagogika tarixida VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar” rivojini o‘rganish, o‘qitish va o‘zlashtirish o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur davr Sharq birinchi Uyg‘onish davri (Renessans) sifatida baholanadi. Chunki bu davrda quyidagi masalalar o‘ziga xos tarzda tahlil qilingan:

- tarbiya va uning asoslari;

- maktab tizimi va uni tashkil etish omillari;
- pedagogik fikrlarning tadrijiy rivojlana borishi.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda tarbiya asoslari bir necha omillarga binoan yangilandi va rivojlandi. Bu omillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- milliy davlatchilikning rivoji;
- islom dinining e'tiqod sifatida qabul qilinishi;
- falsafiy, tabiiy-ilmiy va aniq fanlarning taraqqiy etganligi.

Ushbu davrida O'rta Osiyoda bir talay mutafakkir olimlar yetishib chiqqan. Ular bir vaqtning o'zida pedagog, faylasuf, matematik, geograf, ximik va astronom edilar. Shu sababli ular bir atama – mutafakkirlar tushunchasi bilan ataladi. O'rta Osiyo birinchi Renessansi mutafakkirlaridan biri **Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Xorazmiydir**(783-850). U Xorazmlik bo'lib, 803 yildan umrining oxiriga qadar (850 yilgacha) Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan. Olim geografiya, algebra, astronomiya, arifmetika kabi fanlarda ilmiy kuzatishlar olib borib, ajoyib kashfiyotlar qilgan.

Muso Xorazmiyning quyidagi asarlari Sharq va G'arbda mashhurdir:

- 1) Geografiyaga oid -“Kitob surat al-arz” (Er surati);
- 2) Algebraga oid-“Kitob ul-muxtasar fi hiosb al-jabr val-muqobala”(Algebra to'g'risida qisqacha kitob);
- 3) Astronomiyaga oid -“Zij fi ila al-falak” (Astronomiya Ziji);
- 3) Tarixga oid - “Kitob at tarix” (Tarix kitobi).

E'tibor berilsa, Muso Xorazmiy O'rta Osiyoning eng yirik tabiiy fanlar mutafakkirlaridan biridir. Shu sababli butun dunyoda hozirgi zamon “Kibernetika” fanining asoschisi (lotincha “Algoritm” – Xorazmiy bilim kalitlari) sifatida e'tirof etilgan.

Ta'kidlab o'tish joizki, VIII-IX asrlarda Xorazmda “Avesto”ga asoslangan majusiylar olimlarning manbalarini topish mumkin bo'lgan.

Bu o'rinda Muso Xorazmiyning “Al-jabr”(Algebra) asarida tasavvur hosil qilish uchun ko'chirma keltiramiz:“O'tmish davrlarda o'tgan xalqlarning

olimlari fanning turli tarmoqlari va falsafaning turli bo'limlari sohasida asarlar yozishdan tiyilmas edilar. Bu bilan ular o'zlaridan keyin keladiganlarni nazarda tutardilar va bular tomonidan o'zlariga (sarf qilgan) kuchlariga munosib mukofot bo'lar degan umid tutardilar hamda shon-sharaf bilan mukofotlanardilar, rostgo'y qalblardan maqtovlar aytiladi deb ishonardilar. Chunki ular bunga nisbatan fanning maxfiy sirlarini ochish uchun o'z bo'yinlariga olgan qiyinchiliklar va mehnatlarini arzimas bir narsa deb bilardilar. Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalaridan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, tabiat sirlarini ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq kiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganini to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi".

U algebra fanining asoschisi bo'ldi. «Algebra» so'zining o'zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro'poda tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning «al-Xorazmiy» nomi esa «algoritim» shaklida fanda abadiy o'rnatilib qoldi.

Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o'laroq, uning algebraik risolasining uchta qo'lyozmasi saqlangan. Ular Qobul, Madina va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi.

Risola 1145 yili Seviliyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning arabcha qo'lyozmalari va lotincha tarjimalari XIX va XX asr olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari - uning «Zij»idir.

Xorazmiyning «Zij»i 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, «to'fon», «iskandar», «safar» va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko'chirish qoidalari keltiriladi. Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning

koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa ob'ektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiyning geografik risolasi o'rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Shuning uchun uning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda Geografiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning iqlimlar nazariyasi Yerning ma'mur qismini iqlim mintaqalari bo'yicha o'rganishni osonlashtirdi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog'lar tavsiflanadi. Tog'larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Xorazmiy Yaqin va O'rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog'larni ham u yerlardagi shaharlar kabi batafsil bayon qiladi. Shunga qaraganda, olim u yerlarning geografiyasi bilan shaxsan tanish bo'lgan ko'rinadi.

Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to'rtinchi bobida orollarning qirg'oq chiziqlari va ulardagi punktlarni, beshincha bobda esa mamlakatlarni, oltinchi bobida esa daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Diqqat qilinsa, tabiiy fanlar pedagogikasi bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- tabiiy fanlarning tarixiy asoslarini o'qish;
- mutafakkirlarning tabiiy fanlar asoslariga doir fikrlarini o'rganish;
- o'qigan va o'rganganlarini ijodiy fikrlash hamda mulohaza yuritish vositasida tushunish.

Bunday yondoshuv tabiiy fanlar asoslarini bilishni kuchaytiradi hamda talabalarning tabiiy fanlarni o'rganishda mutafakkirlarimiz merosidan unumli foydalanish samradorligini oshiradi. .

Birinchi Uyg'onish davridagi ta'limiy qarashlarni **Abu Nasr Farobiy** (873-950) fikrlari misolida idrok etish mumkin. Uning fikricha, ta'lim berish ikki usulga asoslanadi:

- 1) ixtiyoriy;

2) majburiy.

Ixtiyoriy usulda shaxsning o'zi bilim olish va kasb egallashga intiladi. Majburiy usulda esa shaxs biror ta'lim bosqichini egallashi shart bo'ladi. Misol uchun, O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim olish majburiydir!

Farobiyning yana fikricha, shaxs ta'lim vositasida quyidagilarni o'zlashtirishi shart:

- eng zaruriy bilimlarni;
- ruhiy yetuklik asoslarini;
- biror hunar sirlarini.

Mutafakkirning bu qarashlari bugungi kunda ham dolzar bo'lib turibdi.

O'rta Osiyo birinchi Renessans darining navbatdagi mutafakkiri **Abu Rayhon Beruniydir** (973-1048). Bu mutafakkir ham Xorazmlik bo'lib, uni o'sha davr olimlaridan Abu Nasr ibn Ali (X asr) tarbiya qilgan. Beruniy qomusiy olim sifatida Sharq va G'arbda e'tirof etilgan.

Manbalarning yozilishicha, Beruniy 152 ta asar yozgan, lekin ulardan bizgacha 31 tasi yetib kelgan. Uning mashhur asarlari quyidagicha:

- 1) Geodeziyaga oid - "Joylarning chegaralarini aniqlash";
- 2) Sotsiologiyaga oid - "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar";
- 3) Geografiyaga oid - "Hindiston";
- 4) Minerologiyaga oid - "Qimmatbaho toshlarni bilish";
- 5) Meditsinaga oid - "Saydana";
- 6) Astronomiyaga oid - "Yulduzshunoslikda bolang'ich ma'lumotlarni bilish".

Bu asarlar Pedagogika tarixi uchun xam muhim merosdir.

Beruniy deydi: "Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va o'quvchi "Har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat bor" deganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi.

Diqqatq qilinsa, bu fikrda o'qitish jarayonini fan asoslari bilan tanishtirishdan boshlash va unda ta'lim oluvchilar idrokini shakllantirishga e'tibor berish metodi bayon qilingan. Shu sababli u deydi: "Tushuntirish – yodlashdan afzaldir".

Mazkur tavsiyalar Beruniyning tabiiy – pedagogik qarashlarini to'liq ifodalaydi.

Birinchi Renessansning mashhur tabiiy – pedagog mutafakkirlardan biri **Abu Ali ibn Sinodir** (980-1037). Buxorolik pedagog olim o'z davriga xos bo'lgan falsafa, meditsina, astronomiya, kimyo, fizika, geografiya, zoologiya, botanika, geologiya, musiqa, psixologiya, adabiyot, axloq kabi fanlar bo'yicha eng yetuk allomalardan biridir. Uning hozirgacha bu ilm sohalarida yaratilgan 300 dan ortiq ilmiy asarlari fanga ma'lum.

Ibn Sinoning besh jilddan iborat bo'lgan "Tib konunlari" 1024 yilda yozib tugallangan. U XX asrning o'zida turli tillarda 36 marta nashr qilingan. Asarning qimmatli shunchalik yuqori bo'lganki, XII asrdayoq Kremonlik Gerard tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Shundan so'ng ushbu asar uzoq asrlar davomida Yevropa universitetlarining tibbiyot fakultetlarida asosiy qo'llanma vazifasini bajargan.

Ibn Sino butun olamga "Tib qonunlari" asari bilan mashhur bo'lsada, lekin u avvalo tabiiy fanlar pedagogikasi bo'yicha eng yirik mutaxassisdir. Uning botanika va zoologiya (Biologiya) fanlari bo'yicha qarashlari va kashfiyotlari bugungi kun fani uchun ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan uning tabiiy-pedagogik qarashlari quyidagilarga asoslangan, shaxsni:

- 1) jismoniy tarbiyalash;
- 2) aqliy tarbiyalash;
- 3) axloqiy tarbiyalash.

Bu o'rinda mutafakkirning tabiiy-pedagogik fikrlariga e'tiboringizni tortamiz:

- 1) "Ichki quvvatlarning ta'sirlari va ta'sirlanishlari takrorlanaversa, ular uchun kuchli bir malaka hosil bo'ladi. Axloq ham shunday vujudga keladi".

2) "his ichki ruhga qattiqroq ta'sir etadi va uni harakatga solishda aqlan kuchliroqdir".

3) "xulqning muvozanatda bo'lishi badan salomatligini saqlaydi".

4) "ma'rifatchi (orif) botir odam bo'ladi, shunday bo'lmay ham bo'larmidi! U o'limdan ham qo'rqmaydigan, sahovat egasi bo'ladi. Shunday bo'lmay ham bo'larmidi? U barcha behad narsalarga hirs qo'yishdan uzoq va barcha adashganlarga mehribondir, shunday bo'lmay ham bo'larmidi! U o'z nafsoniyati bilan ulug'vor bo'ladi, shunday bo'lmay ham bo'larmidi!".

5) "tabiatda bekorchi narsalar bo'lishining o'zi bo'lmagan narsadir".

8) "ilm— narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir".

9) "bilim deb, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat — donishmandlik deyiladi".

Zero, Ibn Sino O'rta Osiyo tabiiy fanlar pedagogikasi asoslarini belgilab bergan shaxslardan biridir.

Birinchi Renessansning mutafakkirlarining navbatdagisi **Unsurmaoniy Kaykovusdir** (1021-1085).

Kaykovus o'z davrining donishmand kishisi bo'lib, davlat xizmatchisi bo'lgan. Farzandiga atab 1082 yili "Qobusnoma" (Bosh bobosi Qobusning o'g'itlari) asarini yozgan. Bu asar Sharq G'arbda eng mashhur asarlardan biridir.

Kaykovusning ijtimoiy – pedagogik qarashlariga ko'ra, yoshlar tabiiylik va voq'elik asosida tarbiyalanishi kerak. Bunday tarbiya quyidagilarga asoslanadi:

- 1) bilimli qilish va notiqlikka o'rgatish;
- 2) hayot va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash;
- 3) ajdodlarning hayotiy tajribasini uzatish.

Bu o'ziga xos qarashdir va shu jihatdan Kaykovus "O'rta Osiyo tabiiy fanlar pedagogikasi"ni tabiiylik, dunyoviylik va hayotiylik bilan boyitgan mutaqakkir pedagog hisoblanadi.

U yozadi: “Ey farzand ... aql yuzasidan bilgilki, ota-onaning izzat va hurmatini bo’yinga olish lozimdir, chunki farzandning asli ota-onadir. Nima uchun ota-onani hurmat qilaman deb ko’nglingga keltirma”.

Bu burch bo’lib, Kaykovus navbatdagi ish farzandlarini hunarga o’rgatish deb biladi: “Ey farzand ogoh bo’lkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz bo’lur va hech kimga foydasi tegmaydi, xuddi tanasi bor-u, soyasi yo’q tikanli mug’ilonga o’xshaydi, o’ziga ham, o’zgaga ham foydasi tegmaydi. Agar kishi oliy nasab, asl bo’lsa-yu, hunari bo’lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan marhum bo’ladi”

“Pedagogika tarixi”da Kaykovusning qarashlari quyidagi jihatlar bilan muhim o’rin tutadi:

- 1) yosh avlodni o’z davri ehtiyojiga mos bilim, ko’nikma va malaka bilan qurollantirish;
- 2) yosh avlodni jamiyat va davlat xizmatiga tayyorlash;
- 3) yosh avlodni umid qilish.

Bu tavsiyalar bugun ham o’z ahamiyatini yo’qotgan emas. Misol uchun, u vrachlik, dehqonchilik, savdogarchilik va davlat xizmati hunarlari asoslari bilan batafsil tanishtiradi. Shu jihatdan Kaykovusning o’g’itlari zamonaviy pedagogikaga ham dasturamal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Pedagogika tarixida **Mahmud ibn al - Xusayn Muhammad Qoshg’ariy** (1019-1078) alohida o’rin tutadi. U Qoshg’ar shahrida (Xitoy Respublikasi tarkibida) tug’ilib o’sgan va bugungi kunda uning Qoshg’ar shahrida qabri “Hazrat Imom” nomi bilan ziyoratgoh hisoblanadi.

Mahmud Qoshg’ariy 1072 yili “Devonu lug’atit turk” (Turkiy so’zlar devoni) yozgan va unda XI asrda o’zbek xalqi boshliq turkiy tillar ishlatgan minglab so’zlarni arab tilida izohlab bergan. Mazkur asarga tayanib olimning tabiiy-pedagogik qarashlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) yosh avlodni xalq tajribasidan o’tgan milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish;
- 2) diniy va dunyoviy faktlarni uyg’un o’qitish;

3) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash.

Bunday tavsiyalar XI asrda – bundan ming yil oldin taqdim etilgani bilan ham muhimdir. Misol uchun, u "Geografiya" fani o'qitishni zarur deb biladi va asariga XI asrga oid Yer yuzi xaritasini ilova qilgan.

Mahmud Qoshg'ariy deydi: "O'kuz azoqi bo'lg'uncha, buzog'u bashi bo'l – Daryoning quyi bo'lg'uncha, hayvonning boshi bo'l". Demak inson hamisha Yetakchi bo'lishga intilishi kerak. Mutafakkir deydi:

Erdi o'zga eronlar,
Erdam belgi bilig tag'.
(Ilgari mardlar ko'p edi,
Ularning bilimi tog'dek bo'lardi)

Yoki:

Bilga erur ezgu tutib so'zin eshit,
Erdimini o'rganibon ishqa sura
(Donishlarni ezgu tutib so'zlarini eshit,
Ularning hunarini o'rganib ishga kirish)

Demak, Mahmud Qoshg'ariy yosh avlodni bilimli, yetakchi va faol shaxslar sifatida ko'rishni istaydi.

Faylasuf, matematik, astronom va shoir **Umar Xayyom** (1040-1123)ning pedagogik qarashlari quyidagi xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi:

- 1) tabiiy fanlar va dunyoviy fanlar haqiqatlariga tayanish;
- 2) yoshlarni siyosiy va ijtimoiy faollikka o'rgatish;
- 3) yoshlar ongida hurfifirlikni tarkib toptirish.

Umar Xayyomning "Mavjudlik to'g'risida", "Algebra asoslari" risolalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ruboyilaridagi "May" obrazi ramziy xususiyatga ega bo'lib, uning maxnosi "Aql, Ruh va His bilan bilish" demakdir. Shu sababli xayyomshunos V. Jukovskiy mutafakkirning "May" obrazini ichimlik ma'nosida tushunadiganlarni "bilimsizlar" deb ataydi.

Umar Xayyom "Mavjudlik to'g'risida" risolasida yozishicha, u Borliqni bor bo'lib, yana yo'qolib turuvchi hodisa sifatida tushunadi. Shu jihatdan uning

fikricha, Inson – Borliqning markazidir va shu sababli u tabiat, nabobat hamda hayvonot olami uchun ma'suldir.

XX asrda tadqiqotchilar Umar Xayyomni ateist sifatida taqdim qilishgan. Lekin, XXI asr boshida bu noto'g'ri fikr to'g'rilanib, Umar Xayyomning diniy tarbiya imkoniyatlariga hurmat bilan qaraganligi asoslab berildi.

Umar Xayyom bilimli bo'lish uchun "Aql va Ruh imkoniyatlari"ga tayanishni tavsiya etadi. U tabiiy bilishda quyidagilarga diqqat qilish kerak deydi:

- mavjudlik turlarini bilish;
- paydo bo'lish va yo'qolish asosini aniqlash;
- tabiat hodisalarini tabiiy tushunish;
- voqelik sabab va oqibatlarini o'rganish.

Zero, Umar Xayyom birinchi Renessans davridagi yorqin mutafakkirlaridan biridir.

Shunday qilib, O'rta Osiyo birinchi Renessans davrida tabiiy fanlar pedagogikasi bo'yicha yorqin Ustozlar silsilasi o'tgan. Biz bu o'rinda ularning yorqin siymolari misolida fikr yuritdik. Aslida bu davrda ma'lumotlarga ko'ra, 2000 dan ortiq daho mutafakkirlar o'tgan.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda tarbiya
2. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda maktab
3. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda pedagogik fikrlar rivoji

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Markaziy osiyoda birinchi bo'lib ta'lim tarbiyaga ta'rif bergan alloma...

- A) Al-Xorazmiy
- B) Al-Farobiy
- C) Al-Farg'oniy
- D) Al-Beruniy

2. Inson kamolotida uch narsa «irsiyat, muhit, tarbiya» muhim rol o'ynaydi degan fikrni ilk bor ilgari surgan olim..

- A) Farobiy
- B) Beruniy
- C) Ibn Sino
- D) Al Motrudiy

3. “Donishnoma” asarining muallifi kim?

- A) Farobiy
- B) Beruniy
- C) Al Motrudiy
- D) Ibn Sino

4. “Er sur’ati”, “Al jabr va al muqobala” asarlarining muallifi kim

- A) Farobiy
- B) Beruniy
- C) Al Xorazmiy
- D) Al Farg’oniy

9 - Mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Reja:

1. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida tarbiya
2. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida ta'lim tizimi
3. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida pedagogik fikrlar

Tayanch tushunchalar: pedagogika, tarbiya, ta'lim tizimi, milliylik, dunyoviylik, istilo, an'anaviy maktab, madrasa, jaded, rus-tuzem, alifbo, bilim.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: "Ishonch hamkor", 2021
2. Qosimjon Sodiqov. Turkiy yozuvlar tarixi.-Toshkent, 2001
- 3.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995
- 4.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996
5. Abulg'oziy. Shajarayi turk. T.: «Cho'lpon», 1992
6. Ahmad Donish.Navodir ul – vaqoe'.-T., 1967
7. Ahmad Donish Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2014
- 8.Valixo'jayev B.Madrasalar tarixi.-Samarqand, 1993.

Hayot yo'lida birinchi masala – maktab masalasidir.
A.Avloniy

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida tarbiya. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida bu davr ijtimoiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Chunki Chor Rossiyasi 1865 yili hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatlari hududini bosib olib, Turkiston general gubernatorligini tuzdi. Natijada o'zbek (turkiy), arab va fors tillari qatori rus tilini o'rganish ehtiyoji tug'ildi. Yurtimizda yangi axborot manbai "Turkestanskiy vedomost", "Turkiston viloyati gazetasi", tatar jadidi Ismoil Gasprinskiyning (1850-1914) "Tarjimon" gazetalari paydo bo'ldi. Bularning barchasi shaxs tarbiyasida quyidagi xususiyatlarning tarkib topishiga asos bo'ldi:

- tarbiyada diniy va dunyoviylik uyg'unligi;
- jahon xalqlari tarbiya asoslarini qabul qilish (bag'rikenglik, hamkorlik va birodarlik fazilatlarlari);
- tarbiyada an'anaviylikning saqlanib qolishi.

Bu xususiyatlar pedagogik fikrlar rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Ahmad Donish (XIX asr) “Navodir ul - vaqoe’” asarida pedagogikamiz tarixida birinchi bo‘lib ijtimoiy tarbiya masalasini tahlil qilib berdi. 000 (Ahmad Donish.Navodir ul – vaqoe’.-T., 1967.) Uning fikricha, insonni ijtimoiy tarbiyalash shart va unda quyidagilargp psoslanish lozim:

- ona tilidan tashqari Xorijiy tillarni o‘rganish;
- o‘zi yashayotgan jamiyat ehtiyojlariga moslashish;
- insonparvar bo‘lish.

Mazkur davrda tarbiyada ijtimoiylik va dunyoviylikning ustuvor bo‘la boshlaganiga duch kelamiz.davrning eng yirik mutafakkiri muhammad Rizo Ogahiy (vafoti 1974 yil) yozadi:

Agar odam esang, sayr et gulshanda adab birla

Yoki

Ko‘ngulni sof tutgil doimo gar istasang maqsad.

Ushbu davrda faoliyat yuritgan ziyolilar o‘zlaridan oldin o‘tgan ulug‘ mutafakkirlarning insonparvarlik, pedagogik fikr, g‘oyalarini davom ettirdilar. Buni Anbar otin, Ahmad donish, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Furqat, Muqimiy, Avaz O‘tar, Zavqiy, Saidahmad Siddiqiylarning ijodida ko‘rish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o‘lkasida ta’lim tizimi. XIX asrning o‘rtalarida Turkiston o‘lkasida boshlang‘ich ma’lumot beradigan maktab hamda o‘rta va oliy diniy ta’lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko‘pchiligi diniy ta’lim beruvchi eng oddiy boshlang‘ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o‘qitish eng oddiy diniy vazifalarni o‘rgatish bilan, ya’ni arab tilida yozilgan Qur’onni o‘qishni o‘rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo‘lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.


Shahar maktablarida diniy ta’limdan tashqari, umumiy ta’lim elementlari – yozish va hisoblash yo‘llari o‘rgatilardi. Shahar maktablarida o‘quvchilar soni

20-30 taga qishloq joylarida esa 10-15 taga etar edi. O`qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o`zlashtirishga qarab 17-18 yoshlarigacha davom etardi. Maktabda avval «Haftiyak», keyin «Qur`on» yod olinar, so`ng «Chor kitob»ga o`tilardi.

Musulmon maktablarida ta`lim tizimi 5 toifaga bo`lingan edi.

- Quyi maktab – bu maktablarda o`g`il bolalarga savod o`rgatishgan (4 yil).
- Xalilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o`rgatilgan.
- Qorixona - Qur`on yod olingan.
- Madrasa.
- Maktab internet – o`rta madrasa. Bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o`qitilib, o`rta ma`lumot berilgan.

Shu ma`noda mazkur davrda Yurtimizda ta`lim tizimi quyidagicha bo`lgan:



E`tibor berilsa, bu davrda milliy ta`lim tizimimizda yangilanish ro`y bergan. Buning natijasida XVII – XIX asr birinchi yarmida ikkinchi darajaga

tushgan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish yana ustuvor darajaga chiqdi. Endi ta'lim oluvchi arab yozuvi bilan bir qatorda krill yozuvini o'rganishga kirishdi.

Jadid maktablarining paydo bo'lishi ta'lim mazmunini yangilashga xizmat qildi. Bu maktablar hozirgi kungacha amalda bo'lgan quyidagi qonuniyatlarni ta'lim tizimiga joriy etdi:

- 1) dars rejimining joriy qilinishi;
- 2) sinf tizimining tatbiq etilishi;
- 3) alifbo asosida yozuvning o'rganilishi;
- 4) ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlarning teng o'qitilishi;
- 5) ta'limda ona tilining ustuvor belgilanishi;
- 6) yangi avlod darsliklarining yaratilishi.

Bu qonuniyatlarning ta'lim tizimiga joriy qilinishi pedagogikamiz tarixida chinakam inqilobdir. Natijada ta'lim mazmuni shaxsning o'zligini anglashiga yo'naltirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida pedagogik fikrlar. Bu masala keng qamrovli bo'lib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiboringizni tartamiz.

Mazkur davrda pedagogik fikrlar xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yangi yondoshuvlarning tarkib topishi (jadid pedagogikasi);
- ta'limda ijtimoiylikning qaror topishi;
- qadim (an'anaviy) va jadid (yangi) pedagogik fikrlarning to'qnashuvi.

Bu xususiyatlarni idrok etish uchun Mahmudcho'ja Behbudiyning (1875-1919) "Umumiy jo'g'rofiya" va Abdurauf Fitratning (1884-1938) "Najot yo'li" kitoblarini o'qish tavsiya etiladi.

Qatagon qurbonlarini oqlash jarayoni 1956 yildan boshlandi. 1956–57-yillarda juda ko'pchilik, xususan, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi ko'plab juda mashhur millat farzandlari oqlanadi.

E'tibor berilsa, bu davrda milliy ta'lim tizimimizda yangilanish ro'y bergan. Buning natijasida XVII – XIX asr birinchi yarmida ikkinchi darajaga

tushgan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish yana ustuvor darajaga chiqdi. Endi ta'lim oluvchi arab yozuvi bilan bir qatorda krill yozuvini o'rganishga kirishdi.

Jadid maktablarining paydo bo'lishi ta'lim mazmunini yangilashga xizmat qildi. Bu maktablar hozirgi kungacha amalda bo'lgan quyidagi qonuniyatlarni ta'lim tizimiga joriy etdi:

- 1) dars rejimining joriy qilinishi;
- 2) sinf tizimining tatbiq etilishi;
- 3) alifbo asosida yozuvning o'rganilishi;
- 4) ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlarning teng o'qitilishi;
- 5) ta'limda ona tilining ustuvor belgilanishi;
- 6) yangi avlod darsliklarining yaratilishi.

Bu hol pedagogikamiz tarixida chinakam inqilobdir. Natijada ta'lim mazmuni shaxsning o'zligini anglashiga yo'naltirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida pedagogik fikrlar. Bu masala keng qamrovli bo'lib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiboringizni tartamiz.

Mazkur davrda pedagogik fikrlar xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yangi yondoshuvlarning tarkib topishi (jadid pedagogikasi);
- ta'limda ijtimoiylikning qaror topishi;
- qadim (an'anaviy) va jadid (yangi) pedagogik fikrlarning to'qnashuvi.

Bu xususiyatlarni idrok etish uchun Mahmudcho'ja Behbudiyning (1875-1919) "Umumiy jo'g'rofiya" va Abdurauf Fitratning (1884-1938) "Najot yo'li" "Munozara", "Oila" "Sayyohi hindi bayonoti" kitoblarini o'qish tavsiya etiladi.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini etuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga: 1. Jismoniy tarbiya — salomatlik, 2. Aqliy tarbiya — sog'lom fikrlilik, 3. Axloqiy tarbiya — axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, u ko'p ulug' adiblarning asarini mutolaa qilgan

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik allomalardan biri Ishoqxon Ibratdir. U ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaachilaridan biri, sayyox, kalligraf, naqqosh, otashin publisist va ilg'or pedagogdir.

Ibratning asli ismi Ishoqxon, otasining ismi Junaydulladir. Ibrat uning adabiy taxallusidir. Ishoqxonning o'ziga "Ibrat" taxallusini olishning boisi shundaki, u ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma'rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va kishilarni zamon ilmidan, ilg'or madaniyatdan, ta'lim-tarbiyadan o'rnak olishga chaqirdi. Shuning uchun ham o'ziga "Ibrat" taxallusini tanladi.

Rus tili bilan bir qatorda yaqin sharq va g'arb tillarini ancha mukammal bilgan Ishoqxon Ibrat bu muhim masalada ham o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sarcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta-al-sina" nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay bo'lsin uchun rus so'zlarini arab yozuvi bilan beradi. Ma'lumki, rus va Evropa so'zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Ishoqxon Ibrat bu murakkab ishni muvaffaqiyatli hal qildi.

Ishoqxon Ibratning mazkur "Lug'ati sitta-an-sina" asari bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901 yilda Toshkentda nashrdan chiqdi.

"Jome'ul xutut" asarida dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv tizimi haqida, shu jumladan, arab xatining suls, tavke', rayxon zulf, xumoyun, turra kabi shakllari haqida ma'lumot berilgan va shu bilan birga unda husnixat san'atiga oid fikrlar bildirilgan. Ibrat ushbu asarida ingliz, fransuz, nemis, latin kabi chet tillarni o'rganish ham ilm-fan va madaniyatni egallashda katta rol o'ynashini alohida ta'kidlaydi.

Ishoqxon Ibratning jahon xalqlari tarixiga bag'ishlangan mazkur "Jome'ul xutut" asarining nashr etilishi, o'zbek matbaachiligi madaniyati tarixida, yozuvlar tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ishoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezonul zamon" asarlarida ham o'zining pedagogik-ma'rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi

Abdulla Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi: 1. “Tarbiyaning zamoni”. 2. “Badan tarbiyasi”. 3. “Fikr tarbiyasi”. 4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Qatag‘on qurbonlarini oqlash jarayoni 1956 yildan boshlandi. 1956–57-yillarda juda ko‘pchilik, xususan, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ko‘plab juda mashhur millat farzandlari oqlanadi.

«Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir»

Agar siz bir yil oldinni o‘ylasangiz – guruch eking, agar 5 -6 yil oldinni o‘ylasangiz – daraxt eking. Agar siz butun umrni o‘ylasangiz odamlarni o‘qiting va tarbiyalang.

Abdurauf Fitratning “birodarlik” ma’rifiy g‘oyasidan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega [4]. Fitratning fikricha, birodarlik ma’rifiy g‘oyasi nagizlarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) insoniy birodarlik;
- b) ma’rifiy birodarlik;
- v) umumiy birodarlik.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ota-bobosidan muftiylikni meros qilib olgan va vaqtida Samarqand viloyatida ushbu lavozimni egallagan. Munavvarqori

madrasini tugallagandan so'ng Toshkentdagi "Darxon" masjidida imom bo'lib ishlagan, Is'hoqxon Ibrat esa Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida qozilik qilgan.

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur»,

Behbudiy hajga borganida Bayrut universitetini ziyorat qiladi. Hayratga tushib, "Ey Xudo, bularning laboratoriyalarini qaranglar", deb yozadi. U kimyo laboratoriyasi bilan tanishadi. "Bu yerda qanday talabalar va qizlar o'qiyotganini qarang! Yutuqlar ham shuncha bo'ladimi! Nega bu musulmon mamlakatida bunday universitet bor, biz ham musulmon mamlakatimiz, lekin Turkistonda oliy darajadagi birorta ham, ha-ha, birorta ham ta'lim muassasasi yo'q?"

Bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy bilimni rivojlantirish jarayonida jadid ma'rifatparvar pedagogi Mahmudxo'ja Behbudiyning "zamona ilmini o'rganish" ma'rifiy g'oyasi muhim ahamiyatga ega [3].

Unga ko'ra Behbudiy ta'lim oluvchilarga o'z zamoi ehtiyojlariga mos bilimlarni o'rganishni tavsiya etadi. Bir o'rinda u zamona ilmini o'rganish siyosiy savodxonlikning asosidir degan fikrga keladi.

Bu borada uning ayniqsa "Katta jo'g'rofiya kitobi" asari muhim bo'lib, asarda Behbudiy davlatchilikning demokratik, jadidchilik (istiqlolchilik) va unitar (yakkaboshchilik) shakllarini batafsil tahlil qilib bergan.

Shu jihatda bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy madaniyatni shakllantirish uchun ularga davlatchilik shakllari to'g'risida ham siyosiy bilim berish muhim ahamiyatga ega.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida tarbiya jarayoni qanday kechdi?

2. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida qanday ta'lim turlari mavjud edi?

3. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida pedagogik xususiyatlari nimalardan iborat?

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Rus muhojirlari Turkiston geniral gubernatorining farmoniga binoan qanday maqsadda maorif islohatini o'tkazgan edilar.

- A) Rus maktablari, rus – tubjoy maktablari, gimnaziya ochish maqsadida;
- B) Rus-tubjoy maktablarini ochish maqsadida;
- C) Savodsizlikni tugatish maqsadida;
- D) Milliy g'ururni yo'qotish maqsadida.

2. 1918 yilning yozida «Musulmon o'qituvchilari uchun» qaeda pedagogik kurslar ochilgan.

- A) Samarqandda;
- B) Buxoroda;
- C) Toshkentda;
- D) Namanganda.

3. Turkistonda birinchi bo'lib «Etimlar va kambag'allar bolalari» uchun maktab ochgan ma'rifatparvar pedagogni ko'rsating.

- A) Fitrat;
- B) Avloniy;
- C) SHakuriy;
- D) Xamza;

4. Turkiston xalq universitetining tantanali ochilish marosimi qachon bo'lgan

- A) 1918 y. 21 aprel;
- B) 1918 y. 13 mayda;
- C) 1918 y. 8 mayda;
- D) 1919 y. 2 sentabrda.

10-Mavzu: XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasining faollashishi va yoritilishining pedagogik sharoitlari

Reja:

1. XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasi
2. XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasining faollashishi
3. XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasi yoritilishining pedagogik sharoitlari

Tayanch tushunchalar: Turkiston, pedagogika, ayollar ta'limi, ayollar tarbiyasi, faollashuv, milliylik narbiya, pedagogik shart-shroit, rivojlanish, malaka.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: "Ishonch hamkor", 2021
2. Qosimjon Sodiqov. Turkiy yozuvlar tarixi.-Toshkent, 2001
- 3.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O'qituvchi», 1995
- 4.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996
5. Yormat Tojiyev. Nutq madaniyati asoslari.- Toshkent, 2005

**O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.**

Yusuf Xos Hojib

XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasi. A.Fitrat o'z kitobida “Qiz bolalar o'qishi kerakmi?” degan band ham bor. Muallifga ko'ra, insonning intellektual holati, oladigan ta'limi ko'p jihatdan ayollarga, onalarga bog'liq. Yozishicha, erkak tirikchilik uchun egulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko'ra ma'lumotliroq bo'lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug'ullanadi. Darhaqiqat shunday. Ayollar ta'lim rivojlanganini va ayollar maktabi bo'lganini, ularda ayollar ta'lim olib, Sharq mumtoz adabiyoti o'qitilganini bilamiz.

O'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan turkiy tilda “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat as-masoyil” (“Masalalarning qaymog'i”) nomli asarlar yaratildi. “Odob as-solihin” asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari muallifning o'zi ta'kidlab o'tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo'lib, har bir bob o'zida 4 faslni aks ettiradi.

Asarda ilgari surilgan er va xotin o'rtasida tashkil etiluvchi munosabatlar odobiga oid qarashlar ham alohida diqqatga sazovordir.

Mazkur o'rinda quyidagi fikrlar ilgari suriladi: uylanadigan yigit nikohdan oldin o'zi uylanmoqchi bo'lgan qizni ko'rmog'i, uylanadigan qizning bokira bo'lishi, shuningdek, to'rt narsa: umrda, qomatda, molda va nasabda erdan past va uch narsa: husnu jamolda, hulq (odob)da hamda iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligi muallif tomonidan alohida ta'kidlanadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarning ahamiyati amaliy turmushda o'z isbotini topgan bo'lib, ularni bilish hamda mazkur fikrlarga amal qilish oilalarda tinchlik-totuvlik, farovonlik va xotirjamlikning barqaror bo'lishini kafolatlovchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Er kishi xotiniga yaxshi muomala qilish, uni behuda g'azablantirmasligi, oliyjanob bo'lishi, alohida muruvvat ko'rsatishi, havoyi nafs balosidan saqlanishi, agar ayol jabr va sitam ko'rsatsa, unga avval nasihat qilib, xatti-harakatlarining

nojoizligini tushuntirishi, agar u ushbu chora-tadbirdan so‘ng yaxshi tomonga yuz tutsa, uni avf etishi maqsadga muvofiq ekanligi borasidagi qarashlar bayon etiladi.

Asarda, shuningdek, ayol kishining oiladagi o‘rni va burchlari yuzasidan ham bir qator fikr-mulohazalar bayon etiladi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning nuqtai nazariga ko‘ra, ayol kishining oiladagi eng muhim burchi quyidagilardan iboratdir: xotin erining ruxsatisiz hech joyga bormasligi va hech kimni uyiga keltirmasligi, erining mol-dunyasini sarf etmasligi, o‘z zimmasidagi mas‘uliyatlarni oqilona bajarishi, eri xursand bo‘lsa - xursand, g‘amgin bo‘lsa - g‘amgin bo‘lishi, erining topish-tutishiga qanoat qilishi, er vafot etganda motam tutib, marhumning ruhini pok saqlashi va hokazolar. Yuqorida tilga olingan pandlar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muhammad Sodiq qoshg‘ariy “Odob as-solihin” asarida, kasal holini so‘rash, ta’ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Ushbu holatlarda amal qilinadigan qoidalar mohiyatidan xabardor bo‘lish ham har bir kishi uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o‘lkasida ayollar ta’limi masalasining faollashishi. Qizlarga boshlang‘ich diniy ta’lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo‘lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan biror ‘quv rejasi va dasturiga ega emas edilar. O‘quvchilar ham sinflarga bo‘lib emas, balki bolalar o‘qitiladigan kitoblarni o‘zlashtirish darajasiga qarab guruhlariga bo‘lib o‘qitilardi.

Domla yoki Otinoyi darsni berilgan vazifani o‘qitib ko‘rish va yangi topshiriq berishdan boshlar edi. Hech bir domla yoki otinoyida o‘ziga xos ishlar, umumiy o‘quv darsligi yo bo‘lmasa o‘quv uslubi bo‘lmas edi.

Katta yoshli o‘quvchilardan biri otinoyiga yordamchi qilib saylanar va «xalfa» deb yuritilardi. Maktabdagi asosiy o‘quv fani (shariat va imon) islom qoidalari to‘plami edi.

Otinoyining ish haqi sifatida bolalarning ota-onalari tomonidan berilgan oziq-ovqat mahsulotlari hamda kiyimliklar va ba’zan pul to‘lanar edi. Bundan tashqari, ota-onalardan «bo‘yra puli», «o‘tin puli» ham undirilardi.

Dunyo fani va madaniyatiga ulkan ulush qo'shgan yuzlab mutafakkir olimlarimizqatorida To'maris, Qurbonjon Dodhoh, Saroymulxonim, Nodirabegim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Uvaysiy va boshqalar ilmiy daraja va unvonlari bo'lmasalar-da, o'z davrining olima-yu, fozila ayollarisifatida jamiyat taraqqiyotida o'z ovozlari, o'z munosib o'rinlariga ega bo'lganlar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar ta'limi ham rivojlana boshladi. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan maktablar tashkil etiladi va bu maktablar otinlar maktabi deb nomlandi. O'zbek diyorida otinlar maktabining yirik namoyondalaridan biri- Jahon otin Uvaysiy edi. Jahon otin Uvaysiy - XIX asr Qo'q'on madaniy muxitning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri etuk shoira va maktabdor muallimalardandir. Jahon otin Uvaysiyning she'rlar va maktabdorlik xizmatlari xalq ommasi orasida keng yoyilgan.

Jahon otin Uvaysiy endi mustaqil ravishda Marg'ilon va uning atrofidagi qizlarni o'qita boshladi. Qizlarga xat-savod o'rgatadi. Ilmiy musiqadan dars beradi. Uvaysiyqizlarga she'r yozishning uslublarini xam o'rgatadi. Muallimlik kasbiga Uvaysiy ixlos bilan qaraydi. Ilmga tashna qizlarga sidqidil bilan dars beradi. Bu xol uning g'azallarida xam o'z ifodasini topgandir.

Uvaysiyning avlodlari shoiradan 4 ta devon qolganini aytadilar. Uvaysiyning o'z qo'li bilan ko'chirgan devonlaridan ikkitasi yoshlik chog'ida yo'qolgan. Qolgan ikkitasini andijonlik Lo'li otin olib ketib yo'qotgan. Ulardan yuqorida sanab o'tilgan ta'lim o'choqlari (otinoyi maktablaridan tashqari) vaqf daromadlaridan kelgan mablag' hisobiga ta'minlanardi.

O'zbek shoirasi va ma'rifatparvari Anbar otin o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. Ma'lumotni Dilshod otin (Barno)dan oladi. U maktabda tarix, adabiyotni o'rganadi, she'rlar yozadi. So'ng o'zi ham darslar beradi. U qizlarga odob qoidalarini, she'r tuzilishi, yuksak axloqiy malakalar hosil qilish qoidalarini o'rgatadi. Uning butun hayoti she'riyat bilan bog'liq. Ularda ma'rifiy g'oyalar ilgari suriladi. Anbar otin ma'rifatgina shaxs erkinligini shakllantirishini biladi. Uning Furqatga yozgan she'riy maktubida yangi usul maktablarini ochish hakidagi takliflari bayon etilgan

Atoqli shoira Anbar otin devon ham tuzgan va uning dunyoqarashini, falsafiy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan asari -«Qarolar falsafasi»dir. Asar kirish va 4 qismdan iborat. Har bir faslda shoira o'zining ijtimoiy-qarashlarini bayon qiladi, ayollar taqdiri haqida yozadi.

XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasi yoritilishining pedagogik sharoitlari. Pedagogik merosimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni, chuqur o'rganish va tadqiq etish, ulardan hozirgi istiqloq, mustaqillik sharoitida ma'naviyatimizni, milliy tarbiyashunosligimizni rivojlantirishda foydalanish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. "...ayollarni kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish, ularning sotsial, ijtimoiy-siyosiy faolligini davlat qurilishi sohasidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan umummilliy siyosatni ro'yobga chiqarish uchunbarcha mas'uldir"

Uzoq tariximizda O'rta Osiyo xalqlari hayotida islom dini kirib kelishi bilan yangi diniy dunyoqarashning shakllanishi va musulmon e'tiqodining ko'rsatmalarini amalga oshirish boshlandi. Mehnat va o'qitish ta'limotning asosini tashkil etardi, hamma uchun ilm-fan va bilimga intilish mamnuniyat bilan qabul qilinar edi. Oila shaxsni tarbiyalashning asosini tashkil etuvchi maskan sifatida ulug'landi va ayolga unda bolalarni tarbiyalashda axloqiy va ma'naviy fazilatlarmanbai maqomi berildi.

Ayol kishining ilm bilan shug'ullanishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh-urug'lari va jamiyatning ilimli, madaniyatli bo'lishi uchun musatkam poydevordir.

Donishmandlarimizdan biri aytganidek: "erkak ilimli bo'lsa, farzand ilimli bo'ladi, ayol ilimli bo'lsa, millat ilimli bo'ladi". Demak, qadimdan ayollarning ilimli, oqila, fozila bo'lishidan jamiyat manfaatdor bo'lib kelgan, bundan keyin ham shunday bo'lishi tabiiydir.

Tarixdan ham ma'lumki, islom ta'limotida ayollarni olima-yu fozila bo'lishiga da'vat etilganligining guvohi bo'lamiz. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning "Ilm olish har bir muslim va muslimaga farz" degan hadislar bilan ilm olish va olim bo'lish faqat erkaklarga tegishli bo'lib qolmasdan, balki ayollarga ham xosligini

e'tirof etadi. Islom tarixida olimlar ayollar ko'p o'tgan. Islomshunos olimlarimizning ma'lumotlariga ko'ra, "Asri saodatga sahobiyalar o'rtasida ilmlari, zehnlari bilan ajralib turgan ayollardan hazrati Oysha, Xafsa, Ummu, Salama, Karima bintul Mikdoya, Ummu Gulsum binti Ukba, Oysha bint Sa'd (r.a.)larning nomlari tarixda qolgan. Ular Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v.)ning so'zlarini tushunib olib, kitoblarida hazrati Oysha, Ummu Xabiba bintu AbuSufyon, Ummu Adb, Asmo binti Abu Bakr, Savdo binti Zam'a, Fotima binti Qays, Durra bint abu Laxab, Sofiya bint Abdulmutolib, Zaynab bint Jaxsh, Maymuna bint Xoris, Ummu xaram bint Milxom, Ummu Fervallarning nomlari keltirilgan"

Qur'oni Karimning Mujodala surasi 2-oyatida aytilganidek, "Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) darajada martabalarga ko'tarur". "Olimlar payg'ambarlarning vorislaridir". "Alloh taolo Ibrohim alayhissalomga vahiy qilib, Ey,Ibrohim! Men bilguvchiman va har bir olimni yaxshi ko'raman" - kabi qator hadislaridan ham ma'lumki, hamma zamonlarda ilm ahli qadr-himmatga ega bo'lib kelganlar.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasi
2. XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasining faollashishi
3. XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasi yoritilishining pedagogik sharoitlari

Mavzu bo'yicha test savollari

1.Toshkentning Beshyog'och dahasida 1917 yil dekabrda tashkil etilgan xotin-qizlar maktabining asoschisi.

- A) M. Sidiqova;
- B) T.Solihova;
- C) M.Ahmedova;
- D) B.Jalilova.

2.Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan turkiy tilda "Odob as-solihin" Toshkent shahrida qaysi yillari nashr enilgan?

- A) 1889 hamda 1901 yillarda;
- B) 1892 hamda 1986 yillarda;
- C) 1889 hamda 1986 yillarda;
- D) 1901 hamda 1892 yillarda.

3.Uvaysiyning nechta devoni qolgan?

- A) 3 ta;
- B) 4 ta;
- C) 5 ta;
- D) 6 ta.

4.Atoqli shoira Anbar otin Qarolar falsafasi» devoni necha qismdan iborat?

- A) 6 qismdan iborat;
- B) 4 qismdan iborat;
- C) 5 qismdan iborat;
- D) 3 qismdan iborat.

11-mavzu: Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari

Reja:

1. Jadidchilik harakati talqini
2. Turkistonda jadid ma'rifatparvarligini vujudga kelishi tarixi
3. Jadidlarнинг ma'rifatparvarlik sohasida amalga oshirgan ishlari

Tayanch tushunchalar: jadid ma'rifatparvar, pedagogik qarash, rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari, islom tarixi, diniy fanlar, dunyoviy fanlar, darsliklar.

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: “Ishonch hamkor”, 2021
- 2.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild, T.: «O‘qituvchi», 1995
- 3.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O‘qituvchi», 1996
- 4.Mahmudxo‘ja Behbudiy.Tanlangan asarlar.-T.,1998
- 5.Abdurauf Fitrat.Tanlangan asarlar.5-jild.-T.,2007
- 6.Munavvar Qori.Tanlangan asarlar.-T.,2015
- 7.Said Ahroriy.Tanlangan asarlar.-T.,2001
- 8.Is‘hoqxon Ibrat.Tanlangan asarlar.-T.,2005
- 9.O‘tayev A.Y. Bo‘lajak o‘qituvchilarda siyosiy tarbiya ko‘nikmasini rivojlantir.-T., 2022

Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy

Jadidchilik harakati talqini. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida paydo bo‘ldi. Bu davrga kelib, islom falsafasi qadrini yo‘qotib bo‘ldi, ya'ni u sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning ulamo tarafidan maishiy talqiniga aylanib qoldi, xolos.

Shuning uchun jadidlar – yoshlar, bu esa yoshlar harakati edi. Ma'lum bo‘lishicha, mashhur jadid va yoshlarning sevimli yozuvchisi Cho‘lpon 1910 yilda 13 yoshda, Behbudiyning yoshi esa 30 oshiqroq bo‘lgan ekan. O‘sha harakat ishtirokchilari faqat yoshlardan iborat bo‘lgan. Bu yoshlar intellektual jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunar edi. Albatta, u oldingi adabiyot, oldingi falsafa yutuqlariga asoslangan. Jadidlar o‘zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qildi.

Agar jadidlar faoliyatini yana bir necha o‘n yil davom ettirganida, juda yaxshi natijaga erishgan hamda aholi ularni yaxshi qabul qilgan, g‘oyalari yaxshi tarqalgan bo‘lar edi.

Turkistonda jadid ma'rifatparvarligini vujudga kelishi tarixi. Jadidchilikning o'ziga xosligi eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G'arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo'lgan. Deyarli barchasi oliy diniy ta'lim olib, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy she'riyati, o'rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni o'qib va uqib, bu bilimni ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilib bergan va bu ta'lim sohasini, umuman olganda, ma'rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan. Jadidlar nafaqat bunday islohot o'tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, qolaversa, ma'rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan: ular yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan, bu aholi uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangilik bo'lib, juda katta ta'sir kuchiga bo'lgan va odamlar ongida inqilob yasagan. Shu o'rinda M. Behbudiyning "Padarkush" piezasini eslab o'tish joiz, unda bilimsizlik, johillik fojiaga sabab bo'lishi ko'rsatib berilgan va yoshlar ongida chin ma'nodagi inqilob yasagan edi.

Ismoil Gasprinskiy - jadidchilikning otasi, chunki u ma'rifatparvarlik faoliyatini Qrimda boshlab, shu bilan cheklanib qolgani yo'q hamda "Vaqt" va "Sho'ro" deb atalgan 2 ta buyuk gazeta tashkil qilgan. Bu gazetalar Qrimdan tashqarida ham keng tarqaldi. O'sha gazetalar ta'siri juda katta bo'lgan – u Markaziy Osiyo ziyolilari uchun chin ma'nodagi kashfiyot edi, chunki gazetada nafaqat boshqa davlatlar, mamlakatlar va shaharlar taraqqiyoti, shuning barobarida yangi usul maktablarining ahamiyati xususida axborot berilgan, ularda turkiy xalqlarning siyosiy emas, ma'naviy jihatdan birlashishi zarurligi bot-bot takrorlangan. Shuning uchun gazeta sonlari bu erga olib kelinadigan bo'ldi. O'rta Osiyo jadidchiligi otasi deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudi 1903 yilda ikkinchi marta qilgan hajini Rossiyani, xususan, boshqa Sharq mamlakatlarini o'rganish bilan omuxta qildi va o'sha yili Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashdi. Bu paytga kelib, Behbudiyning o'z mablag'i hisobiga ochilgan ko'plab xususiy maktablari bor edi. U "Samarqand" deb atalgan gazeta chop ettirgan. Gasprinskiy bilan suhbat olimni to'g'ri yo'ldan ketayotganiga ishontirdi va shu yo'ldagi

bundan keyingi harakatini to'g'rilab oldi. Shu sababli Gasprinskiyni Markaziy Osiyoda ham ushbu harakatning rahnamosi deb atash mumkin.

Uning ta'siri juda katta bo'lgan. Gasprinskiy Buxoroga kelgani, ushbu shahrdagi jadidlar maktabiga borgani, hatto amir bilan bunday maktablarning foydasi va amir ushbu maktablar rivojlanishiga yordam berishi zarurligi haqida gaplashgani ma'lum. Lekin, taassufki, bunday bo'lmadi. Amir farmoni bilan bu maktablar ham, ochilgan boshqalari ham yopildi. Lekin bu endi butunlay boshqa – Buxoro jadidchiligi tarixi.

Buxoroda jadidchilik quvg'inga uchragan. Bu amirning hech qanday yangilikni istamasligi bilan bog'liq edi. Xiva xonligi haqida bunday deb bo'lmaydi, chunki Xiva xoni Muhammad Rahim – Feruz taxallusi bilan she'rlar yozgan – ma'rifatli inson bo'lgan. Uning sharofati bilan ilk bosmaxona Rossiyada sotib olinib, Xivaga olib kelingan, birinchi jadidlar maktabi, hatto qiz bolalar uchun jadidlar maktabi ochilgan. Yana Xiva xoni vaziri Islomxo'janing ushbu harakatda homiy sifatida qilgan ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim, chunki u “usul ul-jadid” maktablarini rivojlantirishga har tomonlama yordam bergan va bunday maktablar ahamiyatini tushungan. Zikr etilgan barcha mintaqalardagi maktablarni birlashtirib turgan narsa shuki, jadidlar o'z madaniyati bilan cheklanib qolmaslikni, xalq qoloq bo'lib qolgani sababi G'arbning texnologik yutuqlarini jalb etishni xush ko'rmaslik ekanini yaxshi anglagan.

Ko'pchilik jadidlarni g'arbparastlikda ayblagan. Ular g'arbparastligini tushunsa bo'ladi. Bu nafaqat jadidlar falsafasiga, balki tashqi ko'rinishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Ular hatto evropaliklarga o'xshab kiyinib, charmdan tikilgan poyabzal kiyib yurar, so'ngra mullalar jadidlarni cho'chqa terisidan tikilgan oyoq kiyim kiyganlikda ayblar, lekin ular bunga parvo qilmas edi. Jadidlar, agar biz G'arbning madaniy va texnologik yutuqlarini bilmasak, kelajagimiz barbod bo'ladi, deb hisoblagan.

Rossiya imperiyasi mintaqani bosib olgandan, bu erga Rossiya sarmoyasi kirib kelgandan so'ng Turkistonning jadal tarzda metropoliya xomashyo bazasiga aylantirilishi maishiy hayot va huquqiy me'yorlar o'zgartirilishini talab etishi

muqarrar edi. Bu jarayon og'ir bo'lgan, chunki bunday vaziyat yangiliklarga nisbatan turlicha, aksariyat hollarda salbiy munosabatni keltirib chiqargan. Islom dinining dogmatik fikr tizimi shu tarzda tuzilgan ediki, unga ko'ra, o'sha tizimni tamsil etuvchi kishilar har qanday yangilik – bid'atga tegishli baho berishi, o'sha yangilik qabul qilsa bo'ladigan va yaxshi yoki qabul qilsa bo'lmaydigan, shubhali, yoki ma'lum shartlar bilan tan olinishi kerak bo'lgan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yangilikka ilohiyotshunoslik nuqtai nazaridan baho berilishi alohida dolzarblik kasb etgan, ayni baho musulmonlarning yangi jarayonlarda qatnashishini oqlashga, ularga ijozat etilishiga imkon bergan. Buni amalga oshirish uchun avvalo boshqa dinlarga nisbatan bag'rikenglikni shakllantirish zarur edi, chunki barcha yangiliklarga oddiy xalq tilida kofirlar deb atalgan boshqa dinlar vakillari: xristianlar, yahudiylar va hk. ishlab chiqargan narsalar sifatida qaralgan.

Ya'nikim, Rossiyadan olib kelingan bosmaxona, bosmaxona stanogi yoki musiqa grammofoni va yana boshqa narsalarni musulmonlar bularga kofirlar, ya'ni xristianlar ishlab chiqargan narsa deb qaragan, ulardan foydalanish kerakmi yoki yo'qligini, din bu masalaga qanday qarashini bilmagan. Turkistonning milliy taraqqiyparvarlari ushbu diniy bag'rikenglikning chin ma'nodagi ifodachilari edi. Ularning diniy bilimi, dunyoqarashi va intilishlari bilan bunga to'la haqqi bo'lgan. Siz to'g'ri aytganingizdek, ularning mashhur vakillari nafaqat madrasalarni tugatgan, qolaversa, diniy rutbaga ham ega bo'lgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy ota-bobosidan muftiylikni meros qilib olgan va vaqtida Samarqand viloyatida ushbu lavozimni egallagan. Munavvarqori madrasini tugallagandan so'ng Toshkentdagi "Darxon" masjidida imom bo'lib ishlagan, Ishoqxon Ibrat esa Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida qozilik qilgan.

O'tmishning madaniy kapitaliga, sayohat qilish, Evropa, shuningdek, rivojlangan musulmon mamlakatlarining sanoat va madaniyat sohasidagi yutuqlari, turli ziyolilar va har xil ijtimoiy harakatlar vakillari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan jadidlar Turkiston qanchalik taraqqiyotdan ortda qolib ketganini juda yaxshi anglayotgan edi. Shuning uchun O'rta Osiyoning musulmon madaniy an'anasini modernizasiya qilishni yoqlab chiqa boshladi. Ular islohotni islom

ta'limotini anglab etishdan boshladi. Shu sabab Qur'on va hadislardan hamma narsa bilimga tayanishini tasdiqlovchi o'rinlarni izlashga tushdi. Bilamizki, Qur'onning $\frac{1}{4}$ qismi tarixga bag'ishlangan, butun boshli tarix esa o'tmishning intellektual tajribasini tushunmay turib, jahon intellektual tajribasini anglab olmay turib, biror narsaga erishib bo'lmazligidan dalolat beradi. Amerikalik tarixchi Adib Xolid fikricha, O'rta Osiyo jadidchiligi musulmon modernizmi chorcho'plari bilan mahalliyashtirilgan edi.

O'rta Osiyoning musulmon an'anasiga borib taqaladi, shuning uchun jadidlar, an'anaga ko'ra, islom diniga tayangan. Zamonaviylik islom dinining haqiqiy mazmuniga bog'langan, faqat barcha asrlar davomida paydo bo'lgan o'simtalaridan tozalangan islom musulmonlar farovonligini ta'minlashi mumkin edi. Jadidlarning g'oyasi shu bo'lgan. Dunyoga yangicha nazar bilan boqar ekan, islomni tushundi, musulmonlik nima ekanini angladi. Ularning jamiyatni yangilash nazariyasida taraqqiyotda juda oldinlab ketgan Evropa bilan yaqinlashish, eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirish haqidagi masala jiddiy o'rin tutgan. Islomni oqlamasdan buning iloji yo'q edi. Turkistonning mustamlakadagi holati sabab bo'lgan inqirozli vaziyatdan chiqish eng avvalo Evropa tajribasidan foydalangan ko'yi madaniy islohotlar o'tkazishda ko'rilgan.

Ular juda ko'p kitoblari va maqolalarida musulmon ruhoniylari fikrlari va amallarini tez-tez islom dinini tushunmaslik va Qur'onni yaxshi bilmaslik bilan izohlagan. Ko'plab asarlarda shunday yo'l tutilgani ko'zga tashlanadi. Masalan, Abdurauf Fitratning "Munozara" kitobi va hind sayyohi tilidan yozilgan hikoyalarida shu holatni ko'rish mumkin. Ikki nafar chet ellik Qur'onning solih nuktadonlari sifatida tasvirlanadi hamda muallif ular nomidan Turkiston va Buxorodagi ta'lim, armiyani boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy hayot holatiga baho beradi. Fitrat bir asarida bir evropalik – fransuzni, ikkinchisida esa O'rta osiyolik bo'lmagan hindni behuda tanlamagan va ular nomidan taraqqiyotning ob'ektiv sabablari va unga chorlovchi Qur'on oyatlari haqida bekorga fikr yuritmagan. Bu odamlarga, yoshlarga, islom inson qo'li tegadigan har bir narsa bilim talab qiladigan din ekanini ko'rsatib berish uchun juda yaxshi usuldir. Jadidlar boshqa,

ayniqsa, musulmonlarniki bo'lmagan madaniyatlar va dinlarga nisbatan yomon ko'z bilan qaramasligini ko'rsatishni yana bir karra tasdiqlash uchun tez-tez Evropa va Osiyo tarixiga murojaat qilib turgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida madaniyatlarning meros bo'lib avloddan-avlodga o'tishi, ularning o'zaro aloqadorligi, qadriyatlarining biridan ikkinchisiga o'tishi va bir-biriga kirib borishi haqidagi nazariya bag'rikenglik tashviqotining asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, ba'zi kishilar Sharq, jumladan, O'rta Osiyo Evropaga juda ko'p narsa bergan, deb hisoblagan. Ular IX – XII asrlardagi Renessansni hamda Temur va Temuriylar davridagi ikkinchi Renessansni hisobga olib, Evropa ilm-fan va tibbiyot rivojlanishi (Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari) sohasida juda ko'p narsa olgan deb bilgan. Endi esa ular, biz Evropadan oladigan vaqtimiz keldi, chunki ushbu Renessans XVI asrda Ma'rifat asridan boshlanib, Evropaga ko'chib o'tgan, deb hisoblaydi. Garchi odamlar turli dinga itoat etib, turli mamlakatlarda istiqomat qilsa-da, turli qabilalar va millatlarga mansub esa-da, bir otaning farzandi va zurriyoti ekaniga shubha yo'qligiga ishonchi komil bo'lgan. Ular asarlarida Evropa musulmon Renessansi davridagi O'rta Osiyoning dehqonchiligi, hunarmandchiligi va san'ati, ilm-fani va bilim sohasidagi yutuqlarini o'zlashtirgani bot-bot tilga olinadi.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik sohasida amalga oshirgan ishlari. Fitrat mana bunday deb yozgan edi: “Taassufki, agar bir yo'qotilgan madaniyatimizni, tamaddunimizni qaytarish uchun, hech bo'lmasa, bir harakat qilmasak, ulamomiz, sen kofir bo'lding, deb aytadi va bizga xalaqit bera boshlaydi”. Mahmudxo'ja Behbudiy zamonasidan shunchalik oldinlab ketgan kishi ediki, Bahouddin Naqshband maqbarasiga borganda, uning atrofida shunchalik ko'p masjid qurilganini ko'rib, o'sha vaqt uchun jasorat bo'lgan bir gapni aytadi: “bir musulmon uchun bunchalik ko'p masjidlarning keragi yo'q, unga ibodat qilishi uchun bitta joynamozning o'zi etadi. Bunchalik ko'p masjid qurgandan ko'ra, unga sarflangan mablaqqa farzandlarimizni chet elga o'qishga yuborish vaqti kelmadimikan?” Umuman, ular g'oyalari, islom dinini isloh qilishga intilishi

boshqa dinlarga nisbatan bag'rikenglikni tarbiyalash va G'arbdan bilim o'zlashtirishni o'z ichiga olgan.

O'rta Osiyoda homiylik harakati yaxshi rivojlangan edi. Tadbirkorlar, boylar va savdogarlar orasida jadidlarga homiylik qilgan kishilar ko'p bo'lgan. Masalan, mashhur Azimboevlar urug'ini olaylik. Bu dongdor urug' vakillari hali Rossiya O'rta Osiyoni bosib olmay turib, Rossiya bilan savdo aloqalari o'rnatgan, o'sha erga qatnab turgan. Albatta, ularga yaxshi, ma'lumotli, rus tilini biladigan mutaxassislar kerak bo'lgan, shuning uchun ular ushbu maktablar va gazetalarning ahamiyatini yaxshi tushungan. Masalan, Said Azimboev bunday maktablar ochish uchun maxsus joy ajratgan, pul bergan. Andijon viloyatidan Mirkomilboy ham pul ajratgan. Bunday kishilar juda ko'p edi. Ular gazetalarga homiylik qilgan, chunki homiylik mablag'larisiz gazetalarni chop etishning iloji bo'lmagan. 1900 yildan boshlab, O'rta Osiyo uchun nisbatan ko'p gazetalar paydo bo'lgan. Masalan, 1906 yilda Obidov muharrirligida "Taraqqiy" gazetasi nashr etilgan, o'sha yili Munavvarqori rahbarligida "Xurshid", 1907 – 08 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqa boshlagan. Bektemirov "Osiyo" gazetasiga rahbarlik qilgan. Biroq tez orada mustamlakachilar hukumati o'z eksperti Ostroumov bergan ma'lumotga tayanib, ushbu nashrlarni yopadi. Ostroumov maktablar va gazetalarni yopish uchun ko'p "jonkuyarlik" qilgan. Biroq ma'rifatparvarlikning gazeta va jurnallar chop qilish bilan ifodalangan yangi to'lqini 1913 yili boshlandi hamda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "El bayrog'i", "Kengash", "Turon" va Oyna" singari gazeta va jurnallar dunyo yuzini ko'rdi. 1917 yilga kelib, Turkiston muxtoriyati o'rnatilgach, "Hurriyat", "Najot", "Buyuk Turkiston" va eng muhimi, Said Azimboevning sharofati bilan "Tujjor" gazetasi paydo bo'ldi. O'sha gazeta jadidlar uchun minbar vazifasini o'tadi, islohot borasidagi g'oyalarini targ'ib qilish bilan yanada ko'proq imkoniyatlar ochib berdi. Umuman olganda, ular soni 15 ta bo'lib, ulkan mafkuraviy kuchga ega edi. Men 1917 yildan so'ng matbaa ishlari qanchalik rivojlanganini bilmayman, chunki endi boshqa qonunlar amal qila boshlagan edi. 1918-1919 yillarga kelib, Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishga rozi bo'lgan

jadidlar faoliyat ko'rsatgan qaysidir gazetalar boshqa nomlar bilan chiqib turgan. Lekin oradan ko'p o'tmay hammasi yopilib ketdi.

1917 yilda Turkistonda 100 ta jadidlar maktabi bo'lgan va albatta, ulardagi o'qitish mullalar va musulmon ruhoniylari qarshiligiga uchrab turgan. Avvalboshdanoq bu maktablar Evropa maktablariga yaqin va ta'limni rivojlantirishga yordam beradi, deb qaralgan, lekin tez orada bunday yangi maktablar omma ongiga yangiliklar olib kirayotgani va yoshlarning savollari ko'payib ketayotgani, jumladan, milliy ong uyg'onayotgani fahmlangan. Va navbati bilan yopila boshlagan. Bunday maktablar juda ko'p narsa berayotgan edi. Albatta, aholi asta-sekin ota/ona savod chiqarish uchun farzandini 40 kun o'qitishi kerakligini tushuna boshladi, oddiy maktabda esa bola 10 yil o'tiradi, madrasada esa 10 – 15 yil o'qiydi va faqat Qur'onni yod oladi. Yana maktabda xivich bilan savalash tizimi mavjud edi. Albatta, ular ayni maktablarni ustuvor ahamiyat berishi zarur bo'lgan muassasa deb tushungan, lekin aytib qo'yishim joizki, jadidlar harakatini keng miqyosli bo'lgan deyish xatodan boshqa narsa emas, chunki aholining aksariyat qismi musulmon ruhoniylari ta'sirida bo'lgan, jadidlar maktablarida tafakkuri rivojlangan va bu maktablarning istiqbolini tushungan kishilar farzandlari ta'lim olgan. Jadidlar maktablarini Evropa maktablariga bevosita o'xshash bo'lgan, deyish qiyin, lekin ularda o'sha maktablarning dastlabki namunalari (proobraz) bor edi. Birinchidan, ular partalar bilan jihozlangan, bu maktablardagi bolalar musulmon maktablaridagi singari erda o'tirmagan va o'qituvchilar ularning boshi ustida kaltak o'ynatib turmagan. Jadidlar maktablarida kitoblar, keyinchalik esa xaritalar bo'lgan.

Bu o'rinda darsliklar nashr qilishda Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqorining xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Dastlab darsliklar bo'lmagan. Ular Rossiyadan olib kelingan va tatar maktablariga mo'ljallangan bo'lgan. Ismoil Gasprinskiy bu masalada katta yordam ko'rsatgan. Jadidlar so'ngra o'zi darsliklar chop qilishga o'tgan. Munavvarqori va Behbudiy juda ko'p darsliklar yozgan. Masalan, "Kitobi avval" yoki matematika, adabiyot, geografiya bo'yicha darsliklarni olaylik. Albatta, ular qaysidir darajada Rossiya darsliklaridan

o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin, lekin shunga qaramay, bu juda katta olg'a siljish edi. Jadid maktablari sinflarida globuslar turgan. Bu eski miqyoslar bilan solishtirganda, butunlay yangi narsa edi va albatta, ajoyib natijalar bergan.

Rus tili borasida shuni aytish mumkinki, jadidlarning ko'pchiligi bu tilni yaxshi bilgan. Til konsepsiyasi Behbudiyning "Bir til emas, to'rt til kerak" deb nomlangan maqolasida ochib berilgan, ya'ni unga ko'ra, Rossiya imperiyasida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishimiz zarur. Biz harakatimiz taktikasini ishlab chiqish uchun qanday boshqarilayotganimizni tushunib olishimiz shart. Jadid maktablarida rus tili ham o'qitilgan. Ular Evropa adabiyotiga juda qiziqqan.

Hatto bunga Fitratning "Oila va oilani boshqarish tartibi" risolasini ham misol keltirishim mumkin. Albatta, risola musulmonlar hayoti va musulmon oilasi me'yorlarini bilishga asoslangan. Yuqorida aytib o'tganimdek, muallif risolasida zamonaviy kishining oilasi, er-xotinning farzandlari bilan munosabatlari qanday bo'lishiga oid Qur'on oyatlari va hadislarga tayangan. Bular barchasi taraqqiyparvarlik nuqtai nazaridan ko'rsatib berilgan.

Ayni o'rinda men yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joiz: jadidlar tadbirkorlar, savdogarlar, boshqa turli boy kishilar ko'magida Turkiston yoshlarini chet ellarga o'qishga jo'natgan. Jumladan, 22 kishi Germaniyaga, xususan, Haydelberg universitetiga yuborilgan. Yana qanchadir kishi Rossiyaga borib o'qigan. Darvoqe, 1917 yildan so'ng Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilgan jadidlar Oktyabrdagi davlat to'ntarishidan so'ng ma'rifatparvarlik va ta'lim muassasalarida ishlagan. Yoshlarni chet ellarga o'qishga jo'natish davom etavergan. Bu ishda ularning xizmatlari katta edi. O'qishga yuborilgan yoshlarning hammasi ham uni bitira olmagan. Ular orasida Saratov universitetini huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha bitirgan Ubaydulla Xo'jaev ham bor edi. Iqtisodiyot universitetlarini bitirgan boshqa jadidlar ham bo'lgan. Ammo qozoq jadidlari orasida Rossiyaning Moskva va Sankt-Peterburg universitetlarida o'qiganlari Turkiston jadidlaridan ancha ko'p bo'lgan.

Jadidchilarni ta'qib qilish 1928 – 1929 yillarda boshlangan, chunki o'sha paytda Munavvarqori ilk marta hibsga olingan, keyin ozod etilib, yana qo'lga olingan, o'sha qamoqxonada “Xotiralar”ini yozgan. 1931 yili Moskvada otib tashlangan. Moskvada sud qilingan. U Sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan yashirin “Milliy ittihad” qo'poruvchilik tashkilotini tuzganlikda ayblangan. Aslida uning tashkiloti “Turk o'chog'i” deb atalgan va tashkilotda mustaqillikka oid ayrim fikrlar bildirilgan bo'lsa ajab emas. Bo'lishi mumkin. Lekin ular ijtimoiy ma'rifatparvarlik bilan shug'ullangan. Jadidlarning aksariyati: Abdulla Qodiriy ham, Cho'lpon ham, Botu ham – Anhor bo'yida otib tashlangan. Bizda Anhor ustida bir ko'prik bo'lgan – “Alvasti ko'prik” deb atalgan. Hozir o'sha joyda Qatag'on qurbonlari muzeyi barpo etildi, jadidlar haqidagi barcha ma'lumotlar shu muzeyda saqlanadi. Hatto 76 yashar chol Junaydulla Ibrat ham Namanganda hibsga olingan va u ham otib tashlangan. Behbudiyning o'limiga oid bir necha talqin mavjud. U Sovet hokimiyati o'rnatilgan vaqtdan boshlab, siyosatdan voz kechib, maorif idoralarida ishlagan. Biroq 1919 yilda u kasal ekanini vaj qilib, haj qilishga qaror qiladi, harqalay, rasman shunday degan. Lekin bemor odam qanday qilib hajga borishi mumkin? Bir talqinga ko'ra, u Turkiston mustaqilligi masalasini muhokama qilish uchun allaqanday chet el tashkilotlari vakillari bilan uchrashmoqchi bo'lgan, lekin bu isbotini topgani yo'q. Yana bir talqinga asosan, o'sha yoqqa ketayotganda, Qarshi shahrida amir yugurdaklari uni qo'lga olgan va qatl etgan.

Jadidlar odamlar ongida o'ziga xos o'zgarish yasashning uddasidan chiqqa bildi. Jamiyatni o'zgartirish konsepsiyasini yarata oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Yangi avangard jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdi. Ta'limning yangi shakllarini yaratdi. Ular – ehtimol kichik ko'rinishda bo'lgandir, ammo – butunlay yangi madaniyat yaratdi. Odamlar ongida ayollarga nisbatan kichik bo'lsa-da, o'zgarish yasay bildi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Albatta, birdan paranjini tashlab, yuzni ochib, jamiyat ishlarida ishtirok etishga da'vat etmaydi. A.Fitrat o'z kitobida “Qiz bolalar o'qishi

kerakmi?” degan band ham bor. Muallifga ko‘ra, insonning intellektual holati, oladigan ta’limi ko‘p jihatdan ayollarga, onalarga bog‘liq. Yozishicha, erkak tirikchilik uchun egulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko‘ra ma’lumotliroq bo‘lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug‘ullanadi. Darhaqiqat shunday. Ayollar ta’lim rivojlanganini va ayollar maktabi bo‘lganini, ularda ayollar ta’lim olib, Sharq mumtoz adabiyoti o‘qitilganini bilamiz. Umuman, bu – nafaqat O‘zbekistonning, qolaversa, barcha xalqlarning, barcha turkiy xalqlarning, turkiy bo‘lmagan xalqlarning, Markaziy Osiyo xalqlarining merosi, chunki bu intellektual muhit mavjudligini, erlar, ularning ongi va intilishlari qanday bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan, Behbudiy hajga borganida Bayrut universitetini ziyorat qiladi. Hayratga tushib, “Ey Xudo, bularning laboratoriyalarini qaranglar”, deb yozadi. U kimyo laboratoriyasi bilan tanishadi. “Bu erda qanday talabalar va qizlar o‘qiyotganini qarang! Yutuqlar ham shuncha bo‘ladimi! Nega bu musulmon mamlakatida bunday universitet bor, biz ham musulmon mamlakatimiz, lekin Turkistonda oliy darajadagi birorta ham, ha-ha, birorta ham ta’lim muassasasi yo‘q?”. Albatta, madrasalar ko‘p bo‘lganini bilamiz.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

- 1.”Jahon pedagogikasi” tushunchasini izohlang
- 2.Qadimgi yunon faylasuflarining pedagogik qarashlarida qanday g‘oyalari ilgari surilgan?
- 3.Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi xususitatlari nimalardan iborat?

Mavzu bo‘yicha test savollari

1. Yigirmanchi yillarning birinchi yarmida Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni rivojlantirishning faollarini aniqlang?

- A) H.H. Niyoziy, T.SHermammedov, T.N.Qoriniyoziy;
- B) H.H. Niyoziy, M.Abdurashidxonov, S.Ayniy;
- C) T.N.Qoriniyoziy, S.Ayniy, T.SHermammedov;

D) CHo'lpon, A.Fitrat, S.Ayniy.

2.Rus muhojirlari Turkiston geniral gubernatorining farmoniga binoan qanday maqsadda maorif islohatini o'tkazgan edilar?

A) Rus maktablari, rus – tubjoy maktablari, gimnaziya ochish maqsadida;

B) Rus-tubjoy maktablarini ochish maqsadida;

C) Savodsizlikni tugatish maqsadida;

D) Milliy g'ururni yo'qotish maqsadida.

3. O'zbekistonda umumiy etti yillik ta'limni amalga oshirishga qachon kirishildi?

A) 1920 yillarning boshlarida;

B) 1930 yillarning oxirlarida;

C) 1930 yillarning boshlarida;

D) 1930 yillarning o'rtalarida.

4. “Pedagogiya, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir” – pedagogikaga bu ta'rif kim tomonidan berilgan?

A) SHukuriy;

B) Avloniy;

C) Hamza;

D) S.Ayniy.

12-mavzu: 1924-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. Mustaqillik eʼlon qilungunga qadar pedagogika fani rivojining oʻziga xosligi

2. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda taʼlim tizimi

3. Mustaqillik yillarida Taʼlim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish

Tayanch tushunchalar: Sobiq ittifoq, taʼlim tizimi, Mustaqil Oʻzbekiston, pedagogika tarixi, milliy mustaqillak, maʼrifatparvar, taʼlim tizimini insonparvarlashtirish

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Sh. Mardonov., U. Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T: "Ishonch hamkor", 2021.

2. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «Oʻqituvchi», 1996.

3. Hasanboyeva O va boshq. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «Oʻqituvchi», 1993.

4. R.A. Mavlonova va boshq. Umumiy pedagogika. Darslik. -T.: "Fan va texnologiya", 2018.

**Oʻquv qunt beradi, bilim – sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli ulugʻdir inson.**

Mahmud Qoshgʻariy

Mustaqillik eʼlon qilungunga qadar pedagogika fani rivoji. 1917-1990 yillarda xukmronlik qilgan Shoʻro siyosatining fojiaiy mohiyatini chuqur his etgan Qori-Niyoziy, S. Rajabov, Sh. Zunnun, Gʻ. Gʻulom, Oybek, M. Shayxzoda, H. Olimjon, Zulfiya, P. Moʻmin, E. Vohidov, A. Oripov va boshqa olim hamda adiblar mustabid tuzumning qabih siyosatiga bardosh bergan holda, oʻz asarlarida erk, ozodlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik gʻoyalarini bugungi avlodga etkazish masalasi dolzarb boʻlib turibdi. Ular jadidchilik harakati atoqli namoyandalarining zamondoshlari, izdoshlari sifatida ularning maʼrifatparvarlik, pedagogik gʻoyalarini, nazariyalarini davom ettirdilar. Qori-Niyoziy hayoti va

ijtimoiy, marifiy faoliyati ToshMuhammad Niyoz o'g'li Farg'ona rus-tuzem maktab binosida o'zbek maktabini tashkil qildi.

Qori-Niyoziy 1917 yil inqilobidan keyin yangi turdagi maktablar ochishda faol ishtirok etdi, maktablar uchun qo'llanma, metodik tavsiyalar yozdi. U oliy matematikaga doir „Matematika analizining asosiy kursi" nomida darslik yaratdi. Uning „Ulug'bek va uning ilmiy merosi", „Sovet O'zbekistoni tarixidan ocherklar", „Bosib o'tilgan yo'l haqida mulohazalar", „hayot maktabi" kitoblari nashr etildi. Qori-Niyoziyning ijtimoiy hayotda, maorif va ilm-fan sohasida qilgan xizmatlari davlatning yuqori ordenlari, Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti laureati unvoni bilan takdirlandi.

Qori-Niyoziy ma'rifatparvarlik qarashlarining nazariy asosi Qori-Niyoziy o'z pedagogik qarashlarida ilm-fanni yuksak darajada ulug'lab, qadrladi. U deydi: „Fan-minglab yillar mobaynida zarrama-zarra, tomchilab vujudga kelgan, asli tabiati musaffo va muazzam muhitdan iborat. Bu esa haqiqiy, chindan ham „obi hayot" mux[^]idir, chunki hammamiz, katta-yu kichik, yoshu hari bu muhitdan kundalik hayotimizda bahramand bo'lib kelmoqdamiz. Shuning uchun fan, ayniqsa, xalq xizmatiga qaratilgan ilg'or fan cheksiz xurmatga sazovordir". Qori-Niyoziyning fikricha, „haqiqiy fanning o'zi, uning asrlar mobaynida vujudga kelgan yakuni, poklikning, demak, axloqning yorqin namunasidir".

Qori-Niyoziyning uqtirishicha, axloq tushunchasi fan bilan o'zaro bog'liqdir. Shuning uchun ham fan axdlarining xalq oldida javobgarligi ham g'oyat darajada kattadir. Qori-Niyoziyning ma'rifiy qarashlarida samimiyat va mantiq tushunchalarining fanniy asosda, ob'ektiv bo'lishi masalasi ham alohida o'rinda turadi. Olimning fikricha, haqiqiy fanning qonuniyatlari ob'ektiv bo'lib, ma'lum mantiqqa suyanadi. Shuning uchun fikr fanniy asosda ob'ektgiv bo'lishi kerak. Qori-Niyoziy ta'lim-tarbiya haqida Samimiylik insonning olijanob fazilatlaridan biridir. Samimiylik rostgo'ylik bilan uzviy bog'langan. Bu ikki tushuncha o'zaro uzviyligi bilan jamiyat ravnaqida, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qori-Niyoziy joylarda ta'lim jarayonini kuzatishlarida o'qitishning muvaffaqiyati, asosan o'qitilayotgan fanga o'quvchilarni qiziqtirish

ekanligiga ishonch hosil qilgan. „Men aminmanki, - deydi u, - har bir normal qobiliyat egasi bo'lgan kishi ham bu kabi natijaga ega bo'lishi mumkin. Buning asosiy sharti vaqtdan to'g'ri foydalanish yoki boshqacha qilib aytganda, kundalik sistemali ijodiy mehnatdan iborat. Qori-Niyoziy ilm-fan aqlini har bir muammoni chidam, kuzatish, izlanish, mehnat bilan hal qilishga da'vat etadi, har bir muvaffaqiyat insonga quvonch baxsh etishini, kishining hayoti vaqt bilan bog'liq ekanligini, vaqt -sog'lik-salomatlikdan keyingi bebaho ne'mat ekanligini aytadi. Demak, muvaffaqiyatlarga erishish uchun vaqt imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish kerak. Mavjud imkoniyatlar esa halol mehnat natijasida ro'yobga chiqadi. Qori-Niyoziyning pedagogik qarashlarida baxt tushunchasi ham alohida o'rinda turadi. Qori-Niyoziy xalqning orzusi - baxt ekanligini ta'kidlar ekan, haqiqiy baxtning mohiyatini anglash - inson ongi, vijdoni va ma'naviy saviyasiga bog'liqligini aytadi. Olimning ta'kidlashicha, aql-idrokka suyanan holda, jon-dil bilan mehnat qilib, mustaqillikka, ozod-erkin hayotga muvaffaq bo'lish, bu - haqiqiy baxtdir.

Siddiq Rajabov ilmiy-pedagogik qarashlarining nazariy asosi Siddiq Rajabov o'z ilmiy faoliyatida, asosan, O'zbekistonda xalq maorifining rivojiga, didaktik masalalarga, pedagogik kadrlar tayyorlashga, chet el ilg'or pedagogik fikrlarni targ'ib etishga, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berdi. Bu haqdagi g'oyalarini „Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari“, „O'zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir“ monografiya va risolalarida, „Oliy maktab didaktikasining masalalari“, „Zamon va tarbiya“, „O'zbekistonda pedagogika fanlarining taraqqiyoti istiqbollari“ kabi tadqiqotlarida aks ettirdi. „Oliy maktab didaktikasining ba'zi masalalari“ ilmiy maqolasida u, yillar davomidagi izlanishlari, kuzatishlariga suyanan holda, ta'lim jarayonida: ilmiylik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan birligi, o'qitishda ongliklik, shaxs va jamoa birligi, aniqlik va faraz birligi, bilimni puxta o'zlashtirish prinsiplariga amal qilish g'oyalarini ilgari surdi.

Siddiq Rajabov o'z ilmiy faoliyatida xorijiy mamlakat buyuk pedagoglaridan Komenskiy, Ushinskiy, L.Tolstoyning pedagogik qarashlarini

tadqiq qilib, ilg'or fikrlaridan respublikada ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishni tavsiya etdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimi.1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingan kundan boshlab mustaqillikni, mamlakat farovonligini, xalqning tinchligini, osoyishtaligini saqlash asosiy maqsad, o'sib kelayotgan avlodga e'tibor ustuvor vazifa qilib qo'yildi. 1992 yilda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida ishlab chiqilgan ta'lim tizimiga ko'ra:

- ta'limning uzluksiz bo'lishi o'zaro mutanosiblikda tashkil etilishi;
- ta'lim va tarbiyani kompleks ravishda uyushtirish;
- ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;
- ta'lim sistemasini fan hamda ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashtirish;
- umumiy o'rta ta'lim negizida yoshlarni maxsus ta'lim muassasalarida o'qishga, mutaxassislikka, kasb-hunarga tayyorlash, deb belgilandi.

Respublikada amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim barcha ta'lim bosqichlari: maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim hamda oliy ta'lim turidan keyingi ta'lim turlari o'rtasida uzviylik o'zaro mutanosiblik bo'lishida, ta'limni ilm-fan, ishlab chiqarish yutug'lari bilan bog'liq holda tashkil etishda muhim omil bo'ldi. Tarbiyaga qamrovli yondashilganligi natijasida aqliy mehnat, axloqiy, nafosat va jismoniy tarbiya o'rtasida uzviilik mustahkamlana boshladi, o'quvchilar faoliyatining mazmunli bo'lishini, ta'limiy vazifalarning ham hamrovli tarzda amalga oshirilishini ta'minladi. Tarbiyaga hamrovli yondashish oila, maktab, jamoatchilik o'rtasida aloqani kuchaytirishda, bu aloqaning pedagogik xususiyat kasb etishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Respublikada yaratilgan davlat standartlarida ularning ijtimoiy maqsadni ifoda etuvchi bo'lishiga e'tibor berildi, ularda mustaqillik davri talab etayotgan ta'lim mazmuni, usul va shakllari belgilandi. Ta'limda qo'llangan test usuli iqtidorli bolalarni aniqlashga, ularning ilm-fan asoslarini egallashlarida muhim usul sifatida xizmat qildi.

“Ta’lim to’g’risida” qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida respublikada amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyada tubdan, keskin o’zgarish bo’la boshladi. Bu qonun ba dastur yosh avlodni Vatanga sadoqatli, uning mustaqilligini asrab-avaylashga tayyor, keng tafakkurli, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, jismonan sog’lom, ma’naviy va madaniy, ma’rifiy jihatdan barkamol qilib yetishtirishda muhim omil bo’ldi. Qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari aniq ko’rsatildi, ta’lim O’zbekiston Respubli-kasi ijtimoiy. taraqqiyoti sohasida ustivor ekanligi qayd qilingan holda, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratligi aytili:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo’nalishini: akademik litseyda yoki kasbxunar kollejida o’qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabahalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo’lishni va iste’dodni rag’batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish.

Ta’lim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda:

- o’quvchilarning bilim va qobiliyatlarini o’stirishga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tiqodli bo’lish ruhida tarbiyalashga, shaxs va jamiyat, jamoa o’rtalaridagi munosabatlarni uyg’unlashtirishga, o’qituvchi bilan o’quvchining o’zaro munosabatini „Ustoz va shogird” asosida bo’lishiga;
- o’quvchilarda yuksak estetik his-tuyg’uni, bilim olish madaniyatini shakllantirishga, shaxsiy va ijtimoiyfaoliyatini rivojlantirishga, tarbiyalashning ustivor yo’nalishlarini o’z ichiga olgan ta’lim-tarbiya dasturlarini takomillashtirishga;

- uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differentsiatsiyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etishga;

- o'quvchilar, umuman, yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishga, buning milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks ettirilgan o'quv qo'llanmalar, badiiy asar yaratishga;

- ta'lim-tarbiyada san'at asarlari-adabiyot va tasviriy, amaliy san'at namunalaridan foydalanishga ahamiyat berildi.

Uzluksiz ta'lim:

- ta'limning ustuvorligi - rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzliligi;

- demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarish davlat jamiyat tizimiga o'tkazilganligi;

- insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarini ochish va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli - tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish;

- ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

- milliy yo'naltirilishi - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatni saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muxim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirish;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish asosida tashkil etildi va rivojlantirildi.

Milliy dasturda qo'yilgan maqsadni - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish,

rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish uchun respublikada quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- “Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimi isloh qilindi, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirila boshlandi;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirildi;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomi ko'tarildi;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutug'lari asosida rivojlantirilmoqda;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda usullari ishlab chiqildi;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalash-tirilmoqda,tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatining davlat talablari darajasida bo'lishi shakllarining mexanizmi ishlab chiqildi;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlik rivojlantirilmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunda ta'lim turlari: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iborat qilib belgalandi. Maktabgacha ta'limda bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olibborildi. Umumiy o'rta ta'lim: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar); umumiy o'rta ta'lim (IIX sinflar)dan iborat bo'ldi; Boshlang'ich

ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratildi. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilindi. Umumiy o'rta ta'-limda o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmi berildi, mus-tahil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy taj-riba ko'nikmalari rivojlantirildi, kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berdi.

O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejidagi o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash xuko'qiga ega bo'ldi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga egallagan kasb-xunari bo'yicha ishlash xo'qo'qi berildi, ular o'z bilimlarini navbatdagi bosqichda davom etgarish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini ham egallamoqdalar. Akademik litseyda o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirib, ular uch yil davomida chuqurlashtirilgan bilim olmoqdalar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurti bo'ldi. O'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim turini tamomlagan bitiruvchilarga o'rta maxsus ma'lumoti haqida diplom topshirilishi belgilandi. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar: bakalavr va magistrilar tayyorlashni ta'minlamoqda. Umuman, ta'limning yangi tizimini tashkil qilgan barcha o'quv maskanlarida asosiy e'tibor o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilishga, egallagan ko'nikmalarini tajribada namoyon etishlariga, o'z Vatanining fidoiysi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etishga, mamlakat taqdiri uchun o'z zimmasiga mas'uliyat olishga qaratildi, shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratildi.

Respublikada tarbiya mazmuni, shakli tubdan o'zgardi, tarbiyaviy ishlar aniq maqsad tomon yo'naltirildi, bu jarayonda sub'ektlarning o'zaro samarali hamkorlikda bo'lishlari uchun uzviylikda bo'lgan tarbiya shakli, vosita va usullari ishlab chiqildi, amaliyotga tatbiq etildi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan

barkamol shaxs qilib yetishtirishda milliy madaniyat, ma'naviyat, ilg'or milliy an'ana, urf-odat va milliy va umumbashariy qadriyatlar asos bo'ldi., Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ishlarini davom ettirishlariga ishonishimiz lozim. Ashar Zunnunov, Malla Ochilov, Shavkat Qurbonov, Muhammad Quronov, Rustam Ahliddinov, Safo Ochil, Sanobar Nishonova, Oynisa Musurmonova, Ulfat Mahkamov, Edem Seytxalilov kabi pedagog olimlar bu masalalarni jiddiy tadqiq etib, XXI asrga qadarli pedagogik nazariyaning rivojini o'z tadqiqotlarida yoritganlar.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Mustaqillik e'lon qilungunga qadar pedagogika fani rivoji qanday edi?
2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimida qanday o'zgarish ro'y berdi?
3. Mustaqillik yillarida Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish g'oyalari ilgari surilgan?

Mavzu bo'yicha test savollari

1. «Pedagogika fanlari doktori» ilmiy darajasiga birinchi bo'lib sazovor bo'lgan olim kim?

- A) Ubay Oripov;
- B) Iminjon Qodirov;
- C) Siddiq Rajabov;
- D) Abdulla Avloniy.

2. O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1991y;
- B) 1993 y;
- C) 1995 y;
- D) 1992 y.

3.O‘zbekistonda umumiy etti yillik ta’limni amalga oshirishga qachon kirishildi?

- A) 1920 yillarning boshlarida;
- B) 1930 yillarning oxirlarida;
- C) 1930 yillarning boshlarida;
- D) 1930 yillarning o‘rtalarida.

4.Ta’limni isloh qilish borasida ro‘yobga chiqarilgan tarmoq dasturlarini aniqlang?

- A) «Sog‘lom avlod uchun», «Ma’naviyat va ma’rifat»;
- B) «Qishloq maktabi»;
- C) «Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tiklash»;
- D) Yuqoridagi barcha dasturlar.

13-mavzu: Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi
2. “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning maqsadi va vazifalari
2. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari

Tayanch tushunchalar: Mustaqil O‘zbekiston, ta’lim tizimi, ta’lim islohoti, maqsad, vazifa, printsip, milliy ta’lim, milliy tarbiya, milliy kadr, pedagogic fikr.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.”Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.// vvv ZiyonEn.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-sonli Qonuni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy o‘quv yurtlari rahbarlari va akademiklar bilan uchrashuvi.//”Xalq so‘zi” gazetasi 2019-yil 25-may
4. Mirziyoyev Sh. Insonparvar, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevori.T.: “Tasvir”- 2021.B-36.
5. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild.-T.: “O‘zbekiston”. 2018
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. 2018-yil 23-fevral, 140-sonli qarori 6

**O‘quv qunt beradi, bilim – sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli ulug‘dir inson.**

Mahmud Qoshg‘ariy

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lgandan so‘ng mamlakatimizda milliy ta’lim tizimidagi tub islohotlar 1992 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi birinchi qonun asosida boshlandi. Qonun, avvalo, milliy ta’lim tizimida ilgaridan mavjud ijobiy jihatlarni, istiqloq davrida jamiyatni ma’rifiy va ta’lim-tarbiyaviy bo‘shliqdan omon saqlab qoldi. Ta’lim-tarbiya sohasida vujudga kelishi muqarrar ma’rifiy-g‘oyaviy bo‘shliqning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini endi mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi jamiyati juda teran his qilib va anglab etgan edi. Ana shu g‘oyaviy xavfning oldi olinganligi dastlabki “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning huquqiyamaliy ahamiyatini favqulodda oshirib yubordi. Ayni paytda, qonun sobiq sovet totalitar tizimini mafkurasi illatlarni anglab olishimizga va shu orqali eski tizimdan yangi demokratik tizimga o‘tishning ma’rifiy-g‘oyaviy ko‘prigiga aylandi. Eng muhimi qonun yaratgan huquqiy-amaliy imkoniyatlar o‘laroq, ta’lim tizimiga qator jiddiy yangiliklar kirib keldi jumladan, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga kirishning test tizimi joriy etildi.

Milliy istiqlool taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasida yanada jiddiy yangilanishlar qilishni taqozo eta boshladi. Ana shu ijtimoiy talab asosida 1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ana shu Qonunning mantiqiy – amaliy davomi sifatida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ishlab chiqildi. Milliy dastur bevosita Qonunning ijrosi, shakli, vositasi hamda usullarining yig'ma amaliy-tashkiliy majmui bo'lib, ular yaxlit holda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari, tamoyillarini, talab va maqsadlarini, muammoni echimi bilan bog'liq rejalarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish yuzasidan kompleks rejasini ishlab chiqildi.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

"Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning maqsadi va vazifalar. "Ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilab berildi.

Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida yigirmadan ortiq xorijiy davlatning (Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Italiya, Angliya, AQSh, Fransiya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Hollandiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston va b.) ta'lim to'g'risidagi qonunlari o'rganildi va ularning ilg'or tajribalari inobatga olindi.

30 ga yaqin manfaatdor vazirlik va idoralar, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq mutaxassis va 100 dan ortiq fuqaro qonun loyihasi bo'yicha fikr va mulohaza, takliflarini bildirdi. Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda.

Takliflarning aksariyati ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimiga, shuningdek ta'lim sifatini yaxshilashga, muallimlarning obro'-e'tiborini oshirishga, ularning ijtimoiy himoyasiga qaratilgan.

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan qonun loyihasida boblar soni 5 tadan 11 taga va moddalar soni 34 tadan 75 taga yetkazildi.

Qonun loyihasiga quyidagi yangi boblar kiritildi:

- ta'lim faoliyati va uni tashkil etish (4-bob);
- ta'lim muassasasi xodimlari (5-bob);
- ta'lim oluvchilar va ota-onalar(qonuniy vakillar)ning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi (6-bob);
- ta'lim jarayoni qatnashchilarining ijtimoiy himoyasi (7-bob);
- ta'lim muassasalarini litsenziyalash, davlat akkreditatsiyasi, ta'lim to'g'risidagi hujjatlar nostrifikatsiyasi va apostil qo'yish (8-bob);
- ta'lim tizimida davlat nazorati (10-bob);
- ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik (11-bob).

Qonun loyihasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratildi:

- xorijiy tajribani chuqur o'rganish asosida milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- ta'lim sifatini yaxshilashga ta'sir qiluvchi omillarni va uning mexanizmlarini qonunning mazmunida aks ettirish;
- ta'lim sifatini yaxshilashga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini tartibga solish;
- katta yoshdagilar ta'limi, inklyuziv ta'lim, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb etish, mulkchilik shaklidan qat'i nazar ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar va boshqa bir qator tushunchalarni alohida moddada ochib berish va boshqalar.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- Professional ta'lim;
- Oliy ta'lim;
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- Dual ta'lim;
- Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- Inklyuziv ta'lim;
- Eksternat tartibidagi ta'lim;
- Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga ko'ra Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohalar mazmunini o'zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo'lib, istiqbol uchun yo'llanmadir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni g'oyalarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchi kadrlar muhim rol o'ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiqdir.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi
- 2.«Ta'lim to'g'risidagi» Qonunning maqsadi va vazifalari
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari

14-Mavzu: Eng qalimgi davrlardan XIV asr birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

Reja:

- 1."Jahon pedagogikasi" tushunchasi
2. Eng qalimgi davrlardan XIV asr birinchi yarmida Jahon pedagogikasi tarixi
- 3.Yan Amos Kamenskiyning pedagogik nazariyasi

Tayanch tushunchalar: davr, Jahon pedagogikasi, tarix, dunyo xalqlari, tajriba, nazariya, g'arb pedagogikasi, metodologiya, ijtimoiylashtirish, ta'lim, tarbiya.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.Mardonov., U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T: "Ishonch hamkor", 2021.
- 2.Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996.
- 3.Komenskiy Ya.A.Buyuk didaktika.-T.,1974
- 4.Bordovskaya N.V., Rean A.A.Pedagogika. Uchubnik dlya VUZov.-SPO.: "Piter".2001.)
- 5.Zunnunov A. Va boshq. Pedagogika tarixi.-Toshkent.: "Sharq".2002.156-157-betlar.

Ta'lim haqiqiy, to'la, ravshan va mukammal bo'lmog'i zarur

Ya. Komenskiy

"Jahon pedagogikasi" tushunchasi. Bugungi Globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan "Jahon pedagogikasi" fani tarixini o'rganish va uning yuqori hamda samarali amaliyotini o'zlashtirish taqoza etiladi.

Jahon pedagogikasi fani tushunchasi dunyo xalqlarining ta'lim va tarbiyaga oid tajribasi, nazariyasi, metodologiyasi hamda amaliyoti tushuniladi. Bu fanning quyidagi ikki yo'nalishi mavjud:

1) G'arb pedagogikasi (Gresiya, Italiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh va h.k.mamlakatlari xalqlari pedagogikasi);

2) Sharq pedagogikasi (Rossiya, Xitoy, Hindiston, Osiyo mamlakatlari va h.k.xalqlari pedagogikasi).

O'zbekiston "Pedagogika" fani Jahon pedagogikasi fanining Sharq pedagogikasi yo'nalishiga kiradi.

"Jahon pedagogikasi" fani dunyo xalqlarining quyidagi masalalarda tajribasini umumlashtiradi va targ'ibot qiladi:

- shaxsni ijtimoiylashtirish;
- ta'lim nazariyasi;
- o'qitish didaktikasi;
- tarbiya amaliyoti.

Ayni paytda, bu fan quyidagi masalalarda dunyo xalqlarining individualligini farqlab ko'rsatadi:


- ta'lim – tarbiyani tashkil qilish shakllari;
- ta'lim – tarbiyani amalga oshirish metodologiyasi;
- ilmiy – tadqiqotchilik yo'nalishlari;
- kadrlar tayyorlash klassifikatori.

Bu masalalarni chuqur o'zlashtirish taqoza etiladi.

"Jahon pedagogikasi" fani dunyo xalqlarining quyidagi masalalarda ommalashtiradi:

- ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalarini;
- milliy pedagogikalarning tarixi tajribalarini;
- ta'lim – tarbiya tizimini boshqarishning tajriba – sinovdan o'tgan shakllarini.

Mazkur masalalarni eslab qolish uchun tavsiya etiladi (5-chizma):



Eng qalimgi davrlardan XIV asr birinchi yarmida jahon pedagogikasi tarixi. eramizgacha (I asrgacha) bo'lgan davrni qamrab oladi. Unda Jahon pedagogikasi tarixi quyidagi umumiy xususiyatlar idrok etiladi:

- insoniyatning yozuvni kashf etishi va shu munosabat bilan og'zaki tarbiyadan yozma ta'limga o'tishi;
- inson faoliyatning aqliy va jismoniy mehnatga bo'linishi;

- bu ikki omil asosida o'qituvchi va tarbiyachi kasblarining kelib chiqishi;
- ta'lim – tarbiya asosida oila, din muassasalari va davlatning uyg'unligi.

Bu masalalarda “Jahon pedagogikasi” fani tarixida Sharq yo‘nalishi pedagogik masalalarni hal etishda yetakchi hisoblanadi. Bunda Bobil davlati savodxonlikni o‘rgatuvchi “Bilim uylari” paydo bo‘lganligi, qadimgi Misrda oila va ibodatxonalar huzurida ilk maktablar tashkil qilinganligi, Hindistonda dunyoviy va xarakterdagi ta'lim –tarbiya yuzaga kelganligi Xitoyda “Syan” va “syuy” maktablari tashkil qilinganligi muhim hisoblanadi.

Mazkur davrlarda “Jahon pedagogikasi tarixi”ning G‘arb yo‘nalishida Rim imperiyasi (Italiya, Gretsiya va Konstanpol) tashkil etgan pedagogik jarayon muhim o‘rin tutadi. Bu davlat ta'lim va tarbiyani quyidagi “trivium”, ya'ni uch fan asosida yo‘lga qo‘ygan:

- 1) grammatika (yozuv va husnixat);
- 2) ritorika (notiqlik);
- 3) dialektika (mantiq).

Keyinchalik bu fanlarga quyidagi “Kvadrivium”, ya'ni to‘rt fan qo‘shildi:

- 1) arifmetika (hisob);
- 2) geometriya (handasa);
- 3) astronomiya (koinotshunoslik)
- 4) musiqa (kuylash, ijro etish va raqs).

Shu tariqa ta'limning “yetti erkin san'ati” (fani) yuzaga keldi va unda bizga ma'lum bo‘lgan Demokrit, Suqrot, Aflotun hamda Arastuning xizmatlari katta bo‘ldi.

E'tibor berilsa, Eng qadimgi “Jahon pedagogikasi” fani rivojida унинг шарқ ва Ғарб йўналишлари тенг ҳамда муносиб ҳисса қўшишган.

O‘rta asrlarda Jahon pedagogikasi rivoji. Mazkur davr eramiznig I asrdan XIX asr birinchi yarmigacha bo‘lgan tarixni qamrab oladi. Bu davrdagi “Jahon pedagogikasi” fani rivojida quyilagi omillar muhim o‘rin tutadi:

- buddiylik dini;
- xristianlik dini;

- islom dini;
- mutafakkirlarning ilmiy va amaliy faoliyati;
- davlatchilik.

Jumladan, Bobilda uch (quyi, oʻrta va oliy) bosqichli quyidagi savodxonlik maktablari tashkil etildi:

- a) diniy;
- b) dunyoviy;
- v) xususiy;
- g) davlat.

Islom diniga amal qiluvchi Sharq mamlakatlarida VIII asrdan quyidagi taʼlim tizimi faoliyat boshladi:

- masjidlar huzuridagi oʻrta maktablar;
- madrasalar (quyi, oʻrta va oliy bosqichli).

Yevropa mamlakatlarida XIII asrdan quyidagi taʼlim muassasalari yoʻlga qoʻyildi:

- mehnat maktablari;
- hunar maktablari;
- universitetlar.

Bularning barchasi I-XIX asr birinchi yarmigacha boʻlgan davrda “Jahon pedagogikasi” oʻziga xos tarzda rivojlanganligini koʻrsatadi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, antik falsafa (pedagogi-ka)da ham Demokrit, Platon, Aristotel (Arastu) asarlarida ham zohriy va botiniy ilmlar uygʻunlikda insonparvarlik gʻoyalari ilgari surilgan edi.

Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokritlar asos soldilar. Ular oʻz qarashlari bilan taʼlim-tarbiya rivojlanishiga juda katta xissa qoʻshdilar. Quidan biz bu faylasuf olimlar haqida qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Suqrot er.av. (469-399y)da yashab ijod yetgan. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini oʻrganish boʻlmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi boʻlmogʻi lozim yedi. Suqrot

aylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham yedi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishlariga undar yedi. Suhbatning bu usuli «Suqrot usuli» deb atalgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini ya'ni «Evristik» suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi. U tarbiyada axloqiy, yestetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli «mumtoz» largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona yegalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

7 yoshdan 12 yoshacha yesa davlat maktablarida taxsil olib, ularga o'qish, yozish, xisob, musiqa va ashula darslari o'rgatiladi.

12-16 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy mashqlarni o'rgatadigan «Polestra» maktabida, 18 yoshga qadar dunyoviy fanlarni o'qitadigan maktablarda, 18-20 yoshgacha yesa «Efeb» maktablarida taxsil olib harbiy ta'lim o'rgatiladi.

Uning fikricha, «Efeb» maktabini tugatgandan so'ng qobiliyatli va iqtidori bo'lgan yigitlar falsafa ilmini o'rgatadigan uchinchi bosqich oliy ta'limni o'taydilar.

Platon tarbiya tizimida asosan jismoniy mexnatga nafratni singdirish, quldorlar manfaatini himoya qilish maqsadi nazarda tutiladi.

Uning pedagogika tarixida tutgan o'rni shundaki, u dastlab maktabgacha tarbiya to'g'risidagi g'oyani ilgari surib, yoshlarga ta'lim berishning izchillik tizimini ishlab chiqqanligidadir.

Yunon aylasuf olimlaridan yana biri Arastudir. U yer, av. (384 -322) yillarda yashagan.

Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya aqidalarni ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir.

U insonni yoshlik yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7 - 14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. U oilaviy tarbiyaga doir bir kancha tavsiyalar beradi. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli xarakatli mashklar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb xisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lim berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. o'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi.

Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi yerkaklarning tarbiyasiga o'xshashi mumkin yemas, chunki xotin-qizlarning tabiati yerkaklarning tabiatidan farq qiladi deb xisoblaydi.

Arastu Platondan farq qilib, bola tarbiyasida oila tarbiyadan chetlashtirilmaydi. Axloqiy tarbiya berish asosan oila zimmasida yekanligini uqtiradi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surgan olim bo'lib, u "Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi" deydi. «Ta'lim mexnat asosidagina go'zal narsalarni xosil qiladi» deb tarbiya ishida mexnatning roli beqiyos yekanligini takidlaydi. Uning xizmati shundaki, u inson kamolatida mexnat tarbiyasining roliga katta ye'tibor berib, yoshlarga mexnat tarbiyasi berishning usullarini ko'rsatib berganligidadir.

Mark Fabiy Kvintilian – mashhur rimlik notiq va pedagog. O'z maktabi tajribalari va antik dunyodagi pedagogik fikrlarga asoslanib, ba'zi pedagogik muammolar aks yetgan birinchi maxsus pedagogik qo'llanma – «Notiqni tarbiyalash haqida» asarini yaratgan.

Kvintilian bolalarni tarbiyalashga ye'tibor qaratib, bola shaxsi rivojlanishida uning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishga katta ahamiyat beradi.

Uning fikricha, «Bilishga intilish irodaga bog‘liq, majburan o‘qitish mumkin yemas» (Kvintilian «O vospitanii oratora», 1-qism, 3, 8-betlar).

Kvintilian bolalar katta tantalarda ishtirok yetadigan hamda kattalarning nojo‘ya xatti-harakatlarining guvohi bo‘ladigan Rim jamiyatining yuqori qatlamlaridagi oila tarbiyasini qattiq tanqid qiladi. U ota-onalardan bola ta’sirlanuvchan bo‘lishi, unda yaxshi va yomonlikning oson ildiz otishini yesda tutishni talab qildi hamda tarbiyachi-pedagoglarni tanlashda ham bunga ye’tibor qaratishni uqtiradi.

Kvintilianning pedagogik qarashlarida bolalarni notiqlik san’atini yegallashlariga oid fikrlar ham mavjud. Bo‘lajak notiqqa o‘tkir xotira, badiiylikni his yetish, yaxshi talaffuz qila olish, nutqning yorqinligi va mimikani shakllantirish lozimligini qayd yetadi. Notiqni tarbiyalashning yeng yaxshi vositasi Kvintilianning fikricha, she’r yod olishdir. U hozirda qo‘llanilayotgan she’rni yod olish metodikasini ham o‘z davrida taklif qilgan yedi: dastlab she’r to‘liq o‘qib chiqiladi, so‘ng qismlarga bo‘linadi va navbati bilan qismlar yodlanadi, nihoyasida butun she’r yoddan aytiladi.

988-yilda xristian dinini qabul qilingan Krill va Mefodiylar grek alfabiti asosida kirill alifbosini ishlab chiqdilar. Sharqiy slavyan tili rus yozuvi uchun asos qilib olindi. Kiev Rusiga xristan dini bilan birga vizantiya madaniyatining ayrim yelementlari ham kira boshlagan.

U vaqtlarda maktablar cherkov va monastor qoshida ochilar yedi. Rus knyazlarning maslahati bilan 988-yilda knyaz Vladimir cherkov binosini qurib poplar tayinladilar va nomdor kishilarning, o‘z mulozimlarining bolalarini yig‘ib o‘qitdi.

1028 yilda knyaz Yaroslov Novgorod shahrida “oqsoqollar va poplarning” bolalaridan 300 ga yaqinnini to‘plab kitob o‘qitgan.

Yuqoridagi ikki faktdan ma’lum buo‘ishicha Rossiyada maktablar X asr oxiri XI asr boshlarida ochilgan. Rossiyadagi dastlabki maktab cherkovlar va monastorlar huzurida ochilgan va kutubxonalar tashkil yetilgan.

XI-XII asrlarda Kiev davlatining madaniyati g'arbiy Yevropadagi yirik davlatlarning madaniyatidan ancha kuchli yedi. Rus knyazlari va boyarlari orasida o'qimishli, madaniyatli kishilar bo'lgan. Knyaz Yaroslov birinchi marta kutubxona ochgan, uning tashbusi bilan grek timlidagi kitoblar rus tilida tarjima qilingan.

Knyaz Svyatoslov ma'lumotli kishilarni o'z atrofiga to'plagan. Svyatoslav o'z zamonasining yeng ma'rifatli kishisi yedi. XI asr oxirida "Svyatoslav to'plami" nashr qilingan.

Kiev rusning madaniyati – rus, ukrain va belarus xalqlari madaniyatining o'sishiga asosiy manba bo'lgan. Bu kabi faktlar shuni kursatadiki, XI-XII asrlar qadimgi rusda madaniyat va maorif rivojlangan. Ana shunday davrda rus pedagogik to'plamlari vujudga keldi: "Izmagarad" (zumrad) "Izbornik Svetoslava", "Zlatuystroy", "Zlatoust" kabilar. Bu to'plamlarda bola tarbiyasi haqidagi fikrlar tavsiya qilingan "Vladimir Monamaxning bolalarga nasihati" asari juda katta ahamiyatga yega. U bu asarida bolalarni Vatanni sevishga, Vatanni dushmanlardan himoya qilishga, harakatchan mehnasevar, va botir kishilar bo'lishiga chaqiradi. U bolalarni insonparvar, kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarni izzat qiladigan bo'lib tarbiyalashlarini talab qiladi.

XVI asrning ikkinchi yarimida cherkovlar qoshida maktablar ochila boshlaydi. Lekin bu maktablar rus ma'rifatining talabini qondira olmas yedi. Natijada "Savod ustalari" tashkil qilingan.

Yan Amos Komenskiyning pedagogik nazariyasi. "Jahon pedagogikasi" fani tarixida muhim o'rin tutuvchi mutafakkir pedagoglardan biri chex olimi Yan Amos Komenskiydir (1592-1670). Yetmish sakkiz yil umr ko'rgan bu mashhur pedagog maktab ochib, o'qituvchilik qiladi hamda pedagogik asarlar yozadi.

Pedagogning quyidagi asarlari mashhur:

- 1) "Buyuk didaktika" (o'qitish nazariyasi);
- 2) "Onalar maktabi" (oilalar tarbiyasi);
- 3) "Parsofiya" (bilimlar qomusi).

Komenskiyning eng asosiy asari “Buyuk didaktika” (Didactica Magna)dir. Bu asarda quyidagi masalalar bo'yicha uning pedagogik nazariyasi o'z ifodasini topgan:

- o'qitish nazariyasi asoslari;
- tarbiyada inson va tabiat uyg'unligi;
- ta'limning uzviyligi;
- ta'limning usullari.

Bu masalalar XVII asr “Jahon pedagogikasi” fani uchun muhim edi va olim ularni pedagogik qonuniyatlar asosida tahlil qilib berdi.

Pedagogning nazariyasida “o'qitish va tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari” masalasi muhim ahamiyatga ega. Ob'ektivlik – ta'lim va tarbiyaning asosiy qonunidir.

Bundan tashqari, Komenskiy o'qitishning quyidagi bosqichlarini asoslab berdi:

- 1) avtopsiya (shaxsiy tafakkur, hissiyot);
- 2) avtopraksiya (mustaqil harakat);
- 3) avtoxresiya (o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmani amaliyotda qo'llash);
- 4) avtoleksiya (nutqda o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyati);
- 5) avtofteziya – (his qilish, tuyg'u).

“O'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida bu bosqichlarga amal qilsa, o'qitishda samaraga erishadi”, - deydi u.

Shuningdek, uning pansofiya (bilimlar qomusi) g'oyasining mazmuni quyidagicha: ”Sivlizatsiyalar va madaniyatlar kashf qilgan bilimlarni umumlashtirish zarur. Bu bilimlar majmuini ijtimoiy, irqiy va diniy mansubligidan qat'iy nazar har bir insonga o'rgatilishi shart. Mazkur ish o'qitish va tarbiyalash vositasida amalga oshirilishi kerak”.

Komenskiy pedagogik tizimining asosiy g'oyasi barcha sinflar, millatlar va irqlardagi bolalarni umuminsoniy ta'lim va tarbiyalash g'oyasi edi. U pedagogika tamoyillari inson tabiati bilan yondashishi kerak, tarbiya va ta'limning vazifasi shaxsga xos bo'lgan hamma narsani boshidanoq rivojlantirishdan iborat deb

hisoblagan. Ona tilida dars berish kerak, o'rganish mehnat bilan birga bo'lishi kerak. Trening vizual, izchil, uzluksiz va tizimli bo'lishi kerak. Maktabda faol, cheklanmagan, erkin, jasur insonlar yetishib chiqishi kerak. Ta'lim majburlash emas, balki ishontirish orqali amalga oshirilishi kerak. Bolalarni tarbiyalashda kattalar namunasi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi kasb emas, balki da'vatdir.

“Buyuk didaktika” kitobidan ta'limning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- Inson tarbiyasi hayot bahoridan, ya'ni bolalikdan boshlanishi kerak.

- O'rganilishi kerak bo'lgan hamma narsa yosh darajalariga qarab taqsimlanishi kerak - shuning uchun faqat ma'lum bir yoshda idrok qilinadigan narsa o'rganish uchun taklif qilinadi.

- Maktablar o'quvchilar bir vaqtning o'zida faqat bitta fanni o'rganadigan tartibni o'rnatishi kerak.

- Har qanday til, har qanday fan avvalo eng oddiy elementlarida o'rgatish kerak, shunda o'quvchilarda ular haqida umumiy tushunchalar shakllanadi.

- O'quv mashg'ulotlarining butun majmuasi ehtiyotkorlik bilan sinflarga bo'linishi kerak - toki oldingisi har doim keyingisiga yo'l ochadi va uning yo'lini yoritadi.

- Vaqtni eng katta aniqlik bilan taqsimlash kerak - har bir yil, oy, kun va soatning o'ziga xos ishi bo'lishi uchun.

- Har qanday yo'l bilan bolalarda bilim va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni tasdiqlash kerak.

- O'qitish metodi o'quvchilarda norozilik uyg'otmasligi va keyingi o'qishdan qaytarmasligi uchun o'rganishdagi qiyinchiliklarni kamaytirishi kerak.

- Har bir fan eng ixcham, ammo aniq qoidalarda bo'lishi kerak.

- Har bir qoidaga ko'plab misollar qo'shilishi kerak, shunda uning qo'llanilishi qanchalik xilma-xilligi aniq bo'ladi.

- Faqat foydali bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar haqida jiddiy o'ylash kerak.

- Har bir narsa doimiy mashqlar bilan mustahkamlanishi kerak.

- Hamma narsani bir narsaga qaratib, ketma-ket o'rganish kerak.

- Har bir mavzu tushunilgunga qadar unga to'xtalib o'tish kerak.

Bugungi kunda barcha mamlakatlar ta'limda o'qitishning dars shakli ilmiy – pedagogik asoslarining yaratilishi ham Komenskiyga tegishlidir.

Shunday qilib, eng qadimgi davrlardan XIX asr birinchi yarmida “Jahon pedagogikasi tarixi” fani rivoji muhim xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. “Jahon pedagogikasi” tushunchasini izohlang
2. Qadimgi yunon faylasuflarining pedagogik qarashlarida qanday g'oyalari ilgari surilgan?
3. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi xususatlari nimalardan iborat?

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Pedagogika olamiga savol javob va «Evristik» suhbat metodini olib kirgan faylasuf olim kim;

- A) Platon;
- B) Suqrot;
- C) Arastu;
- D) Demokrit.

2. «Sinf-dars tizimi»ning asoschisi...

- A) Avloniy;
- B) Hamza;
- C) Komenskiy;
- D) Ushinskiy.

3. «Bolalar dunyosi», «Ona tili» darsligining muallifi kim.

- A) Komenskiy;
- B) Avloniy;
- C) Ushinskiy;

D) Said Rasul Aziziy.

4.«Takrorlash bilimning onasidir». Ushbu ibora qaysi pedagog olimning fikriga mansub.

A) SHakuriy;

B) Hamza;

C) Kamenskiy;

D) Ushinskiy.

15-mavzu: Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji

Reja:

1. Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi
2. Osiyo mamlakatlari ta'lim tizimi
3. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogika fani rivoji

Tayanch tushunchalar: Jahon mamlakatlari, ta'lim tizimi, Evropa, Osiyo, xalqaro baholash dasturi, ishlab chiqarish, amliyot, professional kadrlar atyyorlash.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1."O'zbekiston-2030" strategiyasi.-Toshkent, 2024.
- 2.Bordovskaya N.V., Rean A.A.Pedagogika. Uchebnik dlya VUZov.-SPO.: "Piter".2001.)
- 3.Zunnunov A. Va boshq.Pedagogika tarixi.-Toshkent.: "Sharq".2002.156-157-betlar.
- 4.O'taev A.Y. Bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari.-Toshkent,2024

Ta'lim hayotga tayyorgarlik emas, ta'limhayotning o'zi

Jon Dyu

Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi. Pedagogika tarixida jahon mamlakatlari ta'lim tizimi tajribalarini o'rganish va ularning yutuqlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi o'zaro o'xshash va uyg'undir. Shu jihatdan Buyuk Britaniyada 9 yillik umumiy o'rta ta'lim, 3 yillik o'rta maxsus ta'lim (kollejlarda shaklida) va 4 yillik oliy ta'lim tizimi amal qiladi. 9 yillik umumiy o'rta ta'lim bilan aholi to'liq qamrab olingan. Mazkur ta'lim bosqichida asosiy e'tibor Tabiiy fanlarni o'qitishga qaratilgan. O'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida o'qitishning 4+2 shakli, ya'ni haftaning 4 kunida auditoriya mashg'ulotlari va qolgan 2 kunida malakaviy amaliyot o'tash tizimi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bu mamlakatda jahon mamlakatlarida kam uchraydigan eksternat ta'lim ham yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, shaxs mustaqil ravishda o'rta maxsus yoki oliy ta'lim olishi mumkin, ta'lim muassasalarida imtihon topshirgach unga mutaxassislik diplomi beriladi.

Germaniya Federativ Respublikasi ta'lim tizimida gumanitar fanlarni ustuvor o'qitish qabul qilingan. Buning natijasida milliy ta'lim tamoyiliga amal qilish tarkib topgan. Umumiy o'rta ta'lim 10 yilliy o'quv tizimiga asoslanadi va umumiy o'rta ma'lumotga ega shaxslar bevosita oliy ta'lim tizimiga qabul qilinadi. Ushbu mamlakatda o'rta maxsus ta'lim tizimi yo'q va aksincha, har bir yirik korxonalar o'z ishchilariga kasb-hunar ta'limi beradi. Buning natijasida mamlakat iqtisodiy korxonalarida korxonalar ishlab chiqarishiga mos bo'lgan kasb-hunarli shaxslar faoliyat yuritadi. Mazkur tajribadan kelib chiqib, mamlakatimizda ham 2025 yildan boshlab ishsiz fuqarolar davlat tomonidan kasb-hunarga o'qitish jarayoni yo'lga qo'yilmoqda.

Fransiya Respublikasi ta'lim tizimida jahon tillarini o'qitishga ustuvor darajada e'tibor beriladi. Mamlakatda umumiy o'rta ta'lim tizimi 9 yil, shundak keyin kollejlarda shaklidagi o'rta maxsus ta'limga o'tiladi. Fransiyada 1990 yildan boshlab oliy ta'lim tizimi bakalavr va magistratura bosqichlariga amal qilib kelmoqda. Fransiya oliy ta'lim tizimi magistratura bosqichi mutaxassislik

xususiyatlariga qarab 1,2 yillik qilib belgilangan. Misol uchun, bo'lajak pedagoglar 1 yillik magistratura ta'limida o'qishadi. Frantsiya davlatida Ta'lim haqida»gi qonun 1989 y 10 iyulda qabul qilingan va ta'lim tizimi ushbu qonunga hozirgi kunga qadar amal qilib kelinadi.

AQSh va Kanada davlatlarida yagona ta'lim tizimiga amal qiladi. Unga ko'ra, bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalarida, 1-8-sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablarida, 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablarida ta'lim olishadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda universitetlarda amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda xavsizlik va oziq-ovqat sohalariga yo'naltirilgan ta'lim tizimi mavjud. Mazkur mamlakatlarda oliy ta'lim kontrakt asosida amalga oshiriladi. Shu sababli 2015 yili mamlakat parlamenti Kongress kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini universitetlarda bepul ta'lim olishi uchun kvotalar ajrata boshladi. AQSH maktablarida o'quv yili 180 kunni tashkil etadi. AQSH davlatida muntazam ravishda har yili 21 oktabr kuni «O'quvchilarni aqliy qobiliyatini aniqlovchi test savollari» o'tkaziladi.

Argentinada 2-4 sinf boshlang'ich ta'limi majburiy, qolgan 5 yillik umumiy o'rta ta'lim ixtiyoriydir. Mazkur mamlakatda sport sohasi chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi. Mamlakatda oliy ta'lim tizimi rivojlanmagan va fuqarolarning ko'pchiligi AQSh oliy ta'lim muassasalarida o'qiydi.

Braziliya mamlakatida keyingi 10 yil davomida aholini 9 yillik umumiy o'rta ta'lim bilan qamrab olish islohotlari amalga oshirilmoqda. Chunki mamlakat o'rmonlarida tashqi dunyodan uzilgan qabilalar ko'p yashaydi. Mamlakat ta'lim tizimida o'rmon-sanoat sohasi ustuvor darajada o'qitiladi. Fuqarolarining nisbatan ko'pchiligi AQSh va Kanada oliy ta'lim muassasalarida o'qiydi.

Ma'lum bo'ladiki, Amerika mamlakatlari ta'lim tizimi rang-barang xususiyatlarga ega. Ayni paytda, bu mamlakatlarda AQSh pedagoglari tomonidan tayyorlangan o'quv adabiyotlari amal qiladi.

Finlandiya ta'lim tizimi dunyo miqyosida eng sifatli va samarali deya e'tirof etilgan ta'lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu tizim dunyoning aksariyat

davlatlarida amal qiluvchi ta'limning an'anaviy shakllari va usullaridan keskin farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega.

Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xosligi ta'lim jarayonida asosiy ustuvorlik o'qituvchi va o'quvchi uchun imkon qadar erkin, qulay, jismoniy zo'riqish va ruhiy bosimlardan holi muhit yaratishga qaratilganligida namoyon bo'ladi

Finlandiyada ta'limning asosiy maqsadi — ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha bolalar uchun sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ularni jamiyatning faol fuqarolari sifatida voyaga etkazish va mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat. Mamlakatda bepul maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim barcha uchun kafolatlangan.

Finlandiya ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta'lim: erta bolalik ta'limi va parvarishi hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan maktabgacha ta'lim (7 yoshgacha);
- Umumiy o'rta ta'lim: boshlang'ich va tayanch o'rta ta'lim;
- O'rta-maxsus ta'lim: umumiy o'rta-maxsus ta'lim yoki kasbiy ta'lim va tayyorgarlik;
- Oliy ta'lim;
- Katta yoshlilar uchun ta'limning barcha bosqichlari.

Finlandiyada maktabgacha ta'lim bepul taqdim etiladi va barcha bolalar uchun majburiydir. Maktabgacha ta'lim bolalarda bilim olish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularni keyingi bosqich - umumta'lim maktablariga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablari 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni boshlang'ich (1-6 sinflar) va tayanch o'rta ta'lim (7-9 sinflar) darajasida qamrab oladi. 1-6 sinflarda o'quvchilar pedagogikaga ixtisoslashgan o'qituvchi (sinf rahbari)dan, 7-9 sinflarda ixtisoslashtirilgan fan o'qituvchilaridan saboq oladi. Umumta'lim maktablarida ta'lim olish majburiy bo'lib, odatda, bolalar 7 yoshga to'ladigan yildan o'qishga qabul qilinadi. Boshlang'ich va tayanch o'rta ta'lim bepul.

Umumta'lim maktabini tamomlagan o'quvchilar ikki turdagi o'rta-maxsus ta'limdan birini tanlashi mumkin. Umumiy o'rta-maxsus ta'lim, odatda, o'quvchilarni muayyan kasbga emas, universitetlarga tayyorlashga ixtisoslashgan. Kasbiy ta'lim va tayyorgarlikni tanlagan o'quvchilar esa muayyan kasb-hunarga o'rgatiladi.

Finlandiya ta'lim tizimi barcha uchun teng ta'lim imkoniyatlarini taklif etishga qaratilgan. Mamlakatda ta'lim sohasi mutaxassisleri tomonidan ta'limdagi eng asosiy ustuvorliklar belgilab olingan bo'lib, bu ta'limga jamiyatlardagi tengsizlikni muvozanatlashtirib turuvchi vosita sifatida qarash, o'quvchilarni ta'lim jarayonida bepul ovqat, tibbiy xizmat, psixologik maslahat xizmatlari bilan ta'minlash hamda individual tarzda yo'naltirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, tegishli qonunchilikka muvofiq, zaruratga qarab o'quvchilar maktabga qatnash uchun transport vositasi yoki turar joy bilan ta'minlanishlari mumkin. Bundan tashqari, o'quvchi maktab hududida, dars yoki boshqa o'quv mashg'ulotlari vaqtida, maktabga ketayotgan yoki qaytayotgan paytda, yotoqxonada jarohatlangan taqdirda davolash xizmatlari bepul amalga oshiriladi. Shunisi e'tiborliki, Finlandiyada deyarli barcha maktablar davlat maktablari hisoblanadi va ularga hukumat tomonidan teng miqdordagi moliyalashtirish mablag'lari ajratiladi. Muayyan fanlarni chuqurlashtirib o'qitish yoki muayyan fanlarga ixtisoslashgan alohida maktablar tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanmaydi

- Maktabda darslar nisbatan kechroq — ertalabki 9:00-9:45 dan boshlanadi, bu o'quvchilarning tiniqib uxlashi, dars vaqtida o'zini uyquchan his qilmasligi va mashg'ulotlarda tez toliqib qolmasligiga yordam beradi;

- Darslar va tanaffuslar davomiyligi uzoqroq, fin maktablarida o'quvchilar bir o'qish kunida o'rtacha 3 tagacha fan o'qiydi va o'rtacha 5 soat vaqt o'tkazadi, darslar orasidagi nisbatan uzoqroq davom etuvchi tanaffuslar ularga tamaddi qilib olish, dam olish, vaqtichog'lik qilish va biroz toza havo olishga imkon yaratadi;

- Fin o'quvchilari dunyo bo'yicha maktabdan tashqari uy vazifasiga eng kam - o'rtacha yarim soat vaqt sarflaydigan o'quvchilar sifatida e'tirof etiladi;

- O'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun standartlashtirilgan imtihonlar o'tkazilmaydi (universitetlarga kirish maqsadida ixtiyoriy ravishda topshiriladigan Milliy kirish imtihonlari bundan mustasno), har bir o'quvchiga individual yondashiladi va undagi shaxsiy o'sish individual xususiyatlariga ko'ra baholanadi, boshqa bolalar bilan solishtirilmaydi. Fin maktablarida asosiy urg'u bolani imtihonlarga emas, mustaqil hayotga va real voqelikka tayyorlashga qaratiladi.

E'tiborli jihatlaridan yana biri shundaki, mamlakatda milliy darajadagi tayanch o'quv dasturi fin maktablarida asosiy e'tiborni o'quvchining ta'lim olishi hamda salomatligiga qaratishni nazarda tutadi. O'quv mashg'ulotlari o'quvchining mustaqil faoliyati hamda o'qituvchi, boshqa bolalar va o'qitish muhiti bilan o'zaro aloqasiga qaratilgan ta'lim konsepsiyasiga asoslanadi. Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan yuqori sifat va erta yoshdan tashxislash tamoyili hech kim o'zlashtirishda orqada qolmasligini kafolatlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda universitet bitiruvchilarining bor-yo'g'i 10 foizigina magistr darajasini olishga muvaffaq bo'lgani holda, o'qituvchilarga magistr darajasiga ega bo'lish qat'iy talab hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, finlyandiyalik o'qituvchilar yuqori malakali va o'z ishiga kuchli mas'uliyat bilan yondashadi, o'z navbatida, jamiyatda o'qituvchilarga nisbatan yuksak ishonch va hurmat shakllangan

O'qituvchilar faoliyati baholanmaydi, tekshiruvlardan o'tkazilmaydi. Ya'ni o'qituvchilarga hisobdorlik emas, mas'uliyat yuklanadi. O'qituvchilar tayyorlash tizimining uzluksizligi va sifati sababli faoliyatlari davomida ularga erkinlik: o'qitish usullari va o'quv materiallarini milliy va mahalliy darajadagi o'quv dasturlari asosida mustaqil tanlash huquqi beriladi.

Maktablar ta'lim jarayonida davlat tomonidan majburiy ta'lim uchun tasdiqlangan muayyan fanlarning barchasi yoki ayrimlarini o'qitish yoki o'z ixtiyorlariga ko'ra fundamental ta'limga mos boshqa fanlarni o'qitish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilishi mumkin. Mahalliy darajada o'quv dasturini maktablar miqyosida ishlab chiqish mahalliy o'qituvchi-pedagoglarni ta'limni rivojlantirish haqida bosh qotirishga undaydi va ularga faoliyati davomida pedagogik mas'uliyat yuklaydi.

Mazkur keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir mamlakatda milliy ta'lim tizimi tarkib topgan.

Osiyo mamlakatlari ta'lim tizimi. Osiyo mamlakatlari ichida Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimi boy tajribaga ega. Unga ko'ra, 10 yillik umumiy o'rta ta'lim, 3 yillik o'rta maxsus ta'lim va 5 yilliy oliy ta'lim tizimi amal qiladi. Bu mamlakatning mutaxassasiliklar bo'yicha berilgan diplomlar jahon mamlakatlarida birdek qabul qilinadi. Ushbu mamlakatda 10 yilliy umumiy o'rta ta'lim 100 ballik kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Buning natijasida 10 yillik umumiy o'rta ta'lim jarayonida to'plangan ballar oliy ta'lim muassasalariga kirish huquqini beradi. Bu tajriba mamlakatimizda ham o'rganilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Maorifga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri – Singapurdir.

Singapur umumiy ta'lim tizimi uch bosqichdan iborat. Mamlakat ma'muriy jihatdan 4 ta ta'lim hududiga bo'lingan bo'lib, har bir hudud 7 ta maktab klasteridan iborat. Har bir klaster o'rtacha 12-14 boshlang'ich va o'rta maktabni o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida (Ifodali o'qish yutuqlarini o'rganuvchi xalqaro tadqiqot tashkiloti) Singapur aholisining savodxonligi dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Singapur maktablarining o'quvchilari 1995 yildan buyon matematika va tabiiy fanlar TIMSS (matematika va tabiiy fanlar bo'yicha tendensiyalar) bo'yicha xalqaro bilimlar imtihonlarida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda.

Singapurda o'quvchilarni maktabga qabul qilish 6 yoshdan boshlanadi. Boshlang'ich maktabda talabalar matematika, ingliz tili, etika, musiqa va jismoniy tarbiya kabi fanlardan asosiy bilimlarni oladi. 6-sinf oxirida ular o'rta maktabda o'qishni davom ettirishga ruxsat beruvchi PSLE yakuniy imtihonini topshiradilar. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, PSLE imtihonlari milliy imtihondir. Imtihon ingliz, ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini tekshirishga qaratilgan.

O'rta umumiy ta'lim 4 yil davom etadi. Ushbu bosqichda talabalar texnik sohani, buxgalteriya hisobi, shuningdek davlat va xorijiy tillarini o'rganishga ixtisoslashgan yo'nalishlardan birini tanlashlari mumkin. Bu bosqichdan so'ng umumta'lim maktablari bitiruvchilari texnikumlarga (3 yillik) yoki texnik institutlarga (o'qish muddati - 2 yil) o'qishga qabul qilinadi. Talabalar ushbu o'quv dargohlarida quyidagi sohalarida mutaxassisliklarni olishlari mumkin: muhandislik, aloqa, raqamli texnologiyalar, biotexnologiya va buxgalteriya hisobi. O'qishni tugatgan bitiruvchilarga ishga joylashish imkonini beradigan diplom beriladi. Shuningdek bu bosqichdan so'ng bitiruvchilar Oliy ta'lim muassalarida ham o'qishlarini davom ettirishlari mumkin.

Singapurda boshlang'ich maktab majburiy va pullik hisoblanib, ta'lim xarajati oyiga 9,4 AQSh dollar va yiliga bir marta to'lanadigan 79,4 AQSh dollarni tashkil qiladi. O'rta ta'lim uchun ota-onalar har oyda 14,4 dollar va har yil uchun bir marta 115,5 dollar to'laydi. Universitetgacha bo'lgan davr ta'limi uchun harajat oyiga 19,5 dollarni va yiliga bir marta to'lanadigan 158,8 dollarni tashkil etadi.

Singapurda davlat tomonidan ajratiladigan barcha mablag'lar, shuningdek, o'quv to'lovlari maktab fondiga tushadi. Klaster rahbarlari muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali kelib tushgan mablag'larni va barcha harajatlarni nashr etadilar.

Singapur ta'lim tizimining asosiy afzalligi - o'qituvchilar tarkibini tanlashdir. Mamlakatda o'qituvchilar malakasini oshirish sohasida Milliy ta'lim instituti (MTI) faoliyat yuritmoqda.

Ta'lim vazirligi o'rta maktab bitiruvchilari orasidan eng iqtidorlarini o'qituvchilik kasbi uchun tanlab oladi. Ular o'qituvchi ish haqining 60 foiziga teng bo'lgan stipendiya olishadi va kamida uch yil davomida pedagogik bilim beriladi. Bundan tashqari, Singapurning maktablarida tajribali o'qituvchilar yangi kelgan o'qituvchilarni "shogirdlikka"ga olish, murabbiylik tizimi tashkil etilgan. Shuni ta'kidlash joizki, Singapurda o'qituvchilar davlat xizmatchilari hisoblanadi. Mamlakatda aholining savodxonlik darajasi 96% ni tashkil qiladi.

Mamlakat taraqqiyoti uchun kadrlar tayyorlashda o'rta maktab tizimi muhim o'rin tutishini inobatga oladigan bo'lsak, hozirgi kundagi O'zbekistondagi ta'lim tizimini yaxshilash borasida xorij tajribalarini o'rganish va xalqaro standartlarga javob beradigan tizim yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy mamlakatida 10 yillik umumiy o'rta ta'lim amal qiladi. Bu mamlakatda o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim nisbatan rivojlangan emas. Har bir ishlab chiqarish korxonasi o'z ishchilarini mutaxassislikka o'qitadi. Shu sababli o'rta kichik kasb-hunarga ega bo'lgan shaxslar mazkur mamlakatda ko'pchilikni tashkil qiladi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Tojigiston, Qirg'iziston va Turkmaniston Markaziy Osiyo davlatlarida 11 yillik umumiy o'rta ta'lim, 2 yillik o'rta maxsus ta'lim va 6 yilliy oliy ta'lim tizimi amal qilishini eslatib o'tish joiz.

Osiyo mamlakatlari ichida Indoneziya davlati 9 yilliy umumiy o'rta ta'lim va 3 yillik o'rta maxsus ta'lim bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega. Chunki bu mamlakatda ta'lim tizimi YuNESKO tavsiyalari asosida ishlab chiqarilgan qisqa muddatli o'quv dasturlari amal qiladi. Mamlakat ta'lim tizimida ingliz, rus, fransuz va ispan tillarini ustuvor darajada o'qitishga e'tibor qaratadi. Mamlakat fuqarolarining ko'pchiligi okean sohasiga yo'naltirilgan kasb-hunarlarga ega. Fuqarolar oliy ma'lumotni Rossiya va Fransiya oliy o'quv yurtlarida o'qish bilan egallaydi.

Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogika fani rivoji. Xorijiy ta'lim tizimini o'rganishimizning maqsadi esa bitta respublika ta'lim tizimiga xorijiy tajribani tadbiq qilishdir. Ta'lim tizimining jahon darajasiga ko'tarilishida bu tajriba asqotadi. Hozirgi kunda bevosita barcha ta'lim muassasalari jahon davlatlari bilan mustahkam hamkorlik aloqalari o'rnatgan. Qolaversa, professor o'qituvchilar chet davlatlarga borib malaka oshirib kelishmoqda. Va shu bilan o'rganilgan tajribani, yangi pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etishmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini

yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq - atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Ma'lum bo'ladiki O mamlakatlari ta'lim tizimi ham rang-barang bo'lib, ular mamlakat muhiti va sharoitiga mos ravishda tashkil qilingan.

Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi masalasida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, jahon mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim majburiy va ixtiyoriy xuussiyatga ega;

ikkinchidan, har bir mamlakatda milliy manfaatlardan kelib chiqib ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan;

uchinchidan, har bir mamlakat o'z sharoitidan kelib chiqib fuqarolarning kasb – hunarli bo'lishini ta'minlash masalasiga ustuvor darajada munosabatda bo'ladi;

to'rtinchidan, jahon mamlakatlari xorijiy tillarni o'qitishga ustuvor darajada ahamiyat beradi;

beshinchidar, keyingi besh yil davomida jahon mamlakatlari o'quv adabiyotlarini halqaro baholash ta'lim dasturlari qoidalariga mos ravishda ishlab chiqishga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Evropa mamlakatlari ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang?
2. Osiyo mamlakatlari ta'lim tizimi va Evropa mamlakatlari ta'lim tizimini solishtiring?
3. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogika fani rivoji qanday rol o'ynaydi?

Mavzu bo'yicha test savollari

1.AQSH maktablarida o'quv yili necha kunni tashkil etadi?

- A) 200 kun;
- B) 180 kun;
- C) 170 kun;
- D) 240 kun.

2.Frantsiya davlatida hozirgi kunga qadar amal qilib kelayotgan «Ta'lim haqida»gi qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1955 yil 8 dekabrda;
- B) 1975 yil 15 avgustda;
- C) 1989 yil 10 iyulda;
- D) 1948 yil 10 iyulda.

3.O'quvchini ilk davridanoq kasb-koriga yo'naltirish, ularni o'z Vataniga faxr va iftihor ruhida tarbiyalash quyidagi qaysi davlatlar pedagogikasida asosiy o'rin egallaydi?

- A) AQSH;
- B) Yaponiya;
- C) Germaniya;
- D) Frantsiya.

4.Finlandiya ta'lim tizimi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

- A) Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim, katta yoshlilar uchun ta'limning barcha bosqichlari;
- B) Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim;
- S) Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim;
- D) Umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim, katta yoshlilar uchun ta'limning barcha bosqichlari.

MUNDARIJA

KIRISH.....	
1-mavzu: Pedagogika tarixi fan sifatida.....	
2-mavzu: Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	
3-mavzu: VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.....	
4-mavzu: Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji.....	
5-mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.....	
6-mavzu: Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha ayollar ta'lim va tarbiyasi mazmuni.....	
7-mavzu: XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik manbalar.....	
8-mavzu: VII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.....	
9-mavzu: XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.....	
10-mavzu: XVII asrdan XX asrning 1-choragida Turkiston o'lkasida ayollar ta'limi masalasining faollashishi va yoritilishining pedagogik sharoitlari.....	
11-mavzu: Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.....	
12-mavzu: 1924-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.....	
13-mavzu: Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.....	
14-mavzu: Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi	
15-mavzu: Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.....	

